

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

"SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH"

fanidan

MA`RUZALAR
MATNI

NAMANGAN - 2008

Ma`ruzalar matni oliy o`quv Yurtlarining noiqtisodiy yo`nalishlari bo`yicha bakalavriatning «Soliqlar va soliqqa tortish» fani dasturi asosida tayg`rlangan.

Ma`ruzalar matnida soliqlar va soliqqa tortishning eng muhim masalalari: funktsiyalari, umumdavlat soliqlari, maxalliy soliqlar va yig`imlar, ularni hisoblash usullari va to`lash tartibi kabilar kiritilgan.

Tuzuvchilar: katta o`qituvchi K.Tojiboyev

Taqrizchilar: dots.A.Yuldashev
dots.I.Sirojiddinov

KIRISH

Mamlakat iqtisodiyotini tartiblash va umumahamiyatga ega bo'lgan xarajatlarni moliyalashtirish uchun davlat ma'lum miqdordagi moliyaviy manbalarga ehtiyoj sezadi. O'zbekiston Respublikasi moliya tizimida soliqlar va boshqa majburiy ajratmalar orqali davlat bYudjetini hamda ijtimoiy jag'armalarning daromadlari shakllantiriladi. Mazkur munosabatlar bakalavriat bosqichining iqtisodiy ta'lim yo'nalishlarida batafsil o'rganib chiqiladi, lekin noiqtisodiy ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalarda ham soliqlarga oid tushinchalarni shakllantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bakalavriat bosqichining noiqtisodiy ta'lim yo'nalishlarida "Soliqlar va soliqqa tortish" maxsus kursining o'qitish jarayonida soliqlarning nazariy masalalari, ularning ob'ektiv zarurligi, soliq to'lovchilarning majburiyatlari va huquqlari hamda Yuridik va jismoniy shaxslarning soliqqa tortish masalalari atroflicha o'rganiladi.

"Soliqlar va soliqqa tortish" maxsus kursining o'qitishdan maqsad talabalar ongida soliqlar to'g'risida tasavvurni hosil qilish va soliq to'lovchi sub'ektlardan undiriladigan soliqlar va majburiy to'lovlarning huquqiy asoslarini, ular orqali to'plangan daromad manbalaridan foydalanish yo'nalishlari bo'yicha bilimlarni shakllantirish xisoblanadi.

Kurs olidiga qo'yilgan vazifalar: soliqlarning mohiyatini, soliq siyosatini, soliq tizimining nazariy jihatlari, soliq to'lovchi Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliq turlari va ularning undirilishi bilan bog'liq munosabatlarni o'rgatishdan iborat.

SHu bilan bir qatorda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan soliq islohotlarini tadrijiy rivojlanishi va Prezidentimiz tomonidan chiqarilgan farmon va qarorlarning ma'no-mohiyatini talabalar ongiga singdirishdan iboratdir.

Mazkur maxsus kurs mamlakat miqyosida yoki aloxida iqtisodiyot sub'ektlari, shuningdek, jismoniy shaxslar bilan davlat bYudjeti daromadlarini shakllantirish Yuzasidan soliq munosabatlarini tashkil etishhamda muvofiqlashtirish jarayonini o'rganadi.

SHuning uchun soliq munosabatlariga xukumat tomonidan alohida e'tibor qaratiladi. Soliqlar vositasida YAIMni qayta taqsimlash orqali davlat bYudjetini daromadlar qismini shakllantiradi. SHuning uchun ushbu maxsus kurs mamlakatda soliq munosabatlarini optimal darajada samarali amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Talabalarining "Soliqlar va soliqqa tortish" maxsus kursini o'zlashtirish uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahaiyatga ega. Maxsus kursni o'zlashtirishda elektron matYeriallar, vYertual stendlar hamda soliq xizmati organlari web-saytlari ma'lumotlaridan axborot texnologiyalardan foydalaniladi. SHuningdek, gipoteza va farazlarni ilgari surish va olingan natijalarni tekshirish, jarayonda tashabbuskorlik, intiluvchanlikni shakllantirishga qaratilgan mustaqil ta'lim metodlarini qo'llanilishi, mustaqil, tahliliy, ijodiy fikrlash uchun muhit yaratilishi, jarayonning modellashtirilishi, xamkorlikning ortishiga Yerishish kabi pedagogik texnologiyalardan ma'ruza va amaliy darslarda foydalaniladi.

1-mavzu: "Soliqlar va soliqqa tortish" maxsus kursining o'qitishning zarurligi, maqsadi va vazifalari. soliqlarning iqtisodiy mohiyati va xususiyatlari.

1. "Soliqlar va soliqqa tortish" maxsus kursini noiqtisodiy ta'lim yo'nalishi talabalariga o'qitishning zarurligi, kursning maqsadi va vazifalari.

2. Soliq tushinchasi va mohiyati.

3. Soliqlarning tavsifi va umumiy belgilari hamda zarurligi.

4. Soliqlarni bYudjet daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati.

5. Soliqlarning paydo bo'lishi va rivojlanish davrlarida soliqlarning tamoyillari, ularning xususiyatlari.

6. Soliqlarning asosiy funktsiyalari va ularga tavsif.

Soliqlar va soliqqa tortish fanining boshqa fanlar singari o'ziga xos predmet va vazifalari mavjud. Bu fanni o'qitishning zarurligi bozor iqtisodig'ti munosabatlari ichida soliq munosabatlarining ahamiyati o'sib borag'ganligidan kelib chiqadi.

Soliqlar va soliqqa tortish fani soliq voqe'liklarini (harakatlarini) chuqur o'rganish asosida zaruriy xulosalar chiqarib, ularni amalig'tga tadbiiq etish yo'llarini o'rgatadi.

Soliqlar va soliqqa tortish fani soliq amalig'tidagi eng to'g'ri, eng mukammal va eng progressiv voqe'liklarni o'rganib, amalig't uchun xuddi bir dasturiy amalday g'ritib boradi. Nazariya voqe'liklarni amalig'tdan oladi va yana amalig'tga eng to'g'ri, ma'qul va ilg'or tajribalar olinib amalig'tga yo'l ko'rsatish uchun o'rgatiladi.

Demak, nazariya amalig't uchun kerak va amalig't uchun kompas, barometr, yo'l boshlovchi vazifasini bajaradi. Nazariyasiz amalig't yo'ldan adashgan yo'lovchidir. Nazariyani chuqur bilgan amalig'tchi har qanday o'zgarishlarda ham ishlab keta oladi va yo'ldan adashmaydi.

Soliqlar va soliqqa tortish fanini o'qitishning zarurligi amalig'tda yo'ldan adashmaslik, keraksiz soliqlar bo'yicha o'zgartishlarga yo'l qo'ymaslik, amalig'tda istiqbolli qadamlar tashlash uchun va katta muvaffakiyatlariga erishish uchun ham zarurdir.

Soliqlar va soliqqa tortish fani soliq nazariyasi fani bilan chambarchas bog'liqdir, uning maxsus bo'limi, ya'ni chuqurlashtirilgan va kengaytirilgan bo'limidir. Chunki soliq nazariyasi qonuniyatlari umum iqtisodiy nazariya qonuniyatlaridan chetga chiqib keta olmaydi, ularga asoslanadi va rivojlantiriladi.

Soliq munosabatlari moliya munosabatlarining tarkibiy qismi bo'lganligi bois, soliqlar va soliqqa tortish fani ham moliya nazariyasi fani bilan chambarchas bog'liq. Soliqlar va soliqqa tortish fanining o'ziga xos xususiyatlari soliq to'lovchilar bilan davlat o'rtasidagi majburiy harakterga ega bo'lgan pul munosabatlarini o'rgatadi.

Soliqlar va soliqqa tortish fani davlat b'Yudjeti fani bilan ham o'zaro bog'liqdir. Chunki soliqlar oxir oqibatda b'Yudjet daromadlarini shakllantiradi. Soliqlar (daromadlar) bo'lmasa b'Yudjet munosabatlarining o'zi bo'lmaydi. Bu fan chet mamlakatlar soliq tizimi, buhgalteriya hisobi, soliq qonunchiligi asoslari, soliqlarni prognoz qilish fanlari bilan ham chambarchas bog'liqdir.

Har qanday fan o'zining predmetiga, ya'ni izlanish ob'ektiga ega bo'ladi. Masalan, texnologiya fanining predmeti bo'ladi kimg'viy moddalarning tarkibini o'rganish hisoblansa, mashinasozlik fani uchun mashinalar mexanizmini harakteristikasi bo'ladi, soliqlar va soliqqa tortish fanining predmeti soliq munosabatlarini (harakatini), soliqlar mexanizmini har tomonlama o'rganishdan iboratdir.

Fanning predmeti soliq voqe'liklari pul munosabatlarini o'rganishdan iborat bo'ladi. Bu pul munosabatlari soliq to'lovchilar (Yuridik va jismoniy shaxslar) bilan soliqni o'z mulkiga aylantiruvchi (soliq oluvchi) davlat o'rtasidagi munosabatlardir. Fanning mohiyati shu o'rtadagi munosabatni chuqur o'rganish, ularni to'g'ri tashkil qilishni ta'minlashdir. To'g'ri tashkil etish deganda soliq munosabatida qatnashuvchi tomonlarning iqtisodiy manfaatini e'tiborga olish, muvozanatni saqlash kabi munosabatlarni tashkil qilish tushuniladi. Bu muvozanatni saqlashda tomonlar adolatlik va insofliq tamoyiliga amal qilishi zarur. Tushunarliroq qilib aytsak, b'Yudjetga soliqlarni olishda soliq to'lovchilar bo'yniga ortiqcha og'irlik osmaslik, ularni o'z ishlab chiqarishidan manfaatdorligini so'ndirib qo'ymaslik, ularning dasturlari va rejalarini tez - tez o'zgartirishga olib bormaslik va xokazolarga e'tibor berish ko'zda tutiladi. Bu erda tomonlarning do'stona munosabatda bo'lishi, bozor iqtisodig'ti talablariga mos iqtisodiy munosabatlar bo'lishini o'rgatadi. Fanning predmetini chuqur o'rganish shuni ko'rsatadiki, munosabatlarda bir tomonlama zo'ravonlik munosabati bo'lguday bo'ladi, ikkinchi tomon unga javoban o'z daromadlari, boshqa soliq ob'ektlarini har xil yo'llar bilan yashiradi. Bunday hollarda har qanday huquqiy hujjatlarning ham kuchi etmay qolishi mumkin. Daromadlarni, soliq ob'ektlarini yashirish holati ham munosabatlarni buzadi.

Demak, soliqlar va soliqqa tortish fanini chuqur o'rganish orqali amalig'tda soliq tushumlari rejalarini muvaffakiyatli bajarish vazifasiga ham erishish mumkin.

Fanning funktsiyalari soliq mo'taxassisi va boshqa soliq idoralari xodimlarini nazariy jixatdan qurollatirish hamda amalig'tda adashmaslik uchun yo'l - Yuriklar ko'rsatishdan iboratdir. SHuningdek, chet el soliq amalig'tini o'rganish va taqqoslash asosida tegishli xulosalar ishlab chiqish, ularning ish tajribalarini o'zimizning amalig'tga moslab zarur joylarini tadbiiq etishdan iboratdir.

Demak, fanning asosiy funktsiyasi Yuqori malakali soliq mo'taxassislari tayg'rlashda ularni ham nazariy, ham amaliy jixatdan uslubiy qo'llanmalar bilan ta'minlashdir.

Soliqlar ning paydo bo`lishi davlatning paydo bo`lishi bilan bog`liq bo`lganligi uchun hamda hozirgi o`zbekistonda ijtimoiy ximoyalangan bozor iqtisodig`ti sharoitida davlat uni tashkilotchisi ekanligidan soliqlar va soliqqa tortish fani davlatning o`ta zarur bo`lgan xilma - xil vazifalari bilan chambarchas bog`liq va ularga asoslanadi. Davlat mamlakatda yaratilgan ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish uni taqsimlashning qonun - qoidalarini ishlab chiqadi. Bu taqsimlashdagi munosabat bozor iqtisodig`ti sharoitida pul orqali amalga oshirilganligidan davlat uni taqsimlashni ham pul munosabatlari orqali, ya`ni soliq, pul va kredit orqali amalga oshiradi. Davlatning bunday faoliyatini o`rganish - soliqlar va soliqqa tortish fanining diqqat - markazida turadi.

Bozor iqtisodig`ti talab va taklif, rakobat, qiymat va boshqa qonunlar orqali amalga oshiriladi. Bozor iqtisodig`ti - erkin iqtisodig`t, pulli munosabatlar iqtisodig`tidir. Soliqlar ham pul munosabatlarini ifoda etganligi uchun bozor iqtisodig`ti tarkibiga kiradi, uning ajralmas qismidir.

Bozor iqtisodig`ti qonunlari - soliqlar va soliqqa tortish fanining asosini tashkil etadi. U qonunlarni chuqur anglamasdan turib soliqlar va soliqqa tortish mexanizmini tushunib bo`lmaydi.

Bozor iqtisodig`ti qonunlarini o`rganib chiqib, davlat yalpi ichki mahsulot qiymatini soliqlar orqali taqsimlash vazifasini o`z zimmasiga oladi. SHunday ekan, davlat to`g`risidagi ta`limot - davlat iqtisodig`tni boshqarishda bosh rol` uynashi soliqlar va soliqqa tortish fanining asosi bo`ladi xizmat qiladi. Davlat bozor iqtisodig`tini boshqarishda etakchilik, boshqaruvchilik rolini uynaydi. Davlat soliqlar ni iqtisodiy mohiyati va vazifalarini o`rganib chiqib, uni amalig`tga tadbiiq qilishni o`z zimmasiga oladi.

Soliqlar va soliqqa tortish faninig soliq xizmati xodimlarini tayg`rlashdagi roli. Soliq xizmati xodimlari o`zlariga qonuniy hujjatlarda Yuklangan vazifalarni muvaffakiyatli bajarishlari uchun faqat amaliy jixatdan soliqlarni bilibgina qolmasdan, soliqlarning mohiyati, belgilari, ularning ob`ektiv zarurligiga, davlatning soliq sig`sati, soliqlar tizimi, soliqqa tortish tizimi, soliq idoralari tizimi va boshqalar kabi nazariy masalalarni chuqur bilishlari zarur. Buning uchun esa soliqlar va soliqqa tortish fanini chuqur o`rganish kerak. SHuni nazarda tutish zarurki, Leonardo Da Vinchi aytganidek: «Nazariya kumondon, amalig`t askarlardir» Nazariya amalig`tni to`g`ri yo`lga boshlovchi kompasdir. har qanday vazifalarni kadrlar xal qiladi. SHuning uchun, ular chuqur nazariy bilimga va kasb maxoratiga ega bo`lishlari zarur

Fanning mazmunini chuqur egallagan har qanday mo`taxassis soliqlar va soliqqa tortish jarag`nini o`rganishda va ularni xag`tga to`g`ri va to`liq tadbiiq etishda adashmaydi. SHunday ekan bu fan soliq xizmati xodimlari, soliq soxasi vakillari, ilmiy xodimlar uchun o`zlarining ilmiy saloxiyatlarini oshirishda katta rol` uynaydi.

Demak, davlat borki, solik bor, sababi davlat uz xarajatlarini soliklar orkali koplaydi.

Davlat paydo bulishi bilan soliklar jamiyatdagi iktisodiy munosabatlarning zaruriy buginiga aylangan.

Solikka tortishning ibtidoiy shakli – kurbonlik kilishdir. U mutlako kungilli asosda amalaga oshmagan, albatta. Kurbonlik kilish g`zilmagan konun edi va shu tarika u majburiy tulov g`ki yigim shaklini ola borgan. Demak kurbonlik urniga solik tulovchilar asta-sekin mol tulovi tulay boshlaganlar. eramizdan avvalgi birinchi ming yillikda Urta Osig` xududida kabilalarning dastlabki sig`siy ittifoklari tuzilib, ular Baktriya, Sugd, Orolbuyi va Xorazm voxalarida kuldorlik tuzumiga asosan solingan edi. Bu davlatlarda jon soligi va er soligi asosiy solik xisoblanar edi. Davlat tuzumi mustaxkamlanib borgan sari solik tizimi xam rivojlanib bordi.

Eramizdan avvalgi birinchi ming yillikning urtalarida Urta Osig` Axamoniylar saltanati – eron davlati tarkibiga kirdli. Urta Osig` xalklarining eronga tobeligi xar yili ulpon yigish va xarbiy lashkarlar etkazib berishdan iborat bulgan. Sak va kaspuy kabilalari 50 talant (bir talant 25 kg 248 gr sof oltinga teng edi). Xorazm, Sugd, Arsi kabilalari esa 300 talant mikdorda solik tulashar edilar. Iskandar eron davlatini bosib olganidan sung Urta Osig` uning imperiyasi tarkibiga kiradi. Solik tulash tizimiga xam uzgarishlar kiritiladi. Xar maxalliy zodagonlar orasidan chikkan noib farmonbardorlik kilar edi. Maxsus solik idorasi bulmasada ulpon tizimi mavjud edi. Ulponchilar solik tulovchilardan xazina bilan tuzilgan shartnomada kelishilgan mikdorda, kup xollarda undan kuprok ulpon tular edilar. Xozirgi Urta Osig` xududida 651 yildan boshlab arablar xukmronligi boshlandi. Ular 570 yil xukmronlik kildilar.

Arablarda davlat xazinasini tuldırishninig xar tomonlama ishlangan manbai “zakot”-xayr-exson extig`jlari uchun tulanadigan solik edi. Asta-sekin “zakot” urnini “sadaka”, ezgu niyat kilib beriladigan exson egalladi. Tarixchilar solik turlarini ifodalashda ularning uch xilini bir-biridan ajratar edi.

Ulpon, u vazifa deb xam atalar edi.

Jon soligi.

Xiroj – er soligi.

Xiroj turli shakllarda olinar edi:

Nisaxa – ekinzor birligidan kat`iy belgilangan me`g`rlarda (natura g`ki kiymat)

Mukota – kat`iy summada.

Mukosama – xosilning muayyan ulushi mikdorida.

Urta Osig`da kuprok “mukosama” shakli kullanilar edi, u xosilning uchdan bir kismiga teng edi. Solik turlaridan tashkari mexnat majburiyatlari xam bor edi, bular arik kazish, yangi Yul ochish va eskilarini tuzatish, kuprik kurish kabilardir. Arab xalifaligining solik tizimini Urta Osig`ga tadbik etgan kishi Movarounnaxr fotixi Kutayba ibn Muslim edi. Xalifa Umar II (717 – 720) maxalliy axoliga xolis munosabatda bulish sig`satini kullab, Xuroson noibi Al – Jarroxdan islomga utganlarni jon va er soligidan ozod etishni talab kildi. Al – Jarrox bu talabga buysundi, ammo islomga endi utgan kishilarga kushimcha shart kuyadi, ulardan xatna kildirishini talab etadi. Ammo ma`lum yillar utib arablar odamlarni solikdan ozod kilish mavjud tuzum ildiziga bolta urish ekanligini sezib koldilar. SHunda “Arabning kuchi – islomda” degan shiorning urniga “Arabning kuchi – xirojda” degan shior olga surildi. endilikda islomni kabul kilganlar va xatna kilingan yangi musulmonlargina “juya” ya`ni jon soligidan ozod etila boshladi. IX – X asrda Movarounnaxrda er soligi mikdori erga kim egalik kilishiga karab belgilanar edi.

Mulki sultoniy – urning xujayini sultonning uzi edi. Devon amaldorlari bu erlarni nazorat kilib turar edilar.

“Mulk” erlar – xukmron sulolaning ayrim namog`ndalari, zodagonlar, boylar, saidlar, musulmon ruxoniylar, xarbiylar va savdogarlarga karashli edi.

“Vakf” erlari – masjid, madrasa, xonaka, makbara kabi islom dini muasassalariga tegishli erlar edi.

1221 yilda Urta Osig` xududida mugullar oldida bosib olingan erlarni ijtimoiy – iktisodiy rivojlantirish Yullarini belgilash vazifasi kundalang bulib turar edi. Mugul zodagonlaridan utrok xag`tga karshi bulganlari barcha erlarni yaylovga, shaxarlarni esa xarobaga aylantirish kerak degan taklif bilan chikdilar.

Mugullar xukmronligi davrida asosan solik turlari “kalon” (er soligi) va “kungur” edi. Undan tashkari xunarmandlar va savdogarlardan va boshka kasb egalaridan ulpon yigilar edi. Urta Osig`ni mugullar zulmidan ozod kilgan zot Amir Temur (1336 – 1405 y) buldi. YArim asr mobaynida u Kashmirdan Urta er dengizigacha, Orol dengizidan Fors kultigigacha kadar yastangan erlarda ulkan imperiya tuzdi. SHu imperiyada amal kiluvchi solik sig`satini ishlab chikdiki, bu sig`sat “Temur tuzuklari”da uz ifodasini topgan.

Amir Temur fikricha, solik konunlarini ishlab chikishda, avvalo, el manfaatlarini xisobga olish, uning solik tulashga kodirligini, xar bir yakka xujalikning badavlatlik darajasini asos kilib olish zarur. Solik sig`satida imtig`zlarga xam keng urin berilgan edi. Bog yaratganlar, xarob erlarni obod kilganlar birinchi yil xech narsa tulasmas edilar, ikkinchi yili uz roziligi bilan, uchinchi yildan esa konunlarga muvofik solik tular edilar. Amir Temur davrida asosiy solik turlari “xiroj”, “juzya”, “ulok”, “ovorizot” kabilar edi. Ayrim joylarda farmon bilan belgilanmagan solik va yiginlar xam bulgan.

1868 yilda Turkistonda chor xukumati moliya kumitasini tuzib, davlat daromadlari va xarajatlari xakidagi nizomni ishlab chikdi. Solik va solikka tortishdagi yangilik shundan iborat buldiki, barcha soxalarda maxsulot urniga pul bilan tulash tartibi joriy etildi.

Pul kadsizlanib ketganligi sababli pul soligi urniga xam natura soligi joriy etildi. 1921 yilning baxoridan teng rivojlanish davriga utilishi munosabati bilan yangi iktisodiy siysatga uta boshladilar. Bu tovar-pul munosabatlarini rivojlantirishga karatilgan sig`sat edi. Xammaga uzlarining ortikcha maxsulotlarini erkin sotishga ruxsat berildi. 1921 yilda xunarmandlik soligi joriy etildi. 1922 yilda mulk soligi, 1923 yildan boshlab davlat korxonolari foydasidan 10 % lik daromad soligi, foydadan ajratma soligi, 1930 yildan boshlab uy-joy kurilish soligi joriy etildi. 1930 yil 2 sentyabrda xukumatning karori

bilan solik isloxoti utkazildi. Davlat xujaliklaridan oborat soligi va foydadan ajratma, kooperativ xujaliklaridan oborat soligi va daromad soligi joriy etildi. Oborat soligi egri solik bulib, u markazlashgan sof daromad xisoblanar edi. Oborat soligiga me`g`r kilib usha davrda 53 xil tulovdan tuziladigan soliklar summasi olingan edi.

1930-1931 yillarda utkazilgan solik isloxotlarining axamiyati shundaki, davlat bYudjeti bir tekisda tushib turadigan manbaga ega buldi. Bu solikning axamiyatini 62 yil uzgarmasdan xizmat kilganligidan bilish mumkin. Batan urushi davridagi yangilik shundan iborat buldiki, 1941 yildan boshlab buydoklik, yakkaboshlik va kam oilalik soliklari kiritildi. 1960 yildan boshlab minimum ish xakiga solik solinmaydigan buldi.

Uzbekiston Respublikasi 1991 yil 1 sentyabrdan mustakil deb e`lon kilindi, mustakillik iktisodiy mustakilliksiz rivoxlana olmaydi, shu sababli xam solik tizimini kayta kurish zaruriyati tugildi. 1992 yildan boshlab mustakil yangi solik tizimi asal kila boshladi. 1992 yil 14 yanvarda kabul kilingan "Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinag`tgan soliklar tugrisida" degan konun kabul kildi. Bu konunga binoan 1992 yilgacha amal kilgan oborat soligi, foydadan ajratma tulovi urniga yangi daromaddan daromad soligi va yangidan Respublikadan chekkaga chikadigan tovarlarga aktsiz soligi, mol-mulk soliklari joriy etildi. 1997 yil 1 yanvardan ekologiya soligi, 1998 yil 1 yanvardan suv resurslaridan foydalanganlik soligi joriy etildi. Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi xuzurida 1991 yil 12 avgustda bosh davlat solik boshkarmasining tuzilishi g`ki mustakil davlatning solik tizimini shakllantirishda juda muxim rol` uynadi.

Bozor munosabatlariga utish davrida solik tizimiga printsiplial g`ndashuvlar tugrisida Respublika Prezidenti I.A.Karimov fikr Yuritib, shunday degan edi: "Biz soliklarni

rejali ravishda oshirib borish, davlat va jamiyatga foyda keltirmasligini tula-tukis anglab olishimiz kerak. Bundan tashkari, soliklar daromadlarining bir kismini kamrab oladi, ular xalk xujaligiga va axoliga zarur bulgan yaxshirok maxsulot va tovarlarni kuprok ishlab chikarishga intiluvchi tashkilotlar xamda fukarolarni xar jixatdan ragbatlantirish kerak.

Bir necha yil davomida soliklar ikkinchi darajali iktisodiy vositalardan davlatning jamiyat iktisodiy turmushiga, tashkilotlarga ta`sir utkazishning kudratli omiliga aylandi.

O`z-o`zini nazorat qilish uchun savollar.

Soliqlar va soliqqa tortish fanini o`qitish nima uchun kerak?

Soliqlar va soliqqa tortish fani nimani o`rgatadi uning qanday funktsiyalari bor?

Soliqlar va soliqqa tortish fanining mazmunida nimalarni o`rgatish maqsadi g`tadi?

Fanni mo`taxassis kadrlar tayg`rlashdagi roli qanday?

2-mavzu: O`zbekiston Respublikasi soliq tizimi va soliq munosabatlari

subektlarining huquq hamda majburiyatlari

1. Soliq tizimining mohiyati va guruhlanish tartibi.

2. O`zbekiston Respublikasida soliq tizimini isloh qilinishning asosiy yo`nalishlari.

3. O`zbekiston soliq tizimining rivojlangan davlatlar soliq tizimi bilan o`xshashlik va farqli jihatlari.

4. Soliq to`lovchilarning huquqlari va majburiyatlari, vakolatli organlarning huquq va majburiyatlari.

Biz avvalo solik tizimi va solikka tortish tizimi tushunchalarini bir-biridan farklay olshimiz kerak. Solik tizimi deganda – mohiyati jixatidan bir xil bulgan va markazlashgan pul fondiga tushadigan solik turlarining yigindisi tushuniladi. Solikka tortish tizimi deganda esa solikka tortish tizimining amaliy uslublari yigindisi tushuniladi g`ki bulmasa Solikka tortish tizimi deb Uzbekiston Respublikasi Oliy kengashi tomonidan belgilangan va ijrochi idoralar tomonidan undiriladigan soliklarni tuzish, belgilash usullari va tamoyillari yigindisiga aytiladi. Xozirgi sharoitda Uzbekiston Respublikasi solikka tortish tizimining eng muxim vazifasi bozor iktisodig`ti sharoitida davlat bYudjetini mablag bilan ta`minlash xisoblanadi.

Davlat solikka tortish tizimi bir kator elementlardan tashkil topgan bulib ular jumlasiga quyidagilar kiradi.

Solik ob`ektlari, manbalari solikka tortish sub`ektlari solik birligi va stavkasi normasi va solik ogirigidan iborat.

Solik ob`ekti – solik nimaga solinsa shu narsa solik ob`ekti xisoblanadi. Solik ob`ekti asosan 3 guruxga bulinadi: oborot, daromad va mulk.

Anikrok aytganda sotilag`tan maxsulot oboroti , oigan foyda, er maydoni, transport vositasining kuvati va boshkalar solik obekti xisoblanadi. Solik obekti asosan solik nomini ifoda etadi.

Solik subekti – bulib-solik munasabatlarida katnashuvchi tomonlar xisoblanadi. Amalg`tda kupincha solik subekti deganda solik tulovchilarni tushuniladi. Ammo xech kaday solik munosabatsiz bulmaydi. Munosabat bulishi uchun esa kamida 2 tomon buladi. Demak solik sub`ektlari bu solik tulovchilardir.

Solik tulovchilar solikni nima xisobdan tulasu usha solik manbai bulib xisoblanadi. Masalan erga solik solish deganda solik ob`ekti bulib er xisoblansa, erdan keladigan daromad uning manbai xisoblanadi. Ayrim soliklar daromadidan olinadigan solik buyicha solik ob`ekti xam manbai xam bir xil buladi. Soliklar tugrisidagi konunda soliklar tulanishi uchun asos buladigan 2 ta manba nazarda tutiladi, sarmoya va daromad. Agar daromad olishga g`rdam beradigan sarmoya solik manbai sifatida belgilansa unda asta-sekin sarmoya tugashi mumkin. Bu bilan birga tabiiyki daromad olish manbai xam tugaydi. SHu sababli solik manbai bulishi kerak.

Solika tortish birligi va stavkalari. Solikka tortish birligi deganda solik ob`ektining bir bulagi tushuniladi. U butun ob`ektdan solik xisoblash uchun zarur bulgan me`g`r vazifasini bajaradi. Masalan: axoli ixtig`ridagi erdan solik undirilag`tganda xar bir kvadrat metr korxonalar erlaridan xar bir gektar solik birligi xisoblanadi. Solik birligini asos kilib olib solik stavkasiga kupaytirilsa yillik jami solik summasi aniklanadi. Solik ob`ektining xar bir solik birligi uchun davlat tomonidan belgilab kuyilgan me`g`r solik stavkasi deb Yuritiladi. Bu stavka kat`iy summalarda g`ki foizlarda ob`ektga nisbatan kullaniladi. Solik stavkalari proportsional, progressiv va regressiv kurinishida bulishi mumkin.

Proportsional solik stavkasi usulida foyda g`ki oborotga ega bulgan xukukiy va jismoniy shaxslar bir xil proportsiyada solik tulaydilar. Bu erda solik stavkasi kat`iy belgilangan bulib proportsional ravishda olinadi. Masalan: mol-mulk soligi: korxonona asosiy fondlarini kiymati 200000 s undiriladigan solik stavkasi 4 % solik summasi xisobot yili uchun 8 ming sumni tashkil etadi. Agarda bu kiymat 500000 bulsa u xolda 20000 s buladi va xk.

Progressiv solik stavkasi: Daromad g`ki foyda ortib borishi bilan solik stavkasi xam ortib borishi bilan solik stavkasi xam ortib borishi kuzda tutilgan bulsa bunday stavka progressiv solik stavkasi deyiladi. Buni biz Uzbekiston Respublikasi fukarolari, chet el fukarolari va fukaroligi bulmaganlardan olinadigan daromad soligi stavkasida yakkol kurishimiz mumkin.

Regressiv solik stavkasi usulida daromad usishi bilan maxsulot ishlab chikarish xajmi kupayishi bilan solik stavkasi kamayib boradi. Regressiv stavkalar biror faoliyat g`ki soxa maxsulot ishlab chikarishni kupaytirish g`ki uz foydasidan biror turdagi xarajatni kupaytirishni ragbatlantirish maksadida kullaniladi.

Regressiv stavkani kullashga davlat kuyidagi ikki Yulning birini tanlash bilan erishadi: davlat bYudjeti xarajatlarini kamaytiradi g`ki kamaygan solik ogirigini boshka solik tulovchilarga tarkatib Yuboradi. Respublikamiz prezidentining eksportga maxsulot ishlab chikarishga korxonalarini ragbatlantirishga oid kushimcha chora-tadbirlar tugrisida 1996 yil 20 martda kabul kilingan karori regressiv solik stavkasiga misol buladi. CHunki bu erda eksportga maxsulot ishlab chikarish salmogi oshishi bilan korxonalarining bYudjetga tulashi lozim bulgan foydaga solik stavkasi kamayib boradi. Agar ishlab chikarish maxsulotni umumiy xajmda eksport ulushi

5 foizdan 10 foizgacha bulsa	– 20 %
10 % dan 20 %	– 30 %
20 % dan 30 %	– 40 %
30 % dan kup bulsa	– 50 % kamaytiriladi.

Tovar narxiga ustama xakdan iborat bulgan bilvosita soliklar iktisodiy nukta nazardan olganda regressiv soliklar xisoblanadi. Bir xildagi tovarlarning xaridorlari bilvosita soliklarning bir xildagi

summasini tulaydilar, lekin bu soliklarni turli xaridorlar daromadidagi ulushi bir xil bulmaydi katta ulushi kam mikdor daromad oladigan shaxslar zimmasiga tugri keladi.

Ma'lumki xisoblanadigan soliklarni xajmi nafakat solik stavkalarining mikdoriga, balki shu bilan birga solik stavkasi kullaniladigan ob'ektning mikdoriga xam boglik buladi.

Solik bazasi solikka tortilishi lozim bulgan daromad g'ki mol-mulkning solik stavkasi kullaniladigan mikdoridir. Lekin solik bazasi xam uzgaruvchan xarakterga ega u konunlar asosida solik imtig'zlariga muvofik ravishda kamaytirilishi mumkin.

Solik tulovchilarni solikdan ozod etish ular tulaydigan solik mikdorini (solik bazasini) kamaytirish g'ki solik tulash shartini engilashtirish kabilarni solik konunchiligida solik imtig'zi deb Yuritiladi.

Solik imtig'zlari aksaryat biror ishlab chikarish soxasini foliyat turini raxbarlantirishga karatilgan buladi. Lekin bunday imtig'zlar manbai nimaning g'ki kimning xisobiga amalga oshirilishini chukur taxlil kilib chikishga tugri keladi. Ayrim soliklarda xilma-xil imtig'z turlari mavjud. Korxonona, birlashma va tashkilotlarga soliklardan bulinadigan imtig'zlarni 3 guruxga bulish mumkin.

Solikdan batamom ozod etiluvchilar.

Solikdan kisman va vaktincha ozod etiluvchilar.

Solikka tortiladigan foyda bazasini kamaytirish.

Masalan: Korxonada ishlovchilarni tarkibida 50 % nogironlar, 75 % dan ortigini urta va maxsus bilim Yurtlari talabalari tashkil kilsa, bunday korxonalar solikdan tamomila ozod kilinadi.

Agar korxonadan eksportga sotgan tovarlari ular ishlab chikargan maxsulotlari jamini 30 % idan kam balsa 2 marta kamaytiradigan xolda foyda soligi tulaydilar.

YAngi tashkil etilgan korxonalar birinchi tuzilgan yili 25 % va ikkinchi yili 50 % belgilangan solik stavkasidan solik tulaydilar. Uchinchi yili 100 % solik tulashga tugri keladi. Solik deklaratsiyasi ishbilarmon daromadini solikka tortish xujjati axborotnomasidir.

Ishchi xizmatchilar asosiy ish joyidan tashkari kushimcha daromad topsalar g'ki fukarolar tadbirkorlik bilan shugullansalar topgan yalpi daromadi tugrisida solik konunchiligida kursatilgandek axborotnoma, xabarnoma g'zilishi shart. Bu solik deklaratsiyasi deb Yuritiladi. Deklaratsiyalarda topgan daromadlari va shu daromadini olish bilan boglik xamma xarajatlari kursatiladi. Solik deklaratsiyasini takdim etish butun respublika xududida joriy etilgan Deklaratsiya talab kilinishidan asosiy maksad xukukiy va jismoniy shaxslarning olgan sof daromadini aniklash va uni solikka tortishdir. Xozirgi vaktida eng kup tuziladigan oddiy deklaratsiya bu yakka mexnat faoliyati bilan shugullanishda g'ziladigan deklaratsiyadir.

Soliqlar majburiy to'lovni ifoda etuvchi pul munosabatlarini bildirib, bu munosabatlar soliq to'lovchilar (huquqiy va jismoniy shaxslar) bilan soliqni o'z mulkiga aylantiruvchi davlat o'rtasida bo'ladi. Korxonona va tashkilotlar aholiga xizmat ko'rsatganida, ishlar bajarganida g'ki bozorlarda oldi-sotdi kilganda ham pul to'lovlari mavjud. Lekin ular soliq bula olmaydi. Soliq munosabati bo'lish uchun davlat mamlakatda yaratilgan ijtimoiy mahsulot (to'g'rirog'i, yalpi milliy mahsulot) qiymatini taqsimlash yo'li bilan majburan davlat bYudjetiga mablag' tuplash jarag'nini amalga oshiradi.

Soliqlar ning o'ziga xos belgilari mavjud bo'ladi, ularga: majburiylik, xazinaga tushishlik, qat'iylik va doimiylik, aniq soliq to'lovchi uchun ekvivalentsizlik belgilari mavjuddir.

Birinchi belgi-majburiylik. Soliq va yig'implar majburiy bo'ladi, bunda davlat soliq to'lovchining bir kism daromadlarini majburiy badal sifatida bYudjetga olib kuyadi. Bu majburiylik Oliy Majlis tasdiqlab bergan Soliq Kodeksiing tamoyili asosida amalga oshiriladi. Demak, majburiylik belgisi huquqiy tomondan davlat uchun kafolatlangan.

Ikkinchi belgi soliqlarning davlat mulkiga aylanishidir. Soliqlar albatta xazinaga-davlat bYudjetiga va boshqa davlat pul fondlariga tushadi. Bordi-Yu, to'lov boshqa ixtig'riy fondlar - «Iste'dod», «Ekosan», «Kamolot», «Nuroni» jamg'armalariga tushsa, unda soliq munosabati bo'lmaydi. CHunki majburiylik tamoyili yo'q, u to'lov davlat mulkiga tushmaydi.

Soliqlar qat'iy belgilangan va doimiy harakatda bo'ladi. Tarixda 50 va 100 yillab o'zgarmasdan harakatda bo'lgan soliqlar mavjud. Ilmiy asosi kancha chuqur bo'ladi, soliqlar shuncha qat'iy va o'zok yillar o'zgarmasdan harakat qiladi g'ki juda kam o'zgaradi.

Tulangan soliqlar mamlakat miqg`sida hammaga bir xil miqdorda kaytib keladi. Lekin, davlatga to`langan soliq summasi to`lovchining shaxsan o`ziga to`liq kaytib kelmaydi, ya`ni u ekvivalentsiz pul to`lovidir. Masalan, soliq to`lovchi bu yili davlatning sog`likni saqlash va maorif xizmatlaridan xech foydalanmagan bo`lishi mumkin. Lekin bozor iqtisodig`ti sharoitida hamma soliq to`lovchilarning to`lagan soliq va yig`imlari davlatning ularga ko`rsatgan xilma-xil xizmatlari (mudofaa, xavfsizlikni ta`minlash, tartib-intizomni urnatish va boshqa ijtimoiy-zaruriy xizmatlar) orqali o`zlariga kaytib keladi. Demak, soliq to`lovchilar nuktai nazaridan olganda hamma soliqlar bozor iqtisodig`ti sharoitida davlatning ko`rsatgan ijtimoiy xizmatlari uchun to`lanadigan (to`lov) xakdir. Soliqlar bYudjetga va davlat pul fondlariga kelib tushadigan, majburiy harakterga ega bo`lgan pul to`lovi munosabatlaridir. SHuningdek, soliqlar iqtisodiy kategoriya bo`lganligi uchun bozor iqtisodig`ti munosabatlari, shu jumladan, moliyaviy munosabatlar bilan chambarchas bog`liqdir. Bozor iqtisodig`ti erkin iqtisodig`tdir, ya`ni har bir huquqiy shaxs, tadbirkor o`z tovariga erkin baho belgilashi, mahsulot etkazib beruvchini topishi va o`zi iste`molchini topib unga mahsulotni sotish huquqiga ega. SHuning uchun davlat ularning bir kism daromadlarini taqsimlab, bYudjetga oddiy ajratma sifatida ololmaydi. Soliq qilib olish uchun Oliy majlisning karori zarur, ya`ni qonun bilan olingan to`lov bYudzjetga o`tadi. erkin iqtisodig`t sharoitida soliqlar ham erkin, ochik, aniq bo`ladi, demokratik to`lovga aylanadi.

Soliqlar iqtisodiy kategoriya bo`lganligidan to`lovchilar va bYudjet o`rtasida daromadlar taqsimlanag`tganda tomonlarning iqtisodiy manfaatini, albatta, e`tiborga olish zarur. Soliq to`lovchilar daromadini davlat istaganicha ololmaydi, soliqlar ni bYudjetga olishning ma`lum chegarasi mavjud. Bu haqda ko`plab yirik iqtisodchilar va davlat arboblari o`z asarlarida ko`rsatib utgan. Uni davlat, shu bilan birga soliq to`lovchilarning mahsulot ishlab chiqarish va foyda olishdagi faoliyatini hisobga olib soliq belgilanadi. Ikkinchi tomondan, soliqlar dan makroiqtisodig`tni rivojlantirish, bozor infrato`zilmasini yaratish va boshqa umumdavlat maqsadlari uchun etarli moliyaviy resurslar tuplash uchun foydalaniladi. Soliqlar mohiyati soliq to`lovchilar bilan davlat o`rtasidagi doimiy, o`zok muddatli munosabatlarda o`z ifodasini topadi. Anikrok aytsak bu erda iqtisodiy munosabat, ya`ni pul munosabati mavjuddir.

Bir xil moxiyatga ega va o`zaro munosabatda bog`liq bo`ladi markazlashgan pul fondini va davlatning boshqa fondlarini majburiy tashkil etadigan soliq va yig`imlar turlarining yig`indisiga soliqlar tizimi deb ataladi. Bu ta`rifda soliq va yig`imlar yagona moxiyat, ya`ni «majburiy harakterga ega bo`lgan munosabat» va ularning bir-biri bilan bog`liqligi va nixoyat bYudjetga tushishligini ko`rsatadi. Bu O`zbekiston Respublikasi soliq Kodeksi mazmuniga mos keladi. SHu erda baxsli masala ham mavjud, ya`ni davlatning bYudjetdan tashqari fondlariga (pensiya, ijtimoiy sug`urta, bandlik, yo`l fondlari va boshqalar) to`lovlarni ham majburiylik nuktai nazardan soliq tizimiga kiritish muammosi mavjud. O`zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 23- moddasiga binoan soliqlar tizimi quyidagi tarkibga ega bo`ladi.

Soliqlar va boshqa majburiy to`lovlarning turlari

O`zbekiston Respublikasi hududida ushbu Kodeksda nazarda tutilgan soliqlar va boshqa majburiy to`lovlar amal qiladi.

Umumdavlat soliqlari	Mahalliy soliqlar va yig`imlar
1) Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig`i; 2) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig`i; 3) qo`shilgan qiymat solig`i; 4) aktsiz solig`i; 5) er qa`ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to`lovlar; 6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq; 7) yagona soliq to`lovi;	1) mol-mulk solig`i; 2) er solig`i; 3) obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig`i; 4) jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel` g`qilg`isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq. 5) tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo`yicha qat`iy belgilangan soliq.

<p>8) yagona er solig'i; Majburiy to'lovlar: 1) ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlar: yagona ijtimoiy to'lov; fuqarolarning bYudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari; bYudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar; 2) Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar: Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar; Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlar; 3) davlat boji; 4) bojxona to'lovlari;</p>	<p>6) ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im.</p>
----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

Davlat umummilliy dasturlarini amalga oshirish davrida tegishli jamg'armalar tashkil etilishi mumkin bo'lib, ularga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda majburiy to'lovlar belgilanadi.

Soliq va yig'imlar bir-biri bilan bog'liq bo'ladi, okibat natijasida ular huquqiy va jismoniy shaxslarning pul daromadlaridan olinadi. Demak, soliq va yig'imlarning jami yig'indisi summasi soliq og'irligi tushunchasini keltirib chiqaradi.

Soliqlarni ob'ekti va iqtisodiy mohiyati bo'yicha guruhlash. Soliqlar ni guruhlash iqtisodig'tga ijobiy va salbiy ta'sirlarni o'rganishning ilmiy va amaliy uslubidir.

Soliqlar soliqqa tortish ob'ektiga qarab to'rt guruhga bo'linadi:

Oborotdan olinadigan soliqlar

Daromaddan olinadigan soliqlar

Mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlar

Er maydoniga qarab olinadigan soliqlar .

Oborotdan olinadigan soliqlar ga qo'shilgan qiymat solig'i, aktsiz solig'i, bojxona va er osti boyliklari qiymatidan olinadigan soliqlar kiradi. Lekin oborot (aylanma) tushunchasi bizning qonunchiligimiz bo'yicha ilgariidek mahsulot realizatsiyasi oborotidan emas, balki mahsulotlarni Yuklab Yuborgan qiymat bilan ulchanadi (QQSda). YA lpi tushumdan olinadigan yagona soliq ham oborotdan olinadigan soliqlar ga kiradi.

Daromaddan olinadigan soliqlar ga huquqiy shaxslarning daromadiga (foydasiga), jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq, savdo tashkilotlarining yalpi daromadidan soliqlar i kiradi. Bu guruh soliqlarga infrastrukturani rivojlantirish solig'i ham kiradi.

Mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlarga Yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'i kiradi.

Er maydonlaridan olinadigan soliqlarga qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilarning yagona er solig'i va Yuridik (noqishloq xo'jalik) va jismoniy shaaxslarning er soliqlar i kiradi. harajatlardan olinadigan soliqlar ga esa ekologiya solig'i kiradi.

Iqtisodiy mohiyatiga qarab soliqlar egri va to'g'ri soliqlar ga g'ki bevosita va bilvosta bo'linadi. To'g'ri soliqlar ni to'g'ridan to'g'ri soliq to'lovchilarning o'zi to'laydi, ya'ni soliqni huquqiy to'lovchisi ham, haqiqiy to'lovchisi ham bitta shaxs bo'ladi. To'g'ri soliq Yukini boshqalarga ortish holati bu erda bo'lmaydi. Bu soliqlar ga hamma daromaddan to'lanadigan va barcha mulk soliqlar i kiradi.

To'g'ri soliqlar dan to'g'ridan-to'g'ri daromaddan soliq to'langanligi uchun soliqlar stavkasining kamaytirilishi korxonalar daromadining ko'p qismini ularga qoldirib, investitsiya faoliyatini kengaytirish imkonini yaratib, bozor iqtisodig'tini rivojlantiradi. Bu soliqlar ning stavkalari ko'paytirilsa, biznes imkoniyatlari kamaya borib, iqtisodiy rivojlanishni susaytiradi. Demak bu guruh soliqlar ning stavkalari to'g'ridan-to'g'ri bozor iqtisodig'ti bilan chambarchas bog'langandir.

Egri soliqlar ni huquqiy to'lovchilari mahsulot (ish, xizmatni) Yuklab Yuboruvchilardir (xizmat ko'rsatuvchilardir). Lekin soliq og'irligini xaqiqatdan ham bYudjetga to'lovchilari tovar (ish, xizmat) ni iste'mol kiluvchilardir, ya'ni xaqiqiy soliq to'lovchilar bu erda yashiringan. Bu soliqlar tovar (ish, xizmat) qiymati ustiga ustama ravishda qo'yiladi.

Bu soliqlar ning ijobiy tomoni Respublikada ishlab chiqarilgan tovarlarni chetga chiqib ketishini chegaralaydi, mamlakat ichida tovarlar ko'p bo'lishiga g'rdam beradi. egri soliqlar orqali tovarlar qiymati oshirilmasa, bozorlarda ularning takchilligi ortadi. egri soliqlar stavkasining asosli ravishda oshirilishi korxonalar faoliyatining moliyaviy yakuniga to'g'ridan to'g'ri ta'sir etmaydi, ya'ni investitsion faoliyatini qisqartirmaydi. Ammo soliq stavkasi tahlil kilinmasdan oshirib Yuborilsa korxonalar sotish kiyinchiligiga uchrab foyda olishni ham bYudjetga to'lovlarni ham kamaytirishi mumkin.

Bu soliqlar ning yana bir tomoni muomaladagi ortiqcha pul massasini kamaytirib, inqirozni jilovlab boradi. Biroq bu soliqlar mehnat bilan band bo'lgan aholining real daromadini pasaytiradi. Korxonalarda to'g'ri soliqlar stavkasini kamaytirish hisobiga berilgan imkoniyat ko'proq mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirib, tovarlar assortimentining oshishini ta'minlashi kerak.

Jaxon soliq amalig'tida to'g'ri va egri soliqlar nisbatiga qarab u g'ki bu mamlakat iqtisodig'tini rivojlanishi g'ki iqtisodiy kiyinchiliklarni borligini tahlil qilib berish mumkin. Masalan. AKSH da to'g'ri soliqlar salmog'ining bYudjet daromadida 90 foizga yakin bo'lishi bu erda rivojlangan bozor iqtisodig'ti mavjudligidan darak beradi.

Egri soliqlar tarkibiga QQS, aksiz solig'i, bojxona boji, er qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlari kiradi. Yuqorida aytib utilganidek, to'g'ri va egri soliqlar yagona soliq tizimini tashkil etib bir-biri bilan o'zaro bog'langan. Umumiy soliq summasi o'zgormagan holda birining stavkasini kamaytirish ikkinchisini stavkasini oshirishni talab etadi.

Soliqlarning umudavlat (respublika) va mahalliy soliqlarga bo'linishi xukumat idoralarining respublika xukumati va mahalliy xukumatlarga bulinishi asosida kelib chiqadi. Har bir xokimiyat idoralari o'zlarining bajaradigan muhim vazifalaridan kelib chiqib, o'z bYudjetiga va uni ta'minlaydigan soliqlarga ega bo'lishi kerak. Respublika xukumati umumdavlat mikh'sida katta vazifalarni mudofaa, xavfsizlikni saqlash, tartib intizom infrastrukturasi yaratish, mexnatkashlarga ijtimoiy ximoyasini tashkil etish va boshqa bir kator yirik vazifalarni bajaradi. SHuning uchun uning bYudjeti ham soliqlari ham salmokli bo'lishi shart. QQS, aksiz solig'i, Yuridik shaxslarning daromadi (foydasi)dan, jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliqlar respublika bYudjetiga tushadi. Umumdavlat soliqlarining muhim xususiyati shundaki, respublika bYudjetiga tushadigan soliqlardan mahalliy bYudjetlarni boshqarib borish uchun ajratma sifatida tushushi mumkin. Bordi-Yu, ajratma etmasa subventsiya g'ki subsidiya beriladi. Agar kelgusi yil mahalliy bYudjetlarning o'z manbalari (soliqlari) ko'payib kolsa, respublika soliqlaridan ajratma berishning xojati kolmaydi. Respublika va mahalliy soliqlar yagona mohiyatiga ega bo'ladi, bYudjetga to'lanishi lozim bo'lgan to'lovlardir.

Mahalliy soliqlar xukumatlar bajaradigan vazifalariga qarab belgilanib, ularga doimiy va to'liq biriktirib beriladi. Mahalliy xukumatlar asosan mexnatkashlarga yakin bo'lganligidan ularga ijtimoiy masalalarni maktab, sog'likni saqlash, madaniyat, maorif, shahar va qishloqlar obodonchiligi kabi vazifalarni bajaradi. Lekin bu soliqlar va yig'implar ularning bYudjet harajatlarining 30-40 foizini koplaydi, holos. Keyingi vaqtlarda mahalliy bYudjetlar daromadlari salmog'ini 50-60 foizga etkazish kabi xukumat karorlari mavjud. Mahalliy bYudjetlar daromadlarini ko'paytirish eng dolzarb masalalardan biridir. Fakat o'z daromad manbaiga to'liq ega bo'lgan mahalliy xukumatlar o'z faoliyatlarini to'liq amalga oshirishlari mumkin. Aks holda, har xil moliyaviy kamchiliklarga yo'l qo'yish zhtimoli bor. Mahalliy soliqlar ning muhim xususiyati shundaki ular faqat shu xududning bYudjetiga tushadi. Boshqa bYudjetlarga ajratmalar berilmaydi.

Mahalliy bYudjetlarning soliq va yig'implari kam bo'lganligidan bu bYudjetlarning daromadlar va harajatlarini barqarorlashtirish (balanslashtirish) ancha murakkabdir. Bu masalani echishda ilgari ko'rsatganimizdek xududdan tushadigan soliqlar dan ajratmalar beriladi. (masalan, QQS, daromad solig'i va boshqalar). Amalig'tda shu soliqlar dan mahalliy bYudjetlarga ular bYudjetini barqarorlashtirish uchun 100 foizgacha ajratma bermasdan turib subventsiya (maqsadli g'rdam) berish hollari uchraydi. Vaholanki,

mahalliy xukumatlarni o'z xududlaridan tushadigan soliqlar ni undirishga kiziktirish uchun 100 foizgacha ajratmalar berish maqsadga muvofikdir.

Subvensiya g'ki subsidiya uslublari esa mahalliy xukumatlarning respublika xukumatiga murojaat etish lozimligini bildirib, ularni o'z xududlaridagi soliqlar to'liq undirilishini kiziktirmaydi, ulardagi boki beg'amlik fazilatini kuchaytiradi. Mahalliy xukumatlar o'z xoxishlaricha soliq va yig'imlar kiritish huquqiga ega emas. o'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksida ko'rsatilgan soliqlar ning o'z xududlarida qo'llash g'ki qo'llamaslik huquqi bor. Undan tashqari mahalliy soliqlar (mol-mulk va er solig'idan tashqari) va yig'imlardan bYudjetga tushgan summa atrofida soliq to'lovchilarga imtig'zlar berish huquqiga ega. Mahalliy soliqlar va yig'imlarning bYudjetga to'liq tushishini tashkil qilish ularning zimmasidagi asosiy vazifa hisoblanadi.

Yuridik shaxslarning solikli va soliqsiz to'lovlari tavsifi.

O'zbekiston Respublikasining davlat bYudjetiga to'lanadigan soliq va yig'imlarning xal kiluvchi qismini Yuridik shaxs soliqlar i va boshqa to'lovlari tashkil etadi. Yuridik shaxslar Respublika (umumdavlat) bYudjetiga quyidagi soliqlar va yig'imlarni to'laydilar:

- 1) Yuridik shaxslarning daromadi (foydasi)ga soliq;
- 2) qo'shilgan qiymat solig'i;
- 3) Aktsiz solig'i;
- 4) Er qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar;
- 5) Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- 6) Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarining yalpi tushumidan soliq;
- 7) yagona soliq;
- 8) yagona er solig'i;
- 9) Bojxona boji;
- 10) Davlat boji;
- 11) Kimmatli qog'ozlarni ro'yxatdan o'tkazish yig'imi;
- 12) DAN yig'imi;
- 13) Jarimalar;
- 14) Boshqa to'lovlar;

Yuridik shaxslar mahalliy bYudjetlarga quyidagi soliqlar va yig'imlarni to'laydilar:

- 1) mol-mulk solig'i;
- 2) er solig'i;
- 3) obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i;
- 4) tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq.
- 5) ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im.
- 6) Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi Yuridik shaxslarni ro'yxatdan o'tkazish yig'imi;
- 7) Dexkon bozorida bir yo'la yig'im;
- 8) Boshqa to'lovlar.

Yuridik shaxslar soliq to'lovchi bo'lishi uchun Yuridik shaxs maqomini olganidan tashqari, albatta biror ruxsat etilgan faoliyatdan daromad olgan bo'lishlari zarur g'ki tovarlar (ish, xizmatlar) sotishdan oborotga ega bo'lishlari hamda statistika idoralarida, xokimiyatlardan ro'yxatdan o'tgan (kodga ega) bo'lishlari shart har bir Yuridik shaxsga idenfikatsion rakam beriladi.

Yuridik shaxs bo'ladi mulkka ega bo'lishlik, bordiYu soliqdan g'ki boshqa sub'ektlardan karzdor bo'ladi kolsa, boshqa choralari kurilganda etarli bo'lmasa, ana shu mulklarini sotib (sud karoriga asosan) soliqdan kutilish imkoniyati yaratiladi.

Yuridik shaxslar soliqlar ini bYudjet daromadlarini shakllantirish va pul muomalasini mustaxkamlashdagi ahamiyati.

Ilgari aytganimizdek, Yuridik shaxslarning bYudjetlarga to'laydigan soliqlar i to'g'ri va egri soliqlar ga bo'linadi.

To`g`ri soliqlar daromad (foyda) soliqlar i va resurslar soliqlar idan tashkil topadi. egri soliqlar esa qo`shilgan qiymat solig`i, aktsiz solig`i, bojxona bojidan iboratdir. Yuridik shaxslarning bu soliqlar i bYudjet daromadlarini asosiy qismini tashkil etishi quyidagi jadval ma`lumotlarida kurinadi.

O`zbekiston Respublikasi davlat bYudjetida soliqlarning to`tgan salmogi

Soliqlar nomi	1996 y	1997 y	1998 y	2004 y	2005 y	2006 y	2007 y
Yuridik shaxslar daromadiga (foydasiga) soliq	25,8	23,9	21,8	13,5	10,5	9,3	8,6
Kichik biznesning yagona solig`i	-	-	-	-	2,2	2,2	3
Mol-mulk solig`i	1,5	2,3	3,0	2,8	3,0	3,1	2,3
Er solig`i	3,5	3,6	4,0	4,0	3,9	2,8	2,6
Er osti boyliklari uchun soliq(er qaridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus yig`imlar)	0,6	1,3	2,1	1,2	1,0	0,9	1
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	-	-	-	-	0,4	0,4	0,3
Qo`shilgan qiymat solig`i	17,7	25,1	25,3	29,7	24,6	28,6	27,9
Aktsiz solig`i	20,0	14,4	13,4	18,6	24,5	26,9	26,4
Bojxona boji	1,6	1,5	2,1	1,3	1,6	1,7	1,9
Boshqa soliqlar va yig`imlar (infrastruktura solig`i).	-	-	-	-	-	-	2
Jami	80	81	83	75	75	75,5	76

- 4) jismoniy shaxslarning bepul berilgan aksiyalar g'ki Yuridik shaxslar mol-mulkinging ulushi tariqasidagi daromadlari;
- 5) O'zbekiston Respublikasi norezidentlariga to'lanadigan daromadlar;
- 6) jismoniy shaxslarning mol-mulkni Yuridik shaxsga ijaraga berishdan oladigan daromadlari;
- 7) royalti;
- 8) jismoniy shaxslarning tanlovlar va musobaqalar yakunlari bo'yicha sovrinlar, Yutuqlar tariqasida oladigan daromadlari;
- 9) Yuridik shaxs – grant oluvchi tomonidan jismoniy shaxsga beriladigan grantlarning summalari;
- 10) jismoniy shaxslarga yaratilgan fan, adabig't va san'at asarlari (predmetlari) uchun Yuridik shaxslar tomonidan to'lanadigan daromadlar;
- 11) jismoniy shaxsga Yuridik shaxs tomonidan moddiy naf tariqasida to'lanadigan daromadlar.

Soliq Kodeksining 185- moddasiga asosan, to'lov manbaida soliq solish soliq solinadigan baza va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda soliq agentlari tomonidan amalga oshiriladi.

Soliq agentlari soliq to'lovchining ushbu Kodeksning 184-moddasida ko'rsatilgan daromadlaridan hisoblangan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasini mazkur daromadlar haqiqatda to'lanag'tganda ushlab qolishlari shart.

Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqning hisoblangan summasini soliq to'lovchidan ushlab qolish soliq agenti soliq to'lovchiga to'lag'tgan har qanday pul mablag'lari hisobidan, mazkur pul mablag'lari haqiqatda soliq to'lovchiga g'ki uning topshirig'iga binoan uchinchi shaxslarga to'lanag'tganda amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining to'g'ri ushlab qolinishi va o'z vaqtida bYudjetga o'tkazilishi uchun javobgarlik daromad to'lag'tgan soliq agentining zimmasida bo'ladi. Mazkur soliq summasi ushlab qolinmagan taqdirda, soliq agenti ushlab qolinmagan summani hamda u bilan bog'liq penyani bYudjetga to'lashi shart.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblab chiqarish uchun soliq stavkasini qo'llash maqsadida eng kam ish haqi miqdori yil boshidan ortib boruvchi yakun bo'yicha (yil boshidan tegishli davrning har bir oyi uchun eng kam ish haqlarining summasi) hisobga olinadi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblab chiqarish va ushlab qolish ushbu bo'limda belgilangan soliq solinadigan baza hamda stavkalardan kelib chiqqan holda daromad hisoblanishiga qarab, yil boshidan ortib boruvchi yakun bo'yicha har oyda jismoniy shaxsning asosiy ish joyi bo'yicha soliq agenti tomonidan amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining hisoblab chiqarilgan summasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jismoniy shaxslarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga o'tkaziladigan har oylik majburiy badallar summasiga kamaytiriladi.

O'z xodimlariga moddiy g'rdam ko'rsatgan va qimmatbaho sovg'alar bergan soliq agentlari jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini soliq davrining oxirida amalda bo'lgan eng kam ish haqi miqdoridan kelib chiqqan holda qayta hisob-kitob qiladi.

Jismoniy shaxsning asosiy bo'lmagan ish joyidan g'ki boshqa Yuridik shaxslardan moddiy g'rdam va qimmatbaho sovg'a olgan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasini qayta hisob-kitob qilish jismoniy shaxs daromadlar to'g'risida deklaratsiya topshirgan taqdirda, davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq davrining oxirida amalda bo'lgan eng kam ish haqi miqdoridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Yil mobaynida asosiy ish (xizmat, o`qish) joyi o`zgargan taqdirda, jismoniy shaxs joriy yilda o`ziga to`langan daromadlar va ushlab qolingani jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig`i summalarini to`g`risidagi ma`lumotnomani yangi asosiy ish (xizmat, o`qish) joyidagi buhgalteriyaga dastlabki ish haqi hisoblanguniga qadar taqdim etishi shart. Ilgarigi ish (xizmat, o`qish) joyidan ma`lumotnoma taqdim etilmagan g`ki soliq to`lovchining identifikatsiya raqami taqdim etilmagan taqdirda, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig`i belgilangan eng Yuqori stavka bo`yicha ushlab qolinadi. Ma`lumotnoma g`ki identifikatsiya raqami keyinchalik taqdim etilgan taqdirda, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig`i summasi ilgarigi asosiy ish (xizmat, o`qish) joyida olingan daromadlar inobatga olingan holda qayta hisob-kitob qilinadi.

YAngi asosiy ish (xizmat, o`qish) joyida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig`ini hisoblab chiqarish kalendar` yil boshidan bug`n ilgarigi va yangi ish (xizmat, o`qish) joylaridan olingan jami daromaddan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Mehnat shartnomasi bekor qilingandan so`ng xodimga ilgarigi asosiy ish joyida to`lov amalga oshirilgan taqdirda, mazkur to`lovlarga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig`i ushbu Kodeksning 179 va 180-moddalarida nazarda tutilgan imtig`zlar qo`llanilmagan holda solinadi. Yuridik shaxs bu xodimga to`lagan daromadning jami summasi va undan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig`ining ushlab qolingani umumiy summasi haqida bu Yuridik shaxs hisobga qo`yilgan joydagi davlat soliq xizmati organiga o`ttiz kun ichida g`zma ravishda ma`lum qilishi shart.

Asosiy bo`lmagan ish joyidan g`ki boshqa Yuridik shaxslardan olingan daromadlarga to`lov manbaida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig`ini hisoblab chiqarish jami daromad summasidan ushbu Kodeksning 179 va 180-moddalarida nazarda tutilgan imtig`zlar qo`llanilmagan holda, belgilangan stavkalar bo`yicha hisoblanishiga qarab, yil boshidan ortib boruvchi yakun bo`yicha amalga oshiriladi.

Agar asosiy bo`lmagan ish joyidan g`ki boshqa Yuridik shaxslardan daromadlar olag`tgan jismoniy shaxs buhgalteriyaga o`z daromadidan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig`ining eng Yuqori stavkasi bo`yicha ushlab qolish to`g`risida ariza bersa, daromadlar to`lag`tgan Yuridik shaxslar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig`ini ushbu bo`limda nazarda tutilgan imtig`zlarni qo`llamagan holda eng Yuqori stavka bo`yicha ushlab qoladilar.

Soliq agentlari ish haqi to`lag`tganda jismoniy shaxsning talabiga binoan unga daromadlarining summalarini va turlari haqida, shuningdek jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig`ining ushlab qolingani summasi to`g`risida O`zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo`mitasi va O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadigan shaklda ma`lumotnoma berishlari shart.

Jismoniy shaxslarning asosiy bo`lmagan ish joyidan olgan daromadlaridan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig`ining yakuniy summasi olingan daromadlar, qilingan xarajatlar va ushlab qolingani soliq summalarini to`g`risida taqdim etilgan deklaratsiyaning ma`lumotlari bo`yicha davlat soliq xizmati organi tomonidan hisoblab chiqariladi.

Soliq agentlari:

1) soliq davri tugaganidan so`ng o`ttiz kun ichida davlat soliq xizmati organlariga daromadlar olgan jismoniy shaxslar to`g`risida, asosiy ish joyi bo`yicha daromadlar olgan jismoniy shaxslar bundan mustasno, O`zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo`mitasi va O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadigan shaklda ma`lumotnoma taqdim etishi shart, unda quyidagilar aks ettiriladi:

soliq to`lovchining – jismoniy shaxsning identifikatsiya raqami;

soliq to`lovchining familiyasi, ismi, otasining ismi, doimiy yashash joyi manzili;

o`tgan soliq davri yakunlari bo`yicha daromadlarning umumiy summasi va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig`ining ushlab qolingani umumiy summasi;

soliq agentining identifikatsiya raqami;

soliq agentining nomi, joylashgan eri (pochta manzili);

2) yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kuniga qadar, yil yakunlari bo`yicha esa yillik moliya hisobotini taqdim etish muddatida davlat soliq xizmati organlariga hisoblangani va amalda to`langani daromadlar summalarini hamda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig`ining

ushlab qolingani summalari to'g'risidagi ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan shaklda taqdim etishi shart.

To'lov manbaida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining hisoblab chiqarilgan summasi bYudjetga soliq agenti tomonidan quyidagi muddatlarda to'lanadi:

pul mablag'larini olish uchun xizmat ko'rsatuvchi bankka hujjatlarni taqdim etish bilan bir vaqtda;

to'lov natija holda amalga oshirilgan oy tugaganidan keyin besh kun ichida, agar bunday to'lovga qonun hujjatlarida ruxsat berilgan bo'lsa.

Agar Yuridik shaxsning bank hisobvarag'ida ish haqini to'lash va bir vaqtning o'zida xodimlarning ish haqidan ushlab qolingani soliqlarni bYudjetga o'tkazish uchun mablag'lar etarli bo'lmasa, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bank hisobvarag'idagi qoldiq mablag'larga mo'tanosib summada bYudjetga o'tkaziladi.

Deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlarga O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining quyidagi daromadlari kiradi:

mulkiy daromad, fan, adabig't va san'at asarlarini yaratganlik hamda ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi tariqasida olingan daromadlar, agar bu daromadlarga to'lov manbaida soliq solinmagan bo'lsa;

agar ushbu moddaning ikkinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, ikkita g'ki undan ko'p manbadan olingan daromadlar;

O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlar.

Agar soliq to'lovchining asosiy bo'lmagan ish joyidan olgan daromadlaridan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i belgilangan eng Yuqori stavka qo'llanilgan holda uning arizasiga ko'ra ushlab qolingani bo'lsa, daromadlar to'g'risida deklaratsiya taqdim etilmaydi.

Fan, adabig't va san'at asarlarini yaratganlik va ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi tariqasida daromadlar oluvchi jismoniy shaxslar bunday faoliyatni yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tmagan holda amalga oshirish huquqiga ega.

Ushbu moddaga muvofiq daromadlariga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini davlat soliq xizmati organining g'zma xabarnomasi asosida to'laydi.

Fan, adabig't va san'at asarlarini yaratganlik va ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi olag'tgan jismoniy shaxs daromadlar olish bilan bog'liq daromadlar va xarajatlar hisobini Yuritishi shart hamda u ijodiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq, haqiqatda qilingan va hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlarni daromaddan chegirish huquqiga ega, biroq chegirma olingan jami daromad summasining 30 foizidan ko'p bo'lmasligi kerak.

Ijodiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlarga quyidagilar kiradi:

fan, adabig't va san'at asarlarini yaratish va ulardan foydalanish uchun zarur materiallar olishga doir xarajatlar;

faqat fan, adabig't va san'at asarlarini yaratish, nashr qilish, ijro etish g'ki ulardan boshqacha tarzda foydalanish maqsadida foydalaniladigan bino va mol-mulk ijarasiga doir xarajatlar.

Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiya soliq to'lovchining olingan yillik daromadi to'g'risidagi g'zma arizasidan iborat bo'ladi.

Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiya shakli O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi hamda unda quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi kerak:

soliq to'lovchining familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili, jinsi, fuqaroligi, doimiy yashash joyi manzili;

soliq to'lovchining identifikatsiya raqami;

soliq solinishi lozim bo'lgan daromadlar turlarga ajratib ko'rsatilgan holda olingan jami yillik daromad (bir martalik operatsiyalardan hamda mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan daromadlarni deklaratsiya qilish uchun faqat ushbu operatsiyalarning o'zidan olish mo'ljallanag'tgan daromad aks ettiriladi);

daromadlarning manbalari;

daromad olish bilan bog'liq xarajatlar, majburiy to'lovlar, chiqimlar va ajratmalarning summalari;
jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq bo'yicha imtig'zlar;
hisoblab chiqarilgan soliq summasi;
haqiqatda to'langan soliq summasi.

Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyada jismoniy shaxslarning jami yillik daromadini deklaratsiya qilish bilan bog'liq boshqa ma'lumotlar ham ko'rsatilishi mumkin.

Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiya pochta orqali bu Yurtma xat shaklida, shuningdek elektron shakldagi axborot tarzida taqdim etilishi mumkin.

Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiya blankalari soliq to'lovchilarga davlat soliq xizmati organlari tomonidan bepul beriladi.

Jismoniy shaxs taqdim etgan jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyada to'lanishi lozim bo'lgan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasining kamayishiga olib keluvchi xatolar aniqlangan taqdirda, jismoniy shaxs deklaratsiyaga zarur o'zgarishlar kiritishi shart.

Agar jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyani o'zgartirish haqidagi ariza jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lash muddati tugaganiga qadar berilsa, soliq to'lovchi ushbu Kodeksda belgilangan javobgarlikdan ozod qilinadi.

Agar jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyani o'zgartirish haqidagi ariza jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lash muddati tugaganidan keyin, biroq xatolar davlat soliq xizmati organi tomonidan aniqlanganiga qadar berilsa, soliq to'lovchi soliqning etishmag'tgan summasini hamda unga tegishli penyani to'lagan taqdirda, javobgarlikdan ozod etiladi.

Jismoniy shaxs davlat soliq xizmati organining taqdim etilgan jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyada aniqlangan xatolik to'g'risidagi bildirishnomasini olgan kun davlat soliq xizmati organi tomonidan xatolik aniqlangan kun deb hisoblanadi.

Soliq to'lovchilar ushbu Kodeksning 189-moddasida ko'rsatilgan daromadlar bo'yicha jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyani, agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, doimiy yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga hisobot yilidan keyingi yilning 1 apreldan kechiktirmay taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan chet ellik jismoniy shaxs o'tgan soliq davri uchun daromadlar to'g'risida joriy yilning 1 aprelegacha deklaratsiya taqdim etadi.

CHet ellik jismoniy shaxs – O'zbekiston Respublikasining rezidenti ushbu bobda belgilangan tartibga muvofiq soliq solinishi lozim bo'lgan daromad keltirag'tgan faoliyatini kalendar' yili ichida tugatgan va O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqib ketag'tgan bo'lsa, uning O'zbekiston Respublikasi hududida turgan vaqtda joriy soliq davrida haqiqatda olgan daromadlari to'g'risidagi deklaratsiya mazkur jismoniy shaxs O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqib ketishidan bir oy avval taqdim etilishi lozim. Agar chet ellik jismoniy shaxs – O'zbekiston Respublikasining rezidenti joriy yilning 1 fevraliga qadar doimiy yashash uchun xorijga chiqib ketag'tgan bo'lsa, joriy yil uchun daromadlar bo'yicha deklaratsiya taqdim etilmaydi.

Taqdim etish tartibi ushbu moddaning uchinchi qismida belgilangan daromadlar to'g'risidagi deklaratsiya bo'yicha hisoblab chiqarilgan jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqni to'lash deklaratsiya topshirilgan paytdan e'tiboran o'n besh kun ichida amalga oshiriladi.

Grant olgan jismoniy shaxs daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyani topshirag'tganda grant bo'yicha olingan daromad summasini, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i miqdorini, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan vakolat berilgan fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish bo'yicha organing tegishli xulosasini ko'rsatadi.

Mol-mulkni ijaraga berishdan daromad olag'tgan jismoniy shaxs belgilangan tartibda daromadlar to'g'risidagi quyidagi deklaratsiyalarni taqdim etadi:

dastlabki deklaratsiyani – shunday daromadlar Yuzaga kelgan kundan e'tiboran bir oy o'tgach, besh kunlik muddatda, agar bu daromadlarga jismoniy shaxslar daromadlariga to'lov manbaida solinadigan soliq solinmagan bo'lsa;

yakuniy deklaratsiyani – o'tgan soliq davridan keyingi yilning 15 yanvariga qadar.

Mol-mulkni ijaraga berishdan daromadlar olish tugagan taqdirda jismoniy shaxs doimiy yashash joyidagi davlat soliq xizmati organini bu haqda g'zma shaklda xabardor etadi.

Jismoniy shaxslar – O'zbekiston Respublikasining rezidentlari daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyaning ma'lumotlari asosida hisoblab chiqarilgan, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini o'tgan soliq davridan keyingi yilning 1 iYunidan kechiktirmay to'laydilar.

Jismoniy shaxslar – O'zbekiston Respublikasining rezidentlari hisoblab chiqarilgan daromad solig'ini xorijiy davlatda joylashgan bank hisobvarag'idan chet el vaYutasida to'lashi mumkin. Bunda jismoniy shaxslardan olinadigan, milliy vaYutada ifodalangan soliq jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'langan sanada O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo'yicha chet el vaYutasida qayta hisoblab chiqiladi.

Mol-mulkni ijaraga berishdan daromadlar oladigan jismoniy shaxslar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini taqdim etilgan dastlabki deklaratsiya asosida har oyda daromad olingan oydan keyingi o'ning beshinchi kunigacha to'laydilar. Yil tugagach, jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqning yillik summasi haqiqatda olingan daromad bo'yicha hisoblab chiqariladi. Bu summa bilan yil mobaynida to'langan summalar o'rtasidagi farq kelgusi yilning 15 martigacha soliq to'lovchidan undirilishi g'ki unga qaytarilishi kerak.

Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq to'langan sana quyidagilardir:

Yuridik shaxslar g'ki jismoniy shaxslar tomonidan bankdagi hisobvarag'idan to'langani taqdirda – ularning bankdagi hisobvarag'idan mablag'lar hisobdan chiqarilgan kun;

jismoniy shaxslar tomonidan naqd pul mablag'lari kiritilgan taqdirda – bank kassasiga mablag'lar to'langan sana.

Davlat soliq xizmati organlari tomonidan hisoblab chiqariladigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lash to'lov xabarnomasida ko'rsatilgan muddatlarda amalga oshirilishi kerak.

Mexnat haqi bo'yicha soliq hisoblashga misollar keltiramiz. Misol: 1. Fukaro YAxshiev O. ga 2007 yil yanvar-fevral' oylarida jami bo'lib 75000 sum ish haqi hisoblandi (37500 Q 37500). SHu davrda minimal ish haqining yakuniy summasi 9070 sumni (4535 Q 4535) tashkil etgan. SHundan 5 karrali oyiga, ya'ni 13 foizli soliq stavkasiga to'g'ri keladigan 45350 sumni tashkil etadi. Uning soliq summasi 5895 sum 50 tiyin. YAnvar' oyi uchun fukaroga 6209 sum 25 tiyin soliq hisoblangan.

YAnvar'-fevral' oylari uchun soliq summasini hisoblaymiz: $12418\ 50\ t\ (75000-45350) \times 22\ q\ 5895\ 50\ tiyin\ Q\ 6323\ sum$.

Fevral' oyi uchun hisoblangan soliq summasi 620925 tiyinni tashkil etadi (12418,50 — 6209,25 t)

Misol-2. Fukaro YAkubov T. Soliq kodeksining 59 moddasining 2 bandiga binoan 4 karrali minmal ish haqi miqdorida har oyga soliqdan ozod etiladi, chunki u 1941 - 1945 yillar mehnat faxriysi.

Unga yanvar-may oylarida 2003 yil 115 ming sum ish haqi hisoblangan bo'lib, undan yanvar aprel' oylari uchun 2527 sum 20 t soliq hisoblangan.

YAnvar-may oylari mobaynida u 90700 sumlik imtig'z olish huquqiga ega (18140x5).

Uning soliqqa tortiladigan jami daromadi 24300 sumni tashkil etadi (115000-90700).

YAnvar-may oylari uchun soliq summasi 3159 s 40 t (24300x13%).

May oyi uchun to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasi 631 s 80 tiyinni tashkil etadi (3159 s - 2527s 20t).

Agar fukaroning yil ichida asosiy ish joyi (ukish) o'zgarsa, u yangi ish joyning buhgalteriyasiga avvalgi ish joyidan yil boshiga ishdan ketgunga qadar davrga olingan daromadlar va ushlangan soliq summasi to'g'risidagi ma'lumotnoma topshiradi.

Fukaroning yangi ish joyi (xizmat, ukish)da soliqni hisoblash kalendar yil boshidan avvalgi ish joyi va yangi ish joyi (xizmat ukish)da olingan jami daromaddan amalga oshiriladi. Bu erda tegishli imtig'zlar bo'lib chiqariladi.

Agar fukaro ilgari ish joyidan ma'lumotnoma keltirmagan taqdirda soliq maksimal stavkasi (may 2003 yil uchun 32 foiz) bo'yicha ushlanib turiladi. Ma'lumotnoma taqdim etilishi bilan soliq qayta hisoblanib chiqiladi.

Agar xodimning mehnat majburiyatlari bo'yicha avvalgi ish joyidan mukofot va boshqa daromadlar u ishdan bo'shatilgandan so'ng to'lansa, bu mukofot va boshqa daromadlar to'lanag'gan davrda umumiy qoida bo'yicha imtig'zlsiz soliqqa tortiladi. Bu fukarolarga to'langan daromadlarning umumiy summasi va ulardan ushlangan soliq summasi to'g'risidagi korxonalar, tashkilotlar va muassasalar bir oyda ichida o'zlari joylashgan joydagi soliq idoralariga xabar berishlari zarur.

Asosiy ish joyidan tashkarida olingan mehnat haqi va boshqa daromatlardan soliq hisoblash daromadlar to'langan manbada har oyda kalendar' yilining boshidan oshib boruvchi yakun bo'yicha imtig'zlsiz hisoblanadi.

Agar asosiy ish joyidan tashkarida mehnat haqidan daromad oluvchi fukaro o'zining daromadidan maksimal stavkada soliq ushlash haqida shu erda ariza bersa, daromad to'lovchi korxonalar soliq to'lovchining arizasiga binoan soliq hisoblashlari kerak.

Jismoniy shaxslarning asosiy ish joyidan tashkarida olgan daromadlaridan soliq ushlash ularning olgan jami daromadlari va ushlangan soliq summasi to'g'risidagi deklaratsiyaga qarab soliq idoralari tomonidan soliq qayta hisoblab chiqiladi.

Qat'iy belgilangan soliqni to'lovchilar quyidagilardir (SK 370-modda):

faoliyatning ayrim turlarini tavsiflovchi fizik ko'rsatkichlardan kelib chiqqan holda soliq solinadigan ayrim faoliyat turlarini amalga oshiruvchi Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar;

yakka tartibdagi tadbirkorlar, bundan ushbu moddaning ikkinchi xatboshisida ko'rsatilgan tadbirkorlar mustasno.

Qat'iy belgilangan soliq solinadigan faoliyat turlarining ro'yxati, shuningdek faoliyatning mazkur turlarini tavsiflovchi fizik ko'rsatkichlar qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Faoliyatning ayrim turlarini tavsiflovchi fizik ko'rsatkichlardan kelib chiqqan holda soliq solinadigan ayrim faoliyat turlarini amalga oshiruvchi soliq to'lovchilar faoliyatning qat'iy belgilangan soliq to'lash tatbiq etiladigan qismiga doir soliq solishning boshqa tartibini tanlash huquqiga ega emas.

qat'iy belgilangan soliq to'lash tatbiq etiladigan faoliyat bilan bir qatorda faoliyatning boshqa turlarini amalga oshiruvchi Yuridik shaxslar faoliyatning mazkur turlari bo'yicha alohida-alohida hisob Yuritishlari va umumbelgilangan g'ki ushbu bo'limda belgilangan soliqlarni to'lashlari shart.

Yuridik shaxslar – qat'iy belgilangan soliqni to'lovchilar uchun ushbu Kodeksning 132-moddasida nazarda tutilgan boshqa daromadlarga soliq solinmaydi, dividendlar va foizlar, birgalikdagi faoliyatdan olingan daromadlar, shuningdek ijaradan olingan daromadlar bundan mustasno.

Mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlarga ushbu Kodeksda nazarda tutilgan tartibda umumbelgilangan soliqlar g'ki yagona soliq to'lovi joriy etiladi.

Ushbu Kodeks 370-moddasining ikkinchi xatboshisida ko'rsatilgan, faoliyatning boshqa turlarini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar ushbu Kodeksning 372 va 373-moddalarida nazarda tutilgan tartibda qat'iy belgilangan soliqni to'laydi.

Qat'iy belgilangan soliq belgilangan faoliyat turini tavsiflovchi fizik ko'rsatkich soliq solinadigan ob'ektdir.

Soliq solinadigan baza fizik ko'rsatkichlarning sonidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

qat'iy belgilangan soliq summasi soliq solinadigan baza va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq davri – bir oy.

qat'iy belgilangan soliq hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga:

yangi tashkil qilinag'gan (boshlovchi) soliq to'lovchilar tomonidan – davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran o'n kundan kechiktirmay;

faoliyat Yuritag'gan soliq to'lovchilar tomonidan – hisobot yilining 15 yanvarigacha taqdim etiladi.

Soliq solish ob'ekti va ish haqining eng kam miqdori o'zgargan taqdirda, soliq to'lovchilar aniqlik kiritilgan hisob-kitobni navbatdagi to'lovni to'lash muddatidan kechiktirmay taqdim etishlari shart.

qat'iy belgilangan soliqni to'lash:

Yuridik shaxslar tomonidan – har oyda hisobot oyidan keyingi oying 25-kunidan kechiktirmay; yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan – ushbu Kodeks 375-moddasining to'rtinchi qismida nazarda tutilgan muddatlarda amalga oshiriladi.

Ushbu Kodeksning 370-moddasida ko'rsatilgan yakka tartibdagi tadbirkorlar yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish doirasida qat'iy belgilangan soliq to'lash bilan bir qatorda quyidagilarni to'laydilar:

- 1) bojxona to'lovlari;
- 2) er qaridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar;
- 3) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq – suv resurslaridan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanilganda;
- 4) aktsiz solig'i – aktsiz to'lanadigan mahsulot ishlab chiqarilganda;
- 5) bYudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari;
- 6) davlat boji;
- 7) avtotransport vositalarini olganlik va (g'ki) vaqtinchalik olib kirganlik uchun Respublika yo'l jamg'armasiga yig'im.

Agar yakka tartibdagi tadbirkorlar soliq solinadigan mol-mulkka va (g'ki) er uchastkasiga ega bo'lsalar, ushbu Kodeksning 48, 50-boblarida nazarda tutilgan tartibda jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni va (g'ki) jismoniy shaxslardan olinadigan er solig'ini to'lash majburiyati ularning zimmasida saqlanib qoladi.

Agar yakka tartibdagi tadbirkor o'z faoliyatini muayyan muddatga to'xtatsa, u o'z faoliyatini to'xtatguniga qadar tadbirkorlik sub'ektini ro'yxatdan o'tkazuvchi organga faoliyatni vaqtinchalik to'xtatish to'g'risida ariza berish bilan bir vaqtda davlat ro'yxatidan o'tganlik to'g'risidagi guvohnomani topshiradi.

Yakka tartibdagi tadbirkorning faoliyati vaqtinchalik to'xtatilganligi to'g'risidagi arizani va uning davlat ro'yxatidan o'tganlik to'g'risidagi guvohnomasini olgan, tadbirkorlik sub'ektini davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiradigan organ soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga yakka tartibdagi tadbirkorning faoliyati vaqtinchalik to'xtatilganligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadigan shaklda axborot taqdim etadi.

Tadbirkorlik sub'ektini davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organning yakka tartibdagi tadbirkorning faoliyati vaqtinchalik to'xtatilganligi to'g'risida taqdim qilingan va davlat soliq xizmati organlari tomonidan olingan axborot yakka tartibdagi tadbirkor o'z faoliyatini amalga oshirmaydigan davr uchun qat'iy belgilangan soliqni hisoblashni to'xtatib turish uchun asos bo'ladi.

Savdo faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlarida daromadlarning hamda amalga oshirilgan tovar operatsiyalarining hisobini Yuritishlari shart.

Daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlari quyidagilardir:

chakana savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorning daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish daftari;

Tovar cheklari daftari.

Daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlarining shakli O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

Daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlari yakka tartibdagi tadbirkorni soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan yakka tartibdagi tadbirkorning arizasi asosida ro'yxatdan o'tkaziladi.

Daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlari oxirgi g'zuv kiritilgan paytdan e'tiboran besh yil mobaynida yakka tartibdagi tadbirkorda saqlanadi va ular raqamlangan, ip o'tkazib bog'langan hamda tegishli davlat soliq xizmati organining muhri bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Yakka tartibdagi tadbirkor faoliyati to'g'risidagi hisobotlar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga:

savdo faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan, bundan tijorat faoliyati uchun mo'ljallangan tovarlar olib kiradigan yakka tartibdagi tadbirkorlar mustasno, – yilning har bir choragi yakunlari bo'yicha hisobot choragidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay;

tijorat faoliyati uchun mo'ljallangan tovarlarni olib kiradigan yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan – har oyning yakunlari bo'yicha hisobot oyidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay taqdim etiladi.

Qat'iy belgilangan soliq tadbirkorlik faoliyatining turi va soliq to'lovchining faoliyatni amalga oshirish joyiga qarab belgilangan stavkalar bo'yicha to'lanadi.

Faoliyatning bir necha turi bilan shug'ullanuvchi soliq to'lovchilar qat'iy belgilangan soliqni faoliyatning har bir turi uchun mazkur turdagi faoliyatga nisbatan belgilangan stavkalar bo'yicha alohida-alohida to'laydilar.

qat'iy belgilangan soliqni hisoblab chiqarish soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

qat'iy belgilangan soliq tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning 25-kuniga qadar har oyda, soliq to'lovchi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joy uchun belgilangan stavkalar bo'yicha to'lanadi. Agar faoliyat amalga oshirilgan joy uchun qat'iy belgilangan soliq stavkalari davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joy uchun belgilangan stavkalardan farq qilsa, qat'iy belgilangan soliq eng Yuqori stavka bo'yicha to'lanadi.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar

Kimlar jismoniy shaxslar daromadiga solig'ini to'lovchilar bo'lib?

Soliq ob'ekti va jami daromadga nimalar kiradi?

Jismoniy shaxslar daromadlariga qanday soliq stavkalari mavjud?

Jismoniy shaxslar daromadiga soliqdan qanday imitig'zlar bor?

Kimlar daromadga soliqdan to'liq ozod etiladi va kimlarga 4 karrali minimal ish haqida imtig'z beriladi?

CHet ellik jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning qanday xususiyatlari bor?

Jismoniy shaxslar daromadiga soliq kimlar tomonidan va nimalar asosida hisoblanadi?

Jismoniy shaxslarning daromadiga soliqni to'lov manbaida kimlar ushlab q-qoladilar?

Jismoniy shaxslar daromadiga soliqni to'lash muddatlari qanday?

Qat'iy stavkada soliq to'lovchi jismoniy shaxslarga kimlar kiradi?

Kat'iy stavkadagi soliq qanday hisoblanadi?

Turg'un savdo shaxobchalarida savdo kiluvchilarni ro'yxatga olish tartibi qanday?

BuYum bozorlarida savdo kiluvchi tadbirkorlarni ro'yxatga olishda qanday hujjatlar talab etiladi.

5-mavzu: Qo'shilgan qiymat solig'i

1.O'zbekistonda qo'shilgan qiymat solig'i joriy kilinishining iqtisodiy sabablari va ahamiyati.

2.qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari tarkibi.

3.qo'shilgan qiymat solig'ining soliq solish ob'ekti.

4.Soliq ob'ektlarining tarkibi: tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning sotilishi bo'yicha aylanmalari tovarlarning importi hamda O'zR hududida bajarilgan (ko'rsatilgan) ishlar (xizmatlar) importi aylanmalari.

Qo'shilgan qiymat solig'i tovarlar, ishlar va xizmatlar ustiga qo'yilganligi uchun egri soliqlar katoriga kiradi. Bunday karaganda uning to'lovchilari mahsulot ishlab chiqaruvchi, ish va xizmatlarni bajaruvchi korxonalar, tashkilot, birlashmadek tuYuladi. Ana shu korxonalar soliqni huquqiy to'lovchilari bo'ladilar. Soliq idoralari soliqni o'z vaqtida va to'liq bYudjetga o'tkazishni ulardan talab qiladilar. Aslida esa mazkur korxonalar, tashkilot va birlashmalar qo'shilgan qiymat solig'ini mahsulot, ish, xizmatni sotib oluvchi korxonalar, tashkilot va birlashmalar sotib olgan mahsulot, ish, xizmat ustiga quyib Yuboradilar. Demak, soliqni haqiqiy to'lovchilari shu mahsulot, ish va xizmatni iste'mol kiluvchi korxonalaridir. Ularning oxirgi qiymati chakana savdo orqali aholiga etib boradi va oxirgi iste'molchilar bo'ladi.

Amalig`tda O`zbekiston Respublikasining soliqlar haqidagi qonunlariga binoan, hisobot davri (oyi) uchun realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun hisoblab chiqarilgan qo`shilgan qiymat solig`i summasi bilan qiymati ishlab chiqarish va muomala harajatlari (masalan, materiallar, xom ashg`, butlovchi buyumlar, g`qilig`ini etkazib bergan ta`minotchilarga to`langan xak)ga kushiladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun to`lanishi lozim bo`lgan qo`shilgan qiymat solig`i summasi o`rtasidagi farq sifatida hisoblab chiqariladi.

Bu umumiy tartib mazkur soliqning qo`shilgan qiymatga solinadigan soliq sifatidagi mohiyatini ochib beradi. Bu urinda korxonalar bir vaqtning o`zida ta`minotchiga soliq to`lovchi sifatida ham, tovarlarni sotib oluvchi, ishlar va xizmatlarni iste`mol kiluvchilardan soliq oluvchi sifatida ham maydonga chiqadi.

Bunday axvolda tovarlar (ishlar, xizmatlar) etishmovchiligi g`xud ularga talab oshgan sharoitlarda, QQS korxonaning moliyaviy natijasi (foydasi)ga nisbatan haqiqatdan neytral soliqqa ham, mulkchilik shakllaridan va xo`jaliklarning tarmog`idan qat`iy nazar, barcha korxonalar va birlashmalar tomonidan to`lanadigan universal soliqqa ham aylanadi.

qo`shilgan qiymat solig`i bilvosita ko`p bosqichli soliq bo`ladi, ishlab chiqarish va taqsimlash tsiklidan boshlanib, iste`molchiga sotilishgacha bo`lgan har bir aktdan undiriladi. Uning ob`ekti bo`ladi, ushbu jarag`nlarda qo`shilgan qiymat hisoblanadi. YA`ni, mahsulot ishlab chiqaruvchi, ishlarni bajaruvchi va xizmatlarni ko`rsatuvchi tomonidan yangidan mahsulot ishlab chiqarish uchun g`ki ishlar va xizmatlarni amalga oshirish uchun sotib olingan xom-ashg`, materiallar g`ki tovarlar va mahsulotlar ustiga qo`shilgan qiymatdir. Ushbu soliq tovarlar, ishlar va xizmatlar narxining barcha elementlarini cheklaydi hamda ishlab chiqaruvchining ishlab chiqarish tannarxini kamaytirishga undaydi.

qo`shilgan qiymat solig`i hisobotlari asosida davlat sanoat va savdo kapitalining aylanishi to`g`risidagi ma`lumotlarga ega bo`ladi, va bu makrodarajada tartibga solishni engillashtiradi. Bundan tashkari, davlat tovarlar xali haqiqiy va oxirgi iste`molchi hisoblangan hamda soliqning haqiqiy to`lovchisi bo`lmish aholiga sotilishidan oldin daromad olish imkoniyatiga ega bo`ladi.

Jaxon amalig`ti qo`shilgan qiymat solig`ini hisoblashning deyarli bir xil tizimiga ega. Soliq to`lovchi sotilgan mahsulot, bajarilgan ishlar va ko`rsatilgan xizmatlar uchun haridorlardan olingan soliq bilan ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarish, ishlar va xizmatlarni amalga oshirish uchun to`langan soliq summasi orasidagi farqni bYudjetga to`laydi. Agarda haridorlardan olingan soliq summasidan chegirib tashlanadigan ma`sulot, ishlar va xizmatlarni etkazib beruvchiga to`langan soliq summasi olingan soliq summasidan ortiq bo`ladi, u holda manfiy qoldiq keyingi davr soliq to`lovlari hisobiga o`tkaziladi, g`ki rivojlangan davlatlarda qo`llanilib kelinag`tganidek, soliq to`lovchiga qaytarib beriladi.

Soliqlar ni kismalarga ajratib undirishga imkoniyat beradi, chunki soliqqa tortish mikg`sig`a firmalarning barcha sotuvlari kiradi, ammo oralik sotib olishlarda to`langan soliq summasi kelgusida jami summadan chiqarib tashlanadi. «Soliq krediti» nomi bilan atalgan ushbu usul soliq tizimiga o`zini o`zi tartibga solish elementini kiritadi va soliqlar ni undirilishi Yuzasidan tartibni yaxshilaydi.

qo`shilgan qiymat solig`ining asosiy ustunligi shundaki, ishlab chiqarishning har bir bo`ginida to`langan soliqning xajmini aniqlash mumkin. Bu esa, masalan, eksportga berilgan chegirmalarni aniq hisoblashga g`rdam beradi va eksport subsidiyalari berilgan vaqtdagi qonun bo`zilishlarning oldini oladi.

bYudjetni muvofiklashtirish muammolari bozor iqtisodig`tga asoslangan iqtisod uchun davlat tomonidan bozor iqtisodini tartibga solishda juda muhimdir. Ushbu muammolar orasida soliqlar g`rdamida koplanib turiladigan bYudjetning daromad qismini shakllantirish alohida uringa ega. Bunda ko`pgina mamlakatlarda asosiy urin bilvosita soliqlar ga qaratiladi. Xalkaro amalig`tga asosan bu soliqlar ga iste`moldan soliqlar (qo`shilgan qiymatsolig`i, savdo va oborotdan olinadigan soliqlar), aktsizlar va bojxona to`lovlari kiradi.

O`zbekiston Respublikasida bilvosita soliqlar davlat bYudjeti daromadlarining deyarli yarmini tashkil qiladi. Bundan tashkari, ushbu soliqlar narxning asosiy qismini tashkil kila turib, mamlakat ichidagi ishlab chiqarish va iste`molga hamda xalqaro savdoda etarli darajada ta`sir ko`rsatadi. SHu sababli, qo`shilgan qiymat solig`ining asosiy imkoniyatlari va turli mamlakatlarda ularning ishlatilishining tahlili O`zbekiston uchun katta ahamiyatga egadir.

Bozor iqtisodig`tga asoslangan davlatlarda iqtisodiy usish darajasiga bog`liq holda soliqlar ning bevosita va bilvosita soliqlar ga bulinishi o`rtasida aniq bog`liqlik ko`zga tashlanadi. Davlatning va undagi

aholining iqtisodiy rivojlanishining pastligi asosan har bir aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YAIM bilan ulchanadi hamda bu hol jismoniy va Yuridik shaxslar daromadlaridan olinadigan to'g'ri soliqlar xajmining pastligiga olib keladi. SHu sababli, ko'pgina endigina rivojlanaetgan davlatlarda soliqqa tortishda bilvosita soliqlar asosiy urinni egallaydi. Rivojlanishning eng past ko'rsatkichlariga ega bo'lgan davlatlarda bilvosita soliqlar ning barcha soliqlar tushumi orasidagi urni 68-foizni, to'g'ri soliqlar esa atigi 32 foizni tashkil qiladi. Rivojlangan davlatlarda esa, buning aksi, ya'ni 32 foizini to'g'ri soliqlar , 68 foizini esa egri soliqlarni tashkil qiladi.

Bozor iqtisodig'tiga utish davrida bilvosita soliqlar ning ahamiyati va kerak bo'lganda ularning rolini oshishi mukarrarligini inkor kilmagan holda, quyidagi hollarga e'tiborni qaratish lozim bo'ladi:

Bilvosita soliqlar ning yangisini kiritish g'ki mavjudlarining soliq stavkalarini oshirishda ularning ishlab chiqaruvchilarga salbiy ta'sirini o'rgangan holda amalga oshirish lozim. Ushbu hollarda bu salbiy holatlarni oldini olish uchun barcha choralarni amalga oshirish kerak, hattoki, bilvosita soliqlar , ayniqsa, salbiy holati iste'molni juda tez qisqarishiga olib kelib, ishlab chiqaruvchilarga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatuvchi QQSni qisqartirish choralarni qurish lozim.

Bunday hollarda ba'zi etaplarda bilvosita soliqlar ning urnini oshirishga majbur bo'lgan bozor iqtisodig'tiga asoslangan davlatlarning amalig'tini ham hisobga olish zarur. Bu amalig't shuni ko'rsatadiki, bilvosita soliqlar ning rolini, soliq solish bazasini, soliq stavkasini oshirish faqatgina ushbu choralar natijasida olingan qo'shimcha mablag'larni soliq soxasidagi aniq bir o'zgarishlar uchungina ishlatilganda uzok muddatli yaxshi natijalar berishi mumkin. Bunday choralar sifatida foyda solig'ini kamaytirishni taklif qilish mumkin.

QQS ko'pgina mamlakatlarda davlat daromadining 12-30 foizigacha qismini ta'minlab beradi va bu YAMMning 5-10 foiziga tengdir. Ushbu soliq soliq tushumlari orasidagi ishonarli manbadir va bu ayniqsa daromadlar (foyda) cheklangan mamlakatlar uchun tegishlidir.

O'zbekistonda 1992 yildan beri qo'llanilib kelinaetgan QQS (aktsiz soliqlar i bilan birgalikda) oldin amal qilib kelgan bilvosita soliqlar - savdo va oborotdan olinadigan soliqlar ning urnini to'liq almashtirdi. Ammo QQS o'zining urni bo'yicha bYudjetning daromad qismini shakllantirishda, respublika va korxonalar iqtisodiga ta'siri, narxlar proporsiyasini aniqlashda ulardan utib ketdi.

QQS qo'llanilib boshlangan vaqtdan xozirgi kungacha bo'lgan davrda O'zbekiston davlati bYudjetining asosiy manbalaridan biri bo'ladi koldi.

O'tgan davrlar ichida QQS stavkasi 1992-yilda amal kilgan 30 foizdan 1997 yilga kelib 18 foizgacha tushirildi va 1998 yildan boshlab 20 foiz qilib belgilanib, ushbu stavka bugungi kungacha saklanib kolindi.

Soliqning ushbu stavkasi deyarli barcha MDH davlatlarida amal qilib keladi va bu davlatlararo savdoda amalga oshirishda ancha samarali hisoblanadi. Bundan tashkari, soliqning ushbu stavkasida davlat bYudjetining daromad qismi 30 foizligicha saklanib koladi va bu bozor iqtisodiga mo'ljallangan davlatlardagi ushbu manbadan keladigan tushumlar xajmi bilan mos keladi. Soliqning bu stavkasi yiliga 1-2 foizdan kamayib boraetgan foyda solig'i stavkasining pasayishi natijasida olinmay kolinag'tgan bYudjet daromadi urnini qoplash imkoniyatini beradi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan vaqtdan unchalik ko'p vaqt utmagan bo'ladida, bugungi kunda davlatimiz har qanday mustaqil davlatning asosiy harakteristikasi sifatida o'zining soliq tizimiga, soliq regulyatorlariga ega. Mamlakatimizning yangi Komusi qabul kilinishida davlatimiz raxbari so'zlagan nutkida bozor iqtisodig'tiga utish jarag'nida soliqlar ning printsipial urni aniqlanib berildi va quyidagilarni aytib utdi: - «Endigina Respublikamizda shakllanag'tgan soliq tizimi o'ziga juda katta jalbni va uni takomillashtirishni talab qiladi. Barchamizga ag'nki, soliqlar - bu davlat va mahalliy bYudjetlarning daromad qismini tuldirilishida asosiy manba hisoblanadi. SHu bilan birga, soliqlar barcha xo'jalik faoliyatlarini kamrab olmoqda, ular har bir tarmok, korxonalar uchun alohida xususiyatlarni hisobga olishi lozim».

Bizning fikrimizcha, shuni to'liq xis qilish kerakki, rejali ravishda soliqlar ning oshib borishi davlatga va jamiyatga foyda keltirmaydi. Bundan tashkari, soliqlar daromadlarning bir qismini o'z ichiga olmoqda, ular hamma sharoitda xalk xujaligi va aholi uchun yanada ko'p va yanada yaxshirok mahsulotlar va tovarlar ishlab chiqarishga harakat kilag'tgan korxonalar va fukarolarni rag'batlantirishi lozim.»

Soliq to'g'risidagi qonunlar takomillashgan sari bYudjet tushumlarini tuldirish vositasi sifatida umumiy iste'molga doir qo'shilgan qiymat solig'ining ahamiyati ortib borishiga shubxa yo'q. Davlat bYudjetining daromad qismini qo'shilgan qiymat solig'i bilan tuldirish goyasi XX asr boshlarida paydo bo'lgan edi. Ushbu soliq birinchi marta Germaniyada 1919 yilda Vil'gel'm fon Simens tomonidan "Veredelte Umsatzsteuer" (oblogorojenno'y nalog s oborota) nomi bilan kiritilgan edi.¹ Keyinchalik ushbu soliq birinchi marta 1954 yilda frantsuz iqtisodchisi M.Lore tomonidan qo'shilgan qiymat solig'i sifatida taklif qilingan bo'ladi, bozor iqtisodig'ini sharoitida ko'pgina davlatlarda muvaffaqiyatli qo'llanib kelinmoqda. Masalan SHarkiy Evropa mamlakatlari (Germaniya, Daniya, Niderlandiya, Frantsiya, SHvetsariya)da 60 yillarning oxirida, (Belgiya, Velikobritaniya, Italiya, LYuksemburg, Norvegiyada) 70-yillarning boshlarida QQS joriy etilgan va hozirgi kungacha amal qilib kelinmoqda hamda u asosiy iste'mol solig'i hisoblanib kelinmoqda. QQS Osiy, Afrika va Lotin Amerikasidagi 35 dan ortiq davlatlarda joriy etilgan va undirilib kelinmoqda. Mustaqil Davlatlar hamdustligiga (MDh) kirgan barcha davlatlarda 1992 yildan boshlab QQS joriy etilgan.

qo'shilgan qiymat solig'i Iqtisodiy hamkorlik va taraqqig' t tashkiloti (IHTT)ga a'zo bo'lgan barcha mamlakatlarda joriy etilgan bo'ladi, Avstraliya va AKSH bundan mustasnodir. QQS ni chiqarib tashlash usulidan foydalaniladigan YAponiyadan tashkari mazkur mamlakatlarning hammasi QQS kredit hisob-kitobi usulidan foydalanadi. Bu usul korxonalar - shaxslardan ta'minotning barcha bo'g'inlari bo'yicha soliqqa tortiladigan xom ashg' va materiallarning barcha turlari uchun tegishli stavka bo'yicha QQS hisobini Yuritishni talab qiladi. Soliq to'lovchilar xom ashg' va materiallar etkazib beruvchilardan olinadigan QQS miqdori kreditdan chiqarib tashlanishiga xaklidir. Buning tasdig'i sifatida bunday xom ashg' va materiallarga ma'lum talablarga mos keladigan soliq hisob-kitobi g'ziladi. IHTTga a'zo bo'lgan mamlakatlarning deyarli hammasida yillik aylanmaning eng Yuqori miqdori (soliq busag'asi) belgilab qo'yilgan va shu tufayli ular QQS bo'yicha ro'yxatdan utmaslikka xaklidir.

1960-yillarning o'rtalariga qadar deyarli biror mamlakat ham hozirgi shakldagiga uxshash qo'shilgan qiymat solig'idan foydalangan emas. U davrda IHTTda ishlab chiqarish va taqsimot bo'g'inlarining aniq bosqichida, keyinchalik boshqa xech qanday soliq solinmaydigan bir bosqichli soliq keng iste'mol solig'ining oddiy turi edi. Odatda ulgurji g'ki chakana savdoga bunday soliq solinardi. haridordan qat'iy nazar va iste'mol omiliga soliq krediti bermagan holda tovarni har qanday sotishdan soliq undirishni o'z ichiga oladigan ko'p bosqichli soliqdan ham foydalanilgan. YA'ni tovar narxiga kushilgan soliq miqdori ishlab chiqarish bilan oxirgi chakana savdo o'rtasidagi ko'p bosqichlar orqali ko'tarilib borishi lozim edi. 1967 yilda bosqichli soliq tukkiz mamlakatda mavjud edi.

QQS tizimi ikki bosqichda joriy etildi; avvalo SHimoliy Evropa mamlakatlarining ko'pchiligida va Evropa Ittifokiga eng birinchi bo'ladi kirgan mamlakatlarda qo'llanilgan, sungra 1986 yilda IHTT mamlakatlarida umumiy soliq islooxtlarining amalga oshirilishi QQSning Evropadan tashkari ham tarkalishiga olib keldi. Natijada IHTTga a'zo bo'lgan 25 mamlakatdan 23 tasida QQS juda qisqa muddatda joriy etildiki, bu o'zaro bog'liq bo'lgan bir kancha ta'sir va sabablarning in'ikosi edi. SHunday sabablardan biri, masalan, QQS ishlab chiqarish va iste'molni kamroq darajada o'zgartirib, narx-navoga ancha holis ta'sir o'tkazishidir. Bundan tashkari, u mahsulot etkazib beruvchilar orqali ko'zatib turish imkoniyati bo'lgani uchun aldash imkoniyatlarini kamaytiradi. Bu esa QQSning ancha Yuqori stavkalarini belgilashga, binobarin iste'molga umumlashtirilgan soliqlar ning boshqa turlariga nisbatan ko'proq daromad olishga imkon beradi. QQSning faktura usulidan foydalanib, ma'lum tovarlardan yig'ilgan QQS miqdorini aniq bilish imkonini berishi ham juda muhimdir. Bu usul bojxona orqali tartibga solishga yanada aniqroq tus beradi. Ayni shu maqsadda Evropa Ittifoki (EI)ga kirish istagini bildirgan mamlakatlarda QQSni joriy etish zarurdir.

QQSga utish bosqichli turdagi soliqdan va ulgurji savdo solig'idan voz kechishga asosiy sabab bo'ldi. CHakana savdo solig'iga kelganda esa, QQS bilan bir katorda u boshqa keng iste'mol soliqlar iga nisbatan bir kancha afzalliklarga egadir. Qo'shma SHtatlarda u QQSni joriy etish xususidagi tazyikni kamaytirib etarli ijobiy ta'sir qiladi. Aslini olganda chakana savdo solig'i tuxtatib turuvchi tizimdir, chunki mahsulot ishlab chiqaruvchilar, ulgurji va chakana savdo bilan shug'ullanuvchilar ro'yxatdan utishi va tovarlarni ro'yxatdan utmagan shaxslarga, ya'ni odatda iste'molchilarga sotishdan soliq to'lash

¹ Н. Демчук Проблемы реформирования НДС. Налоговый вестник. 12/1999.

uchun hisobga olinishlari shart bo`ladi. Ammo tovar shaxsiy foydalanishi uchun harid kilinmag`tan bo`ladi, tovarlarni bir-birlariga sotishlari va sotib olishlari va bundan soliq to`lamasliklari mumkin. Binobarin, soliq to`lash ro`yxatga olingan savdogarlar tomonidan tovar iste`molchiga sotilgunga qadar tuxtatiladi. QQSning faktura usuli esa, aksincha, soliq miqdorini qoplash tizimi bo`yicha amal qiladi, bunda sotish uchun tovar harid kiluvchilarning hammasi o`zi harid kilgan tovar uchun soliq to`lashga majbur bo`ladi. Biroq ular ro`yxatdan o`tgan bo`ladi (asosan barcha savdogarlar belgilangan aylanmadan oshirib Yuborishadi), bu holda QQSni qaytarib berishni talab qilishlari mumkin.

QQS va chakana savdo solig`i stavkalari va soliqqa tortiladigan baza baravar bo`ladi, ularning tovarlar narxiga ta`siri ham bir xil bo`ladi. Bu ikki soliq o`rtasida muhim iqtisodiy tafovut yo`q. Lekin QQSning chakana savdo solig`iga karaganda ma`muriy jixatdan ikki afzalligi borligi aniqlangan. Birinchidan, QQSda tovar solig`ini uni ishlab chiqaruvchiga o`tkazish oson kechadi, ikkinchidan, faktura bazasidagi QQS chakana savdo solig`iga karaganda, soliq to`lashdan buyin tovlashdan ishonchlirok ximoya qilishni ta`minlaydi.

Agar soliqni to'lash muddati hisobga olinadigan bo'ladi, ayrim korxonalar har bir soliq turlari bo'yicha to'lov topshiriqnomalarini taqdim etishlariga to'g'ri keladi. Tekshirishlarning ko'rsatishicha, buhgalterlarning malakasi pastligi sababli ko'p xo'jaliklar soliqni noto'g'ri hisoblaganlar va shu sababli ularga ancha miqdorda jarima solingan. Bu qoida malakali buhgalterlari bo'lmagan mayda qishloq xo'jalik korxonalarini uchun ayniqsa muhimdir. Er solig'ini hisoblash esa chuqur bilimni talab kilmaydi, demak xatoga kamdan-kam yo'l qo'yiladi. Bundan tashkari, er solig'i yil boshida bir marta hisoblab chiqiladi va yil oxirigacha o'zgarmay kolaveradi, bu esa xo'jaliklarga o'zlarining ishlab chiqarish-moliya faoliyatini aniq rejalashtirish imkonini beradi.

YAgona er solig'ining joriy etilishi erdan yanada okilona foydalanishni ta'minlashi lozim. CHunki har gektar er hisobidan, undan qanday foydalanilag'tganidan kat'i nazar, soliq to'lanadi. Joriy etilgan yangilik esa xo'jaliklarni g'rdamchi tarmoklar va ishlab chiqarishni rivojlantirishga undaydi, chunki bunday faoliyatdan olingan daromad soliqqa tortilmaydi.

Har qanday soddalashtirish kabi yagona er solig'ining joriy etilishi tenglashtirishga olib keladi - bu esa uning salbiy tomoni. Tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, iqtisodig'ning turli tarmoklarini tadbirkorlik bilan rivojlantirag'tgan xo'jaliklar Yutib chiqadi, faqat dexkonchilik bilan shug'ullanuvchi xo'jaliklar esa Yutkazadi.

Stavkalarni belgilash chogida bYudjetga mablag' tushumining mavjud miqdorini saklab qolish asosiy omil qilib olindi. Hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki, bu tamoyilni ta'minlash uchun umuman respublika bo'yicha 1998 yilda amal kilgan er solig'i stavkasini 1,9 baravar ko'paytirish lozim ekan. Biroq bunda jami soliqlar miqdoriga kura uning urniga yagona er solig'i to'lanadiganiga kura 20-30 foiz kamrokdir. Bu esa qishloq xo'jalik korxonalarini uchun soliq Yukini ancha engillashtirish omillaridan hisoblanadi. SHu bois o'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining karori bilan bazaviy stavkalar va ularga to'zatishtirish koeffitsientlari tasdiqlangan bo'ladi, bu koeffitsientlar erlarning turlari, sifati va kaerda joylashganini hisobga oladi.

YAgona er solig'i to'lovchilar uchun ma'muriy va sanoat markazlariga yaqinroq joylashgani, shuningdek, er shaharlarning ma'muriy chegaralarida joylashgani tufayli koeffitsientni oshirish qo'llanilmaydi. Bu koeffitsientlar bazaviy stavkalarda hisobga olingan.

Yuqorida aytilganidek, yagona er solig'ining joriy etilishi, shubxasiz, soliqqa tortishni soddalashtirishga olib keladi. Lekin u qishloq xo'jalik korxonalarining ishlab chiqarish-moliya faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatadi? SHu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga muvofik yagona er solig'ini joriy etish bilan bog'liq ishlarni muvofiklashtirish bo'yicha maxsus respublika komissiyasi to'zilgan.

Bu komissiyaga yangi stavkalarining qishloq xo'jalik korxonalarini ishlab chiqarish-moliya faoliyatiga ta'sirini o'rganish, shuningdek, zarur takliflarni o'z vaqtida tayg'rlash tpshirilgan. YAgona er solig'ining bazaviy stavkalari va to'zatishtirish koeffitsientlari qishloq xo'jalik korxonalarini faoliyatining natijasiga qanday ta'sir etag'tganini tahlil etish, ayrim yagona er solig'i to'lovchilarga imtig'z berish samaradorligini o'rganish bilan soliq organlarining mo'taxassislari, xususan tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun soliqqa tortish bulimlari mo'taxassislari shug'ullanishi kerak. SHu munosabat bilan ularni etarli miqdorda malakali mo'taxassislar bilan mustaxkamlash zarur. CHunki qishloq tumanlarida asosiy soliq to'lovchilar - yagona er solig'ini to'laydigan qishloq xo'jalik korxonalaridir.

YAgona er solig'i joriy etilishi bilan er maydoni va sifatini aniq hisobga olish zarurati ancha kuchayadi. Respublika xukumati Er resurslari davlat kumitasiga tuprok haritalariga o'zgartirishlar kiritish va er bonitirovkasi ishlarini 1999 yil davomida nixoyasiga etkazishni topshirdi. Mamlakatimizda bu ish boshlab Yuborilgan. Ayrim viloyatlar bo'yicha ish natijalari olindi.

Sunggi yillarda melioratsiya ishlari kamaygani sababli er sifati pasaymoqda, bu esa er solig'i miqdorining kamayishiga olib boradi: ayrim viloyatlarda er solig'i 25 foizgacha kamayadi. Bu holat bir tomondan, qishloq xo'jalik korxonalarining zimmasidagi soliq Yukini engillashtirsa, ikkinchi tomondan, bYudjetga soliq tushumini kamaytiradi. SHu munosabat bilan tuprok bonitirovkasi ko'rsatkichlarini o'zgartirish chogida uning natijalari viloyat xokimligida kurib chiqilishi lozim, viloyat xokimi esa bonitetning yangi ballarini qo'llanish muddatlari to'g'risida qaror qabul qilishi zarur.

Kishlok xo'jalik tovarlarini etishtiruvchilar uchun yagona er solig'i joriy etilishidan avval er solig'i, shuningdek, daromad (foyda) solig'i to'lash borasida berilgan imtig'zlar ham saklanib koladi. Bunda soliqqa tortiladigan bazadan O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofik er solig'i undirilmaydigan er uchastkalari maydoni chiqarib tashlanadi. Bundan tashkari, yangi tashkil etilgan qishloq xo'jalik tovarlarini etishtiruvchilar davlat ro'yxatidan o'tgan paytdan boshlab ikki yil davomida yagona er solig'ini to'lashdan ozod qilinadi.

SHu vaqtga qadar qishloq xo'jalik korxonalarini soliqlar ning ayrim turlarini har oyda g'ki yilning har choragida to'lar edilar. Soliqlar ni o'z vaqtida to'lamagani uchun ular qo'shimcha penya to'lashga majbur bular edilar. endilikda yagona er solig'i bir yilda faqat ikki marta, ya'ni soliq yillik miqdorining 30 foizgacha qismi 1 iYulgacha, kolgan qismi esa 1 dekabrgacha to'lanadi. To'lov miqdorining kamaytirilishi va to'lovlarning 70 foizga yakini yilning oxiriga kuchirilishi soliq to'lovchilar uchun katta engillikdir.

O'z mulkida, egaligida g'ki foydalanishida er uchastkalariga ega bo'lgan jismoniy shaxslar er solig'i to'lovchilari hisoblanadi. Er solig'i to'lovchilarini soliq idoralari har yili yil boshiga hisobini olib boradi.

Jismoniy shaxslar uchun er solig'i ob'ekti er uchastkalaridir. Quyidagi er uchastkalari soliq solinadigan ob'ekt hisoblanadi:

1. Turar joylar etagida va jamoat erlarida shaxsiy g'rdamchi xo'jalik Yuritish uchun meros qilib koldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan erlar;
2. YAkka tartibda uy - joy qurilish uchun meros qilib koldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan er uchastkalari;
3. Jamoa bog'dorchiligi, o'zumchiligi va polizchiligini Yuritish uchun berilgan er uchastkalari;
4. Xizmat Yuzasidan qonun hujjatlariga muvofik berilgan chek erlar;
5. Meros bo'yicha, xadya kilinishi g'ki sotib olinish natijasida uy - joy, dala xovli bilan birgalikda egalik qilish uchun huquqi ham uggan er uchastkalari;
6. qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mulk qilib olingan er uchastkalari;

7. Tadbirkorlik faoliyatini Yuritish uchun doimiy foydalanishga g'ki ijaraga berilgan er uchastkalar;
Berilgan erlardan ikki yil mabaynida foydalanmagan jismoniy shaxslardan er solig'i uch baravar miqdorda undiriladi.

2003 yildan boshlab agar er uchastkalariga mulk, egalik qilish g'ki undan foydalanish huquqini tasdiqlaydigan hujjatlar bo'lmasa, soliq butun maydon uchun quyida ko'rsatilgan oshuvchi koeffitsientlarini kullagan holda to'lanadi.

Er solig'i stavkalari har yili yangi yil uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan belgilanadi 2003 yildan boshlab er solig'i stavkasi 1.2 koeffitsient bilan indeksatsiya qilingan.

Kishlok xujaligi erlarining sifati er uchastkasi mulkdori, er egasi g'ki erdan foydalanuvchining aybi bilan g'monlashgan (boniteti pasayib ketgan) taqdirda, er solig'i erning sifatida g'monlashuviga qadar belgilangan stavkalar bo'yicha undiriladi.

SHahar va shahar kurg'onlarining ma'muriy chegaralarida joylashgan qishloq xujaligi ahamiyatiga molik erlar uchun er solig'i qishloq xo'jalik erlariga belgilangan stavkalarining ikki baravari miqdorida undiriladi.

Jismoniy shaxslar er solig'i bo'yicha imtig'zga egaligi g'ki ega emasligidan kat'i nazar, maydoni davlat xokimiyati organlari tomonidan ajratilganidan ko'p bo'lgan er uchastkalari uchun er solig'ining 1.5 oshuvchi koeffitsienti bilan to'laydilar.

Er uchastkasining joylashishiga qarab qishloq joylari uchun er solig'i stavkasiga quyidagi koeffitsientlar qo'llaniladi:

Toshkent shaxri atrofida 20 km radiusda - 1.3;

Korakolpog'iston Respublikasi, viloyatlar markazlari 15 km radiusda - 1.2;

Tumanlar markazidan 10 km radiusda - 1.15;

Boshqa shaharlar 5 km radiusda - 1.10.

Agar erlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining davlat xokimiyati organlarining karoriga muvofiq ijaraga olingan bo'ladi, jismoniy shaxslar er solig'i urniga ijara haqi to'laydilar

Ijara haqi taraflarning kelushuvi asosida belgilanadi, lekin bu haq qonun hujjatlarida belgilangan er solig'ining bir stavkasidan kam va uch stavkasidan ko'p bulmasligi, erlardan qishloq xo'jalik extig'jlari uchun foydalanganda esa - bir stavka miqdorida bo'lishi lozim. Dexkon xo'jaliklaridan undiriladigan er solig'ini hisoblab chiqarish chogida er solig'i stavkalariga er sifatiga bog'liq holda quyidagi koeffitsientlar qo'llaniladi:

tuproq boniteti 40 balgacha bo'ladi -0.75;

tuproq boniteti 41 baldan 70 balgacha bo'ladi - 1.0;

tuproq boniteti 70 baldan ortiq bo'ladi - 1.25;

jismoniy shaxslarga tadbirkorlik maqsadida foydalanilg'tgan erlar uchun soliq stavkasi Yuridik shaxslarga belgilangan stavkada qo'llaniladi.

Er solig'idan imtig'zlar ikki guruhga bo'linadi:

Jismoniy shaxslarning soliq solinmaydigan er uchastkalari;

Er solig'i to'lashdan to'liq ozod etilgan jismoniy shaxslar.

Soliq solinmaydigan er uchastkalariga quyidagilar kiradi:

1. YAKka tartibda uy - joy qurish va shaxsiy g'rdamchi xo'jalik Yuritish uchun qonun hujjatlarida belgilangan me'g'rlar doirasida berilgan erlar, er berilgan paytdan boshlab ikki yil muddatga;

2. YAngi o'zlashtirilag'tgan erlar va meliorativ holatni yaxshilash ishlari olib borilag'tgan sug'oriladigan erlar-loyixada nazarda tutilgan muddatga lekin ishlar, boshlangandan e'tiboran besh yilgacha;

3. YAngi tut kuchati o'tkazilgan er uchastkalari kator oralaridan qishloq xo'jalik ekinlarini ekish uchun foydalanishdan qat'iy nazar uch yil muddatga. SHu munosabat bilan bahorda o'tkazilgan tut kuchatlari egallagan erlar soliq to'lashdan uch yilga ozod etiladi, bunga kuchat o'tkazilgan yil ham kiradi. Ko'zda o'tkazilgan kuchatlar o'tkazilgan yildan keyingi yildan boshlab uch yilga soliq to'lashdan ozod etiladi. Soliq kodeksining 101-moddasida soliqdan ozod etilgan boshqa erlar bor. Ammo, ular jismoniy shaxsga tegishli ekanligi aytilmagan.

Agar erlar o`z urnida foydalanilmasa imtig`z yo`qoladi. Er kodeksining 55-moddasiga kura qishloq xo`jalik kooperativ a`zolariga, muassasalar va tashkilotlar xodimlariga, shu tashkilotlar erlaridan dehqon xujaligi Yuritish uchun sug`oriladigan erlardan 0,35 ga. gacha, lalmikor erlardan 0,5 gacha, yaylovlardan 1 ga. gacha me`g`rlarda er ajratib beriladi. Bu faqat qishloq joylarida yashovchi dehqon xo`jaliklariga beriladi.

Er kodeksining 27-moddasiga binoan shahar va kurg`onlarda yashovchilarga yakka tartibda uy-joy qurish uchun 0,06 ga er ajratilib beriladi.

Er solig`idan to`liq ozod etiladigan jismoniy shaxslarga quyidagilar kiradi:

1. yaylov chorvachiligining chuponlari, yilkibokarlari, mexanizatorlari, vrachlari va texniklari, boshqa mo`taxassislari va ishchilari;
2. "O`zbekiston Kaxramoni", Sovet Ittifoki Kaxramoni, Mexnat Kaxramoni unvonlariga sazovor bo`lganlar, uchala darajali SHuxrat ordeni bilan taqdirlanganlar. 1941 - 1945 yilaridagi urush nogironlari va qatnashchilari;
3. Xizmatni Afg`oniston Respublikasida va jangovor harakatlar olib borilgan boshqa mamlakatlarda vaqtincha bo`lgan kushinlarning cheklangan kontingenti tarkibida o`tgan harbiy xizmatchilar hamda ukuv va sinov yig`inlariga chakirilgan harbiy xizmatga majburlar;
4. haqiqiy muddatli harbiy xizmatga chakirilgan harbiy xizmatchilarning oilalari - xizmat muddatiga;
5. I va II guruh nogironlari;
6. ©lg`iz pensionerlar; ularga bir o`zi g`ki voyaga etmagan bolalari g`ki nogiron bola bilan birga alohida uy, kvartira g`ki g`tokxonada yashaydigan pensionerlar kiradi.
7. Bokuvchisini yo`qotgan ko`p bolali oilalar; Bularga ota - onadan biri g`ki ikkalasi vafot etgan va oilada 16 g`shga etmagan besh nafar va undan ko`p bolalari bo`lgan oilalar kiradi.
8. Kontsentratsion lagerlarning sobik g`sh tutkinlari, CHernobil AES dagi falokat okibatlarini tugatishda ishtirok etgan shaxslar;
9. Ko`chirib keltirilgan fukarolar kelib joylashgan er uchastkalari bo`yicha - er uchastkalari berilgan vaqtdan e`tiboran besh yilgacha;
10. Ilgari shaxsiy pensiya tayinlangan shaxslar.

Ushbu imtig`zlar yakka tartibda uy joy qurish va shaxsiy g`rdamchi xo`jalik Yuritish uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan me`g`rlar doirasida er uchastkalari berilgan jismoniy shaxslarga nisbatan tadbiiq etiladi. Me`g`rdan ortiqcha er maydonlariga ega bo`lganlar shu qismidan er solig`ini 1,5 oshuvchi koeffitsient bilan to`laydilar. Imtio`z huquqi er solig`ini to`lashdan ozod etilgan shaxslar yashaydigan va birgalikda xo`jalik Yuritadigan butun oilaga tadbiiq etiladi.

Jismoniy shaxslarning er solig`i soliq organlari tomonidan hisoblab chiqiladi.

Jismoniy shaxslarning er solig`ining hisoblash uchun soliq idoralari shahar, tuman er fondi ma`lumotlari xokimliklarning kororlari asosida hamda uyma uy Yurib o`tkazilgan tekshirishlar asosida er uchastkalari maydonini aniqlab chiqadilar.

Jismoniy shaxslarning er solig`i har yilning boshida soliq organlari tomonidan hisoblab chiqiladi va to`lov xabarnomasi g`ziladi.

Er solig`ini to`lash to`g`risidagi to`lov xabarnomasi har yili soliq idoralari tomonidan 1 maydan kechiktirmay jismoniy shaxslarga etkaziladi. Ular jismoniy shaxslarga shaxsan topshirilishi lozim.

Jismoniy shaxslar er solig`ini joriy yilning 15 iYun` va 15 dekabrigha qadar teng bo`ladi to`lab qo`yishlari shart. Aks holda soliqdan boqimanda paydo bo`ladi va soliqdan tashkari peniya (aybona) to`lashga to`g`ri keladi.

Soliq uggan yillarda undirilmagan bo`ladi soliq idoralari avvalgi uch yil uchun soliq hisoblab undirib olishga xakli. o`tgan yillar uchun undirilmagan soliq summasiga aybona hisoblanmaydi.

O`z-o`zini tekshirish uchun savollar

Er solig`ining iqtisodiy mohiyatini izoxlab bering?

Er solig`ini qanday Yuridik shaxslar to`laydilar?

Er solig`i ob`ektiga qanday er maydonlari kiradi?

Er solig'i stavkalari kim tomonidan belgilanadi va er solig'idan Yuridik shaxslar qanday imtig'zlariga ega?

Er solig'ini Yuridik shaxslar qanday muddatlarda to'laydilar?

qanday jismoniy shaxslar er solig'ining to'lovchilari bo'ladi hisoblanadi?

Jismoniy shaxslarning er solig'i ob'ektiga nimalar kiradi?

Er solig'i stavkasini belgilash tartibi qanday?

Er solig'idan jismoniy shaxslar qanday imtig'zlar olish huquqiga ega?

Jismoniy shaxslar er solig'ini kim hisoblaydi va er solig'ini to'lash muddatlari qanday?

11-mavzu: Soliq solishni soddalashtirish tartibi

1.Soddalashtirilgan soliq tizimining soliq amaliyotiga tadbiriq etilishi.

2.Soddalashtirilgan soliq tizimining iqtisodiy ahamiyati. 3.Soddalashtirilgan soliq tizimining tarkibiy tuzilishi: yagona soliq to'lovi, yagona Yer solig'i, qat'iy belgilangan soliq.

4.YAgoga soliq to'lovchilari tarkibi, soliq ob'ekti va stavkalari..

O'zbekiston Respublikasi oldida to'rgan kator iqtisodiy-ijtimoiy masalalarni echishda, shu jumladan bozorlarni tovarlar va xizmatlar bilan ta'minlashda, aholini ish bilan bandligini tashkil etishda bozor iqtisodig'iti sharoitida xo'jalik tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lmish kichik biznesning ahamiyati bekig'sdir. Hozirga kelib, kichik korxonalar yalpi ichki mahsulotning to'rt dan bir qismini bermoqdalar.

O'zbekistonda kichik biznesni rivojlantirishda davlatning kafolatlari va g'rdami tufayli iqtisodig'ida katta imkoniyatlarni ishga solish mumkin. Ularga davlat g'rdamini berish, kafolatlardan tashkari ixchamlashgan soliq tizimiga utishga ruxsat berishlik ularni tashkil qilish va moliya xo'jalik faoliyatini boshqarishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Ixchamlashgan soliq tizimining ahamiyati kattadir. Bular birinchidan, bozorni tezda tovarlar va xizmatlar bilan boyitish imkonini beradi, ikkinchidan, ishsizlikni kamaytirish, yangi ish urinlari ochishga g'rdam beradi, uchinchidan, ular faoliyatini tashkil qilishni ixchamlashtiradi, to'rtinchidan, soliq hisoblari va hisobotlari sonini kamaytiradi, soliq hisoblash xodimlari ishini osonlashtiradi, chunki ilgari ko'p soliq hisoblari va dalolatnomalari urniga yagona soliq (aktsiz osti tovarlari bo'ladi aktsiz) soliq to'laydi. Kup martali bo'nak to'lovlar umuman bo'lmaydi. Demak boqimanda ham bulmasligi lozim

Agar kichik korxonalar aktsiz osti tovarlari ishlab chiqarsalar, unda aktsiz solig'ini ham to'laydilar.

Soliq hisobi oddiy bo'ladi, atigi 6 ko'rsatkichdan iborat.

Kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lashga utishlik ixtig'riydir. Bunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining «Kichik korxonalar uchun ixchamlashtirilgan soliqqa tortish tizimiga utishni qo'llash» to'g'risidagi karoridan kelib chiqiladi. (1998 yil 15 aprel' 159-son)

Ixchamlashtirilgan soliq to'lashga o'tgan kichik korxonalar uchun quyidagi to'lovlarni to'lash tartibi sakalanib kolgan:

Aktsiz solig'i;

Bojxona to'lovlari;

Davlat boji;

BYudjetdan tashkari fondlarga to'lovlar: pensiya fondi, bandlik, yo'l fondlari va b.

Birja bitimlari yig'imi;

Maxsus tovarlarni sotish xukuni olish litsenziya yig'imi;

Savdo qilish huquqini olish yig'imi;

Kichik biznes korxonalari katoriga utishning yagona mezonini bor. U ham bo'ladi ulardagi ishlovchilar sonidir. 2002 yildan boshlab, filial va bulinmalarda ishlovchilar ham ishlovchilar soniga kushiladigan bo'ldi.

Kichik biznes maqomini olishning quyidagi me'g'rlari belgilangan:

Mikrofirmalarda:

Ishlab chiqarish soxalari uchun – 10 kishigacha;

harid qilish, ta'minlash sotish korxonalari, xizmat ko'rsatish va noishlab chiqarish soxalari uchun – 5 kishigacha;

Kichik korxonalarda:

Sanoatda – 40 kishigacha;

Kurilish, qishloq xujaligi va boshqa ishlab chiqarish soxalarida – 20 kishigacha;

fan, ilmiy xizmat qilish, chakana savdo va boshqa noishlab chiqarish soxalarida – 10 kishigacha ishlovchisi bo'lishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 30 avgustdagi Farmoniga asosan 2004 yilning 1 yanvaridan kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlari toifasiga quyidagilar kirishi belgilandi:

yakka tartibdagi tadbirkorlar;

ishlab chiqarish tarmoklarida band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni 20 kishidan, xizmat ko'rsatish soxasi va boshqa ishlab chiqarishga alokador bo'lmagan tarmoklarda 10 kishidan, ulgurji, chakana savdo va umumiy ovqatlanish soxasida 5 kishidan oshmagan mikrofirmalar;

quyidagi tarmoklarning o'rtacha yillik xodimlar soni:

engil va oziq-ovqat sanoati, metallga ishlov berish va asbobsozlik, g'g'ochni qayta ishlash, mebel sanoati va qurilish materiallari sanoati-100 kishidan;

mashinasozlik, metallurgiya, g'qilig'i-energetika va kimg' sanoati, qishloq xujaligi mahsulotlari etishtirish va qayta ishlash, qurilish hamda boshqa sanoat-ishlab chiqarish soxalari – 50 kishidan;

fan, ilmiy xizmat ko'rsatish, transport, aloka., xizmat ko'rsatish soxasi (sug'urta kompaniyalaridan tashkari), savdo va umumiy ovqatlanish hamda boshqa ishlab chiqarishga alokador bo'lmagan soxalar – 25 kishidan.

Soddalashtirilgan soliq, O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga muvofik ishlab chikilgan va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirag'tgan mikrofirmalar va kichik korxonalar (keyingi urinlarda - mikrofirmalar va korxonalar deyiladi) uchun soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimini qo'llash tartibini belgilaydi.

Soddalashtirilgan soliqning amal qilishi dasturiy vositalar ishlab chiqarishga, komp'Yuter texnikasi va dasturiy vositalarga servis xizmati ko'rsatishga, komp'Yuter texnikasida va axborot texnologiyalari bilan ishlashga o'qitishga ixtisoslashag'tgan tashkilotlarga (xodimlar sonidan kat'i nazar) ham tatbiqetiladi.

Mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimi O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida nazarda tutilgan amaldagi soliqqa tortish tizimi bilan bir katorda qo'llaniladi.

Soliqqa tortish tizimini tanlash huquqi ixtig'riy ravishda mikrofirmalar va kichik korxonalar mazkur tartibga muvofik taqdim etiladi, soliq solishning alohida tartibi belgilangan tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlarini amalga oshiruvchi mikrofirmalar va kichik korxonalar bundan mustasno.

Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimi umumdavlat soliqlar i yigindisi, shuningdek mahalliy davlat xokimiyati organlari joriy etadigan, quyida ko'rsatilgan yigimlardan tashkari, mahalliy soliqlar va yigimlar urniga yagona soliqning to'lanishini nazarda to'tadi:

savdo-sotik qilish huquqini berganlik uchun yigim, shu jumladan, tovarlarning alohida turlari bilan savdo-sotik qilish huquqini berganlik uchun litsenziya yigimlari;

Yuridik shaxslarni ro'yxatdan o'tkazganlik uchun yigim;

avtotransportni kuyganlik uchun yigim.

YAgona soliqni to'lovchi bo'lgan korxonalar sotib olingan tovar qiymatida to'langan qo'shilgan qiymat solig'i summasini ishlab chiqarish harajatlari (muomala chikimlari) ga hisobdan chiqaradi.

Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimini kullaydigan mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun bojxona bojlari, qo'shilgan qiymat solig'i va import qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun aksiz solig'i, davlat poshlinalari, litsenziya yigimlari, bYudjetdan tashkari fondlarga ajratmalarni to'lashning amaldagi tartibi saklab kolinadi.

Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimiga o'tgan korxonalar umumiy belgilangan tartibda g'ki soddalashtirilgan shakl bo'yicha hisob Yuritish huquqiga ega. Buxgalteriya hisobotlarining boshlangich hujjatlari va daromadlar hamda harajatlarni hisobga olish daftari Yuritilishining soddalashtirilgan shakli

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi va O'zbekiston Respublikasining butun xududida yagona hisoblanadi.

Korxonalar soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimiga utishi uchun ular ro'yxatdan o'tgan joyidagi davlat soliq xizmati organlariga yil choragi boshlanguniga qadar bir oy qolishidan kechiktirmasdan g'zma ariza berishi zarur. Bunda Yuqorida nazarda tutilgan shartlarga rioya kilinishi lozim.

Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimiga utishda korxonalarining bundan oldingi davr uchun o'sha davrda amal qilib to'rgan soliqqa tortish tizimi asosida soliqlar ni to'lashga doir majburiyatlari saklab kolinadi.

Korxonaning soliqqa tortish soddalashtirilgan tizimiga utishi haqidagi qaror g'ki dalillangan raddiya davlat soliq xizmati organi tomonidan korxonaning ariza bergan kunidan boshlab un kun davomida chiqariladi.

hisobni soddalashtirilgan shakl bo'yicha Yuritishga utishga qaror kilgan korxonalar arizasi kondirilganidan so'ng davlat soliq xizmati organiga belgilangan shaklga kura xo'jalik operatsiyalarini hisobga olish daftarini ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etadi.

Davlat soliq xizmati organi xo'jalik operatsiyalarini hisobga olish daftarining birinchi saxifasida ariza imzolangan sanani kayd qiladi.

Xujalik operatsiyalarini hisobga olish daftariga O'zbekiston Respublikasining amaldagi me'g'riy hujjatlariga binoan belgilangan hisobot bilan muomala qilish qoidalari tegishli bo'ladi.

Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimini qo'llanishdan voz kechish va soliqqa tortishning belgilanmagan tizimiga kaytish navbatdagi takvimiy yil boshidan boshlab davlat soliq xizmati organiga tegishli arizani takvimiy yil tugallanishiga 15 kun qolishidan kechiktirmasdan berilgani holda amalga oshirilishi mumkin.

Davlat soliq xizmati organining soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimiga utishni rad qilish haqidagi karori ustidan belgilangan tartibda shikoyat kilinishi mumkin.

Yagona soliqni to'lashdan soliqqa tortishning bundan oldingi tizimiga utish yil davomida amalga oshirilmaydi.

Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimi qonunlarda belgilangan mezonlarga binoan mikrofirmalar va kichik korxonalar kiradigan Yuridik shaxslarga tegishli bo'ladi.

Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimi uchun faoliyat turi Makroiqtisodig't va statistika vazirligi belgilagan kod bo'yicha aniqlanadi.

Mikrofirmalar va kichik korxonalar xodimlari sonini belgilashda, shuningdek, pudrat shartnomasi va fukarolik-huquqiy tusdagi boshqa shartnomalar bo'yicha ishlovchilar ham hisobga olinadi.

Soliq solishning soddalashtirilgan tizimini kullovchi va nogironlarning jamoat birlashmalari, "Nuroni" jamg'armasi va "O'zbekiston CHernobilchilari" uYushmasining mulki bo'lgan, ishlovchilar umumiy sonining kamida ellik foizini nogironlar, 1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etgan mikrofirmalar va kichik korxonalar yagona soliq to'lashdan ozod etiladi.

Mazkur imtig'z savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayg'rov faoliyati bilan shugullanuvchi korxonalar joriy etilmaydi.

Bir necha faoliyat turlarini amalga oshiradigan yagona soliqni to'lovchilar faoliyatning har bir turi bo'yicha soliqqa tortish ob'ektining alohida hisobini Yuritishi va muayyan faoliyat turining soliq solinadigan ob'ekti va unga muvofik keladigan yagona soliq stavkasi asosida yagona soliqning hisob-kitobini amalga oshirishi kerak.

Aktsiz to'lanadigan mahsulot ishlab chiqarag'tgan Mikrofirmalar va kichik korxonalar aktsiz sogligini O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida belgilangan tartibda to'laganlari taqdirda soddalashtirilgan soliq solish tizimiga utishlari mumkin.

Quyidagilar yagona soliqqa tortish ob'ektlari (soliq solinadigan oborot) hisoblanadi:

savdo (harid qilish, vositachilik, ulgurji-sotish, ta'minot) korxonalar uchun - yalpi daromad;

harid kiluvchi, ta'minot-sotish korxonalar uchun yalpi tushum.

Bunda, qurilish, qurilish-montaj, to'zatishtirish, ishga tushirish-sozlash, loyixa-kidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari uchun o'z kuchlari bilan bajarilgan ishlar xajmidan kelib chiqib hisoblab chiqarilgan yalpi tushum soliq solish ob'ekti hisoblanadi.

YAlpi tushum tarkibiga quyidagilar kiradi:

- tovar (ish, xizmat)larni, mol-mulkni sotishdan olingan tushum summasi;
- sotilgan mol-mulk qiymati va boshqa aktivlar

o'zi ishlab chiqargan mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni erkin almashtiriladigan vaYutaga eksport qilishdan olingan tushum summalari yalpi tushum tarkibiga kiritilmaydi. Mazkur qoida savdo-vositachilik faoliyati bilan shugullanag'tgan g'xud xom ashg' tovarlarni paxta tolasi, paxta kalavasi, lint, neft', neft' mahsulotlari, rangli va kora metallarni erkin almashtiriladigan vaYutaga eksport kilag'tgan mikrofirmalar va kichik korxonalar joriy kilinmaydi

YAlpi daromad tarkibiga quyidagilar kiradi:

- tovarning harid qiymati bilan sotish qiymati o'rtasidagi farq;
- moliyaviy faoliyatdan daromadlar va O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga muvofik belgilanadigan boshqa daromadlar.

YAgona soliq to'lovchilar tomonidan mustaqil ravishda soliq solinadigan oborot va tasdiqlangan stavkalar asosida hisoblab chiqiladi.

YAgona soliq bo'yicha hisob-kitoblar davlat soliq xizmati organlariga yil choragilik va yillik hisobotlarni topshirish uchun belgilangan muddatlarda taqdim etiladi.

YAgona soliq bYudjetga yilning har choragida o'sib boruvchi yakun bo'yicha hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmasdan to'lanadi.

YAgona soliq summasi mahalliy bYudjetga o'tkaziladi.

To'lovchilar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga muvofik javobgar bo'ladilar.

YAgona soliq to'lovchilari bo'ladi, korxonada ishlovchilar soni cheklangan me'g'rdan oshmagan Yuridik shaxslar hisoblanadi. Bunga hamma soxalarda faoliyat ko'rsatuvchi har xil mulk shaklidagi korxonalar kiradi. Demak, kichik korxonalar me'g'ri faqat ishlovchilar sonigagina karalib, ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori va daromad olish darajasi e'tiborga olinmagan. SHu erdan ko'rinib turibdiki, davlat ko'p mahsulot ishlab chiqaruvchi, ishlar, xizmatlar bajaruvchi kichik orxonalar har tomonlama rag'batlantirishni mo'ljallaydi. Faoliyat turi xilma-xil bo'ladi ham yagona soliq to'laydilar.

YAgona soliq to'lovchi korxonalar sotib olingan tovarlar va xom-ashg'lar tarkibida to'langan QQS summasini shu tovarlar va xom-ashg' tarkibiga kiritadi (konsignatsion tovarlar bo'yicha davr harajatiga olib boradi). Maxsulot etkazuvchilarga ish va xizmat bilan birga to'langan QQS summasi shu ishlar, xizmatlar qiymatiga kiritiladi.

YAgona soliq to'lovchilar, bordiYu asosiy vostilar va nomoddiy aktivlarini ijaraga bersalar, unda shu aktivlar qiymatidan mol-mulk solig'ini umumiy tartibda to'laydilar.

Korxonada ishlovchilar soniga shartnoma bo'yicha ishlovchilar, fukaro-huquqiy shartnomalar bo'yicha ishlovchilar, hamda Yuridik shaxs maqomini olmagan filial va vakolatxonalarida ishlovchilar soni ham kushiladi.

Ruyxatdan o'tgan kundan boshlab, ixchamlashtirilgan soliqqa tortish tizimiga utishni qaror kilgan yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan joydagi soliq inspeksiyasiga g'zma ariza beradilar. Bu erda ixchamlashtirilgan soliqqa utishga ruxsat olish kerak bo'lmaydi.

Korxonada ishlovchilar sonidan 50 foizini 1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari, invalitlar birlashmasi «Nuroniy» va O'zbekiston CHernobilchilar assatsiyatsiyasi mulkida bo'lgan nogironlar tashkil etsa yagona soliq to'lashdan ozod etiladilar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2002 yil 13 noyabrdagi 390-son karoriga asosan mikrofirmalar va kichik korxonalar tushumi:

- iste'mol tovarlari ishlab chiqarishdan olinsa soliq stavkasi yigirma besh foiz kamaytiriladi,
- iste'mol tovarlari ishlab chiqarish fizik xajmi usish hisobiga olinsa yagona soliqdan ozod etiladi.

Mikrofirmalar va kichik korxonalar, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan belgilanadigan faoliyatning ayrim turlarini amalga oshirganlari taqdirda, soliqning qat'iy belgilangan summasini oldindan to'lab boradilar.

2003 yil uchun mikrofirmalar va kichik korxonalariga quyidagi yagona soliq stavkalari belgilangan:

Ko`rsatkichlar	Tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotish xajmiga nisbatan foizlarda
Harid, ta`minot-sotuv korxonalari, brokerlik firmalari	30 (yalpi daromaddan)
Xususiy amaliyot bilan shug`ullanuvchi, notariuslar	50
Gastrol-kontsert bilan shug`ullanish uchun litsenziyaga ega bo`lgan Yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek norezidentlarni jalb etish yo`li bilan ommaviy tomasha tadbirlarini tashkil etishdan daromad oluvchi korxonalar.	35
Yagona er solig`i to`lashga utmagan qishloq xo`jalik korxonalari.	6
Iqtisodig`ning boshqa soxalaridagi korxonalar	12
Loteriyalar, totalizatirlar va tavakkalchilikka asoslangan boshqa uyinlarni tashkil etuvchi Yuridik shaxslar.	20 % yalpi tushumdan

1) Lizing kompaniyalari lizing beruvchining daromadiga (marjasiga) nisbatan foizda soliq to`laydilar.

Yagona soliq to`lashga utishni istagan korxonalar chorak boshlanishidan bir oy oldin ro`yxatdan o`tgan soliq idoralariga g`zma ravishda ariza berishlari kerak.

Korxonalarni yagona soliqqa o`tkazish to`g`risida g`ki asoslangan tarzda uni rad etish to`g`risidagi qaror soliq idoralari tomonidan ariza berilgan kundan e`tiboran 15 kun ichida amalga oshiriladi. Yangi tuzilgan korxonalar uchun ruxsat olish talab etilmaydi.

Yagona soliqni hisoblash va bYudjetga to`lash tartibi

Kichik korxonalarining yagona solig`i Yuridik shaxslar tomonidan har chorakda quyidagi oddiy shaklda to`ziladi.

Masalan, 2003 yil I va II chorak soliq hisobi:

Kurstkichlar	YAlpi tushum	
	I chorak	II chorak
YAlpi tushum jami (m.sum)	900	1400
Yagona soliq stavkasi (%)	12	12
Yagona soliq summasi (m.sum)	108	164
Ilgarigi davr uchun hisoblangan (m.sum)	-	108
Kushimcha hisoblandi	108	56
Kamaytirishga tegishli	-	-

Mikrofirmalar va kichik korxonalarining yagona solig`i har chorakda choraklik moliyaviy hisobotlar topshirish uchun belgilangan muddatda to`lanadi. Bunak to`lovlar bo`lmaydi.

Soliq to'lovchilar yagona soliqni to'g'ri, to'liq hisoblash va bYudjetga o'tkazish javobgarligini soliq qonunchiligi bo'yicha oladilar.

YAlpi daromadni g'ki tushumni kamaytirish soliq ob'ektini yashirish (kamaytirish) deb karaladi va tegishli moliyaviy jazolarga tortiladi.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar

YAgona soliqqa utishning ahamiyatlari qanday?

Qanday korxonalar yagona soliq to'lashga utishlari mumkin?

Qanday korxonalar yagona soliq to'lovchilari bula oladi?

Soliqqa tortish ob'ekti nimalardan iborat?

Soliq stavkalarini kim belgilaydi, nimalarga bog'liq?

Soliq kaysi bYudjetga tushadi?

YAgona soliqni hisoblash uchun qanday ko'rsatkichlar kerak?

Soliq kaysi davr uchun hisoblanadi?

YAgona soliq kaysi muddatda bYudjetga o'tkaziladi?

12-mavzu: Mahalliy soliqlar va yig'imlar

1.Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lovchilari tarkibi.

2.Soliq ob'ekti va soliqqa tortiladigan baza, soliq bo'yicha imtiyozlar hamda soliqni hisoblash va bYudjetga to'lash tartibi.

3.Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel' yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqni to'lovchilar tarkibi.

Bu soliqni to'lovchilari bo'ladi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi Yuridik shaxslar, shu jumladan, chet el investitsiyasi bilan to'zilganlar hisoblanadi.

Soliq to'lovchilar tarkibiga tadbirkorlik bilan shug'ullanmaydigan notijorat tashkilotlari, yagona soliq to'lovchilar, yagona er solig'i to'lovchilari, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari hamda xukumat karori bilan hamma soliqlar dan ozod bo'lganlar kirmaydi

Infratuzilmani rivojlantirish solig'i ob'ekti bo'ladi hamma soliqlar ni to'lab bo'lgandan so'ng korxonada kolgan sof foyda hisoblanadi.

U foyda korxonaning moliyaviy yakuni hisobotiga soliqqa tortilgunga qadar foydadan (170 satr) chegirib tashlab aniqlanadi.

SHu sof foydadan 2003 yildan boshlab sakkiz foiz miqdorida soliq hisoblanib kelinmoqda.

Agar korxonada moliyaviy hisobotning 170 satrida zarar ko'rgan bo'ladi, korxonada bu soliqdan ozod bo'ladi.

har chorak ichidagi oylarda korxonalar joriy to'lov to'laydilar. Bu to'lov summasini aniqlash uchun avvalgi chorakdagi haqiqiy hisoblangan summadan kelib chiqib to'lanadi. Joriy to'lovlar har oyning 25 sanasidan kechiktirmay choraklik soliq summasining uchdan bir qismi miqdorida to'lab boriladi.

Soliq hisobi soliq idoralariga choraklik va yillik moliyaviy hisobotlar topshirilgan kundan kechiktirmay topshiriladi. Soliq hisobi haqiqiy axvoldan kelib chiqib to'zilib natija aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1997 yil 26 sentyabrdagi "Idoralarga karashli ijtimoiy soxa ob'ektlarini joylardagi davlat xokimiyati organlari balansiga bosqichma-bosqich o'tkazish to'g'risida" 453-son va 2001 yil 31 dekabrda "Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va 2002 yilgi O'zbekiston Respublikasi Davlat bYudjetining parametrlari to'g'risida" 490-son karorlariga muvofiq ishlab chikilgan va infratuzilmani rivojlantirish uchun soliqni hisoblab chiqarish hamda bYudjetga to'lash mexanizmini belgilaydi.

Yuriknoma soliq solishning alohida tartibi belgilangan Yuridik shaxslarning ayrim toifalariga tatbiqetilmaydi.

Bunda, agar soliq solishning alohida tartibi belgilangan Yuridik shaxslar asosiy faoliyat turi bilan bir katorda faoliyatning boshqa turlari bilan shug'ullansalar, ular ushbu faoliyat bo'yicha alohida hisob Yuritishlari va bYudjetga infratuzilmani rivojlantirish uchun soliqni to'lashlari lozim.

Faoliyatning asosiy turi bo'yicha yalpi daromad solig'ini to'lovchi savdo va umumiy ovqatlanish korxonalariga, gramm-plastinkalar, audio va videokassetalar, lazerli disklarni ishlab chiqish, ishlab chiqarish, g'zish, ko'paytirish va sotish faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalariga;
yagona er solig'ini to'lovchi qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilariga;
qat'iy soliq to'lash belgilangan tadbirkorlik faoliyatining turlarinigina amalga oshiruvchi Yuridik shaxslarga.

Yuridik shaxslar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi xududida joylashgan va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi Yuridik shaxslar infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lovchi hisoblanadilar.

Barcha soliqlar, yig'img'lar va majburiy to'lovlar to'langanidan keyin korxonalar tasarrufida koladigan foyda (daromad) - sof foyda (daromad) (2-son "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot" shaklining 170-satri - 180-satri) infratuzilmani rivojlantirish uchun soliqni hisoblab chiqarish chogida soliq solish ob'ekti hisoblanadi. BYudjetga to'lanadigan soliq summasi Yuqorida ko'rsatilgan hisobot shaklining 190-satrida aks ettiriladi.

Infratuzilmani rivojlantirish solig'ining eng Yuqori stavkasi soliq solish ob'ektining 8 foizi miqdorida belgilangan.

o'z mablag'lari hisobiga ijtimoiy infrato'zilma ob'ektlarini (sog'likni saqlash, bolalarning maktabgacha ta'lim-tarbiya muassasalari va umumiy ta'lim maktablarini) tutib turmaydigan barcha korxonalar uchun soliq stavkasi Korakalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat xokimiyati organlari tomonidan belgilanadi.

Ijtimoiy infrato'zilma ob'ektlarini bYudjet mablag'lari hisobiga moliyalashga bosqichma-bosqich utishni amalga oshirag'tgan korxonalar uchun, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1997 yil 26 sentyabrdagi "Idoralarga karashli ijtimoiy soxa ob'ektlarini joylardagi davlat xokimiyati organlari balansiga bosqichma-bosqich o'tkazish to'g'risida" 453-son karorining 1-3-son ilovalariga kura, infratuzilmani rivojlantirish solig'i quyidagi tartibda to'lanadi:

bYudjet mablag'lari hisobiga moliyalashning hissasi harajatlarning umumiy miqdoridagi foizlarda 100 foizni tashkil etgan taqdirda, ya'ni davlat xokimiyati organlari balansiga topshirilag'tgan ob'ektlar butunlay bYudjet mablag'lari hisobiga moliyalanadigan bo'ladi, infratuzilmani rivojlantirish solig'i stavkasi bunday korxonalar uchun mazkur mintaka uchun belgilangan stavka miqdorida belgilanadi;

davlat mablag'lari hisobiga moliyalashning hissasi harajatlarning umumiy miqdoridagi foizlarda 100 foizdan kamni tashkil etgan taqdirda, ya'ni harajatlarning bir qismi korxonalarining o'z mablag'lari hisobiga moliyalansa, to'lovchilar uchun topshiriladigan ijtimoiy ob'ektlarni ulushbay moliyalash miqdoriga bog'liq holda tabakalashtirilgan stavkalar belgilanadi.

Tabakalashtirilgan stavkalarni belgilash uchun quyidagilarni belgilab olish lozim:

a) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1997 yil 26 sentyabrdagi "Idoralarga karashli ijtimoiy soxa ob'ektlarini joylardagi davlat xokimiyati organlari balansiga bosqichma-bosqich o'tkazish to'g'risida" 453-son karorining 1-3-son ilovalariga binoan, bYudjetdan moliyalashning hissasidan kelib chiqib, topshirilag'tgan ijtimoiy infrato'zilma ob'ektlarini o'z mablag'lari hisobiga tutib turish harajatlari summasini;

b) o'z mablag'lari hisobiga ijtimoiy soxa ob'ektlarini tutib turish harajatlarni amalga oshiruvchi korxonalar uchun soliq solish bazasini, u quyidagi formulaga kura belgilanadi:

SfQXisQS,

bu erda:

Sf - barcha soliqlar to'langanidan keyin korxonalar tasarrufida koladigan foyda (sof foyda);

Xis - o'z mablag'lari hisobiga ijtimoiy soxani tutib turish harajatlari;

S - daromad (foyda) solig'ining hisob-kitob qilingan summasi, u daromad (foyda) solig'ining belgilangan stavkasidan va o'z mablag'lari hisobiga ijtimoiy soxa ob'ektlarini tutib turish harajatlari summasidan kelib chiqib hisoblanadi ($Xis \times \text{daromad (foyda) solig'ini stavkasi} : 100$);

v) mazkur bandning "b" kichik bandiga muvofik hisob-kitob qilingan soliq solish bazasidan kelib chiqib mazkur mintaka uchun belgilangan stavka bo'yicha infratuzilmani rivojlantirish solig'i summasini.

Agar harajatlar summasi (mazkur bandning "a" kichik bandi) infratuzilmani rivojlantirish solig`i summasidan (mazkur bandning "v" kichik bandi) oshib ketsa, korxonaga infratuzilmani rivojlantirish solig`ini to`lamaydi.

Agar harajatlar summasi (mazkur bandning "a" kichik bandi) infratuzilmani rivojlantirish solig`i summasidan (mazkur bandning "v" kichik bandi) kam bo`ladi, korxonaga infratuzilmani rivojlantirish solig`ini eng Yuqori stavka bo`yicha hisoblangan infratuzilmani rivojlantirish solig`ining summasi bilan ijtimoiy soxa ob`ektlarini tutib turish harajatlari o`rtasidagi farq sifatida belgilaydi.

CHorak davomida barcha to`lovchilar infratuzilmani rivojlantirish solig`ining bYudjetga joriy to`lovlarini amalga oshiradilar. Joriy to`lovlarni hisoblash va to`lash uchun soliq to`lovchilar avvalgi chorak uchun hisob-kitob bo`yicha haqiqatda hisoblab g`zilgan infratuzilmani rivojlantirish solig`i summasidan kelib chiqadilar.

Joriy to`lovlar har bir oyning 25-kunidan kechiktirmay, soliq choraklik summasining uchdan bir qismi xajmida amalga oshiriladi.

Infratuzilmani rivojlantirish solig`i bo`yicha hisob-kitoblar davlat soliq xizmati organlariga haqiqatda shakllangan soliq solish bazasidan kelib chiqib, mazkur Yuriknoma ilovasiga kura shaklda o`tib boruvchi yakun bilan, choraklik va yillik moliyaviy hisobotlarni topshirish muddatlarida taqdim etiladi.

hisob-kitob bo`yicha hisoblangan infratuzilmani rivojlantirish solig`i summasini to`lovchilar bYudjetga choraklik va yillik moliyaviy hisobotlarni taqdim etish uchun belgilangan kundan boshlab 5 kun davomida to`laydilar.

BYudjet bilan hisob-kitoblar buhgalteriya hisobi bYudjetga to`lovlar bo`yicha (turlar bo`yicha) karzlarni hisobga olish hisobvarag`i bo`yicha Yuritiladi. Belgilangan tartibda hisoblangan soliq bYudjetga to`lovlar bo`yicha karzlarni hisobga olish hisobvarag`i krediti va soliqlar hamda yig`imlarni to`lash uchun foydani ishlatishni hisobga olish hisobvarag`i debeti bo`yicha aks ettiriladi.

o`tkazilgan soliq summaları bYudjetga to`lovlar bo`yicha karzlarni hisobga olish hisobvarag`i debeti va pul mablag`larini hisobga olish hisobvarag`i krediti bo`yicha aks ettiriladi.

Infratuzilmani rivojlantirish solig`i mahalliy bYudjetga to`lanadi.

Yuriknomani bo`zganlik uchun infratuzilmani rivojlantirish solig`ini to`lovchilar O`zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga muvofik javobgar bo`ladilar.

Yuriknomaga rioya etilishi ustidan nazorat qilish O`zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofik davlat soliq xizmati organlari zimmasiga Yuklanadi.

Infratuzilmani rivojlantirish solig`ining

HISOB-KITOB

N	Ko`rsatkichlar	Summa
.	BYudjetdan moliyalashning belgilangan hissasidan kelib chiqib, topshirilag`tgan ijtimoiy infrato`zilma ob`ektlarini o`z mablag`lari hisobiga tutib turish harajatlari.	
.	Soliq solinadigan baza - jami	
	SHu jumladan:	
	a) barcha soliqlar to`langandan so`ng korxonalar tasarrufida koladigan foyda	
	b) o`z mablag`lari hisobiga ijtimoiy infrato`zilma ob`ektlarini tutib turish harajatlari (1- satr)	
	v) belgilangan stavkadan kelib chiqib hisoblangan foyda solig`ining hisob-kitob qilingan summasi (6- satr. x soliq stavkasi) : 100 1	
.	Belgilangan soliq stavkasi (% da)	
.	Belgilangan stavka bo`yicha hisoblangan soliq summasi (2- satr.x 3-satr.)	
	BYudjetga to`lanadigan soliq summasi (satr.4 - satr.1)	

.		
.	BYudjetga hisoblab g`zildi	
.	Kushimcha qilib g`zishga	
.	Kamaytirishga	

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi har yili makroiqtisodiy ko`rsatkichlar va Davlat bYudjeti parametrlari to`g`risidagi qarorida mahalliy soliqlar va yig`imlar tarkibini ham belgilab beradi.

2004 yil uchun Korakalpokiston Respublikasi, xokimiyatlar va Toshkent shahar xokimiyati tomonidan kiritiladigan mahalliy soliqlar va yig`imlarning chegara stavkalari:

Soliqlar turlari	CHegara stavkalari
Jismoniy shaxslarning iste`moli solig`i: - transport vositalari uchun dizel g`qilig`isi va benzin uchun. - transport vositalariga suYultirilgan gaz	1 litriga 40 sum
2. Savdo huquqi uchun yig`im.	1 kg uchun 40 sum
3. Savdo qilish huquqi uchun litsenzion yig`im: Alkogol mahsulotlariga	1 oy savdosi uchun 3,5 min. ish haqi
Tamaki mahsulotlariga	1 oy savdosi uchun 5 min. ish haqi.
4. Ishbilarmonlik faoliyati bilan shug`ullanuvchi Yuridik va jismoniy shaxslarni ro`yxatdan o`tkazish yig`imi	1 oy savdosi uchun 5 min. ish haqi
	5 minimal ish haqi

Ushbu stavkalar butun respublikada yagona belgilangan. Mahalliy soliqlar va yig`imlar to`g`risidagi Yuriknoma quyidagilarga ta`sir etmaydi:

yagona soliq to`lovchilariga;

savdo va umumiy ovqatlanish korxonalariga; ular yalpi daromadidan soliq to`laydilar;

yagona er solig`i to`lovchilariga, alohida tovarlarga letsenziya yig`imidan tashkari;

tadbirkorlikning alohida turlari bilan shug`ullanuvchi va qat`iy soliq to`lovchi Yuridik va jismoniy shaxslarga tadbir kelinmaydi.

YAlpi daromadidan soliq to`lovchilar savdo binolari, maydonlari va asbob uskunalarini ijaraga bersalar undan olgan daromaddan hamma mahalliy soliqlar va yig`imlarni to`layveradilar.

Mahalliy soliqlar va yig`imlarga quyidagilar kiradi:

Mol - mulk solig`i;

Er solig`i;

Infratuzilmani rivojlantirish solig`i;

Kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun soddalashtirilgan soliq;

Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarining yalpi daromadidan soliq;

Jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel g`qilig`isi va suYultirilgan gazni iste`mol qilish solig`i;

o`z ichiga alohida tovarlarga litsenziya yig`imini kushgan savdo huquqi olish yig`imi;

Tadbirkorlik faoliyati bilan shugullanuvchi Yuridik va jismoniy shaxslarni ro`yxatdan o`tkazish yig`imi olinadi.

Mol-mulk solig'i va er solig'i O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan kiritiladi va butun respublika xududida undiriladi. Ularning soliq stavkalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan belgilanadi. Bu soliqlar ni hisoblash va to'lash tartibi alohida Yuriknomalar bilan boshqariladi.

Infratuzilmani rivojlantirish va transport g'qilig'ilariga iste'mol solig'i alohida Yuriknoma bilan belgilanadi.

Mol-mulk va er solig'idan tashkari soliqlar ni kiritish Korakalpog'iston Respublikasi va viloyatlar hamda Toshkent shaxri mahalliy xokimiyat organlari tomonidan olib boriladi. Soliqlar ni to'lash javobgarligi soliq to'lovchilarga Yuklatilgan. Mahalliy soliqlar va yig'imlar to'langanligiga asos bo'ladi, banklar tomonidan berilgan hujjatlar hisoblanadi.

Jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel' g'nilgi si va suYultirilgan gaz iste'moliga olinadigan soliq (bundan keyingi urinlarda - soliq) to'lovchilari bo'ladi jismoniy shaxslarga benzin, dizel' g'nilgi si va suYultirilgan gaz sotadigan, mulkchilik shaklidan kat'i nazar xo'jalik Yurituvchi sub'ektlar hisoblanadi.

Bunda ularning joylashgan joyidan kat'i nazar avtomobilga g'nilgi qo'yish shoxobchalariga ega bo'lgan xo'jalik Yurituvchi sub'ektlar soliq to'lovchi bo'ladi hisoblanadi.

Soliq ob'ekti.

Jismoniy shaxslarga sotilgan o'zi ishlab chiqargan hamda chetdan harid qilingan benzin, dizel' g'nilgi si va suYultirilgan gazning natural xajmi soliq solish ob'ekti hisoblanadi.

Benzin, dizel' g'nilgi si va suYultirilgan gazni sotish deganda ularni jismoniy shaxslarga amalda berish tushuniladi.

Soliq stavkasi va hisoblash taribi.

Soliq stavkalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan belgilanadi, uning miqdorlari O'zbekiston Respublikasining butun xududida yagona hisoblanadi.

Soliq summasi chakana narxga qo'shimcha ravishda belgilanadi va jismoniy shaxs - haridorga beriladigan chekda alohida satr bilan ko'rsatiladi.

Soliq summasi jismoniy shaxslarga sotiladigan benzin, dizel' g'nilgi si va suYultirilgan gaz uchun mablag' to'lanishi bilan bir vaqtda undiriladi.

Soliq summasi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$N q V x St$

bu erda:

N - hisoblab g'zilgan soliq;

V - jismoniy shaxslarga sotilag'tgan benzin, dizel' g'nilgi si g'ki suYultirilgan gazning natural ifodadagi xajmi;

St - soliq stavkasi.

hisoblab chiqarilgan va ushlangan soliq summasi xo'jalik Yurituvchi sub'ektlar uchun tushum deb hisoblanmaydi hamda boshqa to'lanadigan soliqlar , yig'imlar va majburiy to'lovlar bo'yicha soliq solish ob'ekti bo'lmaydi.

Soliq xisoYuini Yuritish tartibi va uni to'lash muddatlari.

BYudjetga soliq to'lovchilar sotilgan benzin, dizel' g'nilgi si, suYultirilgan gaz hisobi hamda hisoblangan soliq summalari hisobini alohida Yuritadilar.

BYudjet bilan hisob-kitoblar hisobi "BYudjet bilan hisob-kitoblar" hisobvarag'i bo'yicha - "Jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel' g'nilgi si va suYultirilgan gaz iste'moliga soliq" ilova hisobvarag'ida Yuritiladi, soliqni o'tkazish "hisob-kitob varag'i" hisobvarag'i bo'yicha aks ettiriladi.

Soliq mahalliy bYudjetga O'zbekiston Respublikasi bYudjetlari daromad va harajatlarining tegishli tasnifiga kura bulim va paragrafga to'lanadi.

Soliq bank muassasalari orqali har un kunda, benzin, dizel' g'nilgi si va suYultirilgan gaz jismoniy shaxslarga sotilgan oy un kunligi tugaganidan so'ng uchinchi kundan kechiktirmay to'lanadi.

Joriy un kunlik to'lovlar hisobga olingan soliq bo'yicha hisob-kitob avtomobilga g'nilgi qo'yish shoxobchalari joylashgan erdagi davlat soliq xizmati organlariga, Yuriknomaga berilgan ilovaga binoan, har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay taqdim etiladi.

BYudjetga soliq to'lovchilar uning to'g'ri hisoblanishi va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofik o'z vaqtida to'lanishi uchun javobgar bo'ladi.

Soliqning to'g'ri hisoblanishi va to'lanishi ustidan nazoratni davlat soliq xizmati organlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofik amalga oshiradilar.

Jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel' g'nilgi si va suYultirilgan gaz iste'moliga soliqning

HISOB-KITOB

200_yil - chorak uchun

Ko'rsatkichlar	Oborot			S oliq s tav k asi	Soliq summasi				
	Jami	SHu jumladan			Jami	SHu jumladan			
		1 deka da	2 deka da			3 deka da	1 da	2 da	3 da
1. Natural ifodada sotishning haqiqiy xajmi va jami soliq summasi	x	x	x	x					
shu jumladan: Benzin (litrlarda)									
Dizel' g'nilgisi (litrlarda)									
SuYultirilgan gaz (kg.larda)									
2. Hisobot oyi uchun bYudjetga to'langan un kunlik to'lovlar bo'yicha soliq summasi	x	x	x	x					
Benzin bo'yicha	x	x	x	x					
Dizel' g'nilgisi bo'yicha	x	x	x	x					
SuYultirilgav gaz bo'yicha	x	x	x	x					
3. Jami soliq summasi (1-satr. 2- satr):	x	x	x	x					
a) qo'shimcha to'lashga	x	x	x	x					
b) kamaytirishga	x	x	x	x					
SHu jumladan;									
3.1. benzin bo'yicha	x	x	x	x					
a) qo'shimcha to'lashga	x	x	x	x					
b) kamaytirishga	x	x	x	x	x	x	x	x	
3.2 dizel' g'nilgi si bo'yicha	x	x	x	x					
a) qo'shimcha to'lashga	x	x	x	x					
b) kamaytirishga	x	x	x	x	x	x	x	x	
3.3. SuYultirilgan gaz bo'yicha	x	x	x	x					
a) qo'shimcha to'lashga	x	x	x	x					
b) kamaytirishga	x	x	x	x	x	x	x	x	

§-1. Savdo-sotik huquqi uchun yig'im, shu jumladan tovarlarning ayrim turlarini sotish huquqi uchun litsenzion yig'imlar

Savdo-sotik huquqi uchun yig'im va tovarlarning ayrim turlarini, shu jumladan alkogolli va tamaki mahsulotlarini sotish huquqi uchun litsenzion yig'im to'lovchilari bo'ladi O'zbekiston Respublikasi

xududida belgilangan tartibda savdo-sotikni amalga oshiradigan yakka tartibdagi tadbirkorlar (alkogolli mahsulotlar sotishdan tashkari) va Yuridik shaxslar hisoblanadi.

Yig`im savdo-sotikni amalga oshirish huquqi uchun to`lanadi. Savdo-sotik huquqi ruxsat guvoxnomasi bilan tasdiqlanadi.

Tovarlarning ayrim turlari, shu jumladan alkogolli va tamaki mahsulotini sotish huquqi uchun litsenzion yig`im alohida to`lanadi.

Savdo-sotik huquqiga ruxsat guvoxnomasi ariza beruvchining (Yuridik shaxs g`ki yakka tartibdagi tadbirkorning) arizasida ko`rsatilgan, ammo qonun hujjatlarida belgilangan muddatdan ko`p bo`lmagan, muddatga beriladi.

Savdo-sotik huquqiga ruxsat guvoxnomasi joylardagi davlat xokimiyati organlari tomonidan beriladi.

Ulgurji savdo bilan shug`ullanadigan Yuridik shaxslar tomonidan yig`im har oyda davlat ro`yxatidan o`tkazilgan joylar bo`yicha to`lanadi.

CHakana savdo bilan shug`ullanadigan Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan, yig`im har oyda, har bir savdo shoxobchasi uchun savdo faoliyatini amalga oshirish joyi.

Savdo huquqini olish yig`imi va alohida tovarlarga, shu jumladan, alkogol va tamaki mahsulotlariga litsenziya yig`imi to`lovchilari bo`ladi O`zbekiston xududida chakana savdo shaxobchalari orqali savdo kiluvchi jismoniy va Yuridik shaxslar hisoblanadi. CHakana savdo shaxobchalari magazinlar, umumiy ovqatlanish korxonolari, savdo palatkalari va lotoklar, kiosklar, prilavkalar, aptekalar va boshqa ob`ektlar davlat xokimiyati organlari tomonidan maxsus ajratilgan joyida savdo kilsalar kiradi.

Savdo huquqi olish yig`imi savdo qilish uchun berilgan sertifikat (guvoxnoma uchun to`lanadi). U har oyda uch yarim minimal ish haqi miqdorida (yanvar` 2003 yil uchun 19040 sum) to`lab boriladi.

Alohida tovarlarga, shu jumladan alkogol va tamaki mahsulotlarga litsenziya yig`imi alohida to`lanadi.

Sertifikat savdo huquqi uchun 1 oydan 12 oygacha beriladi. U mahalliy xokimiyat organlari tomonidan beriladi.

§-2. Yuridik shaxslarni, shuningdek tadbirkorlik faoliyati bilan shug`ullanadigan jismoniy shaxslarni ro`yxatdan o`tkazganlik uchun yig`im. To`lovchilar bo`ladi yangi barpo etilag`tgan Yuridik shaxslar g`ki Yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug`ullanish xoxishini bildirgan jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Davlat mol-mulki negizida barpo etiladigan aktsiyadorlik jamiyatlari, shuningdek dehqon xo`jaliklari mazkur yig`imni to`lashdan ozod etiladilar.

YAngi barpo etilag`tgan Yuridik shaxs uchun yig`imni ularning muassislari (Yuridik va jismoniy shaxslar) to`lashi mumkin.

Yig`im Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mahalliy bYudjetga bank muassasalari orqali to`lanadi.

Yig`im ro`yxatdan o`tkazishga ariza berilgunga qadar to`lanadi.

Yuriknomaga rioya etilishi ustidan nazoratni davlat soliq xizmati organlari O`zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofik amalga oshiradilar.

Ruyxatdan o`tkazish yig`imi to`lovchilari bo`ladi, Yuridik shaxslar maqomini olmasdan tadbirkorlik bilan shug`ullanuvchi jismoniy shaxslar hamda tadbirkorlik faoliyati bilan shug`ullanuvchi Yuridik shaxslar hisoblanadi.

Davlat mulkchiligi asosida tuzilgan aksioner jamiyatlari hamda dehqon xo`jaliklari bu yig`imdan ozod bo`ladilar.

YAngi tashkil etilag`tgan Yuridik shaxslar uchun yig`imni ularni ta`sischilari to`lab Yuborishi mumkin.

Yig`im Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mahalliy bYudjetga bank muassasalari orqali to`lanadi. U har yilda bir marta besh minimal ish haqi miqdorida to`lanadi.

Boshqa daromadlar mahalliy soliq yig`imlarida tashkari davlat bYudjetiga boshqa daromadlar ham tushadi. Bularga konfiskatsiya qilingan (sud karori bilan) mulklarni sotishdan tushum, temir yo`l, xavo yo`li va aloka idoralarida egasiz, surab olinmagan buYumlar Yuklarni surov muddati tugagandan so`ng

sotib Yuborishdan tushumlar kiradi. Ularni hisoblash va bYudjetga o`tkazish alohida tartib qoidalarga asosan amalga oshiriladi.

O`z-o`zini nazorat qilish uchun savollar

Infratuzilmani rivojlantirish solig`ining joriy etilishidan maqsad nima?

Infratuzilmani rivojlantirish solig`i to`lovchilari kimlar?

Infratuzilmani rivojlantirish solig`ini stavkalari qanday belgilanadi va soliqqa tortiladigan ob`ekt qanday aniqlanadi?

Infratuzilmani rivojlantirish solig`ini hisoblash va to`lash tartibi qanday?

Infratuzilmani rivojlantirish solig`ining to`g`ri hisoblanishi ustidan kimlar nazorat qiladilar?

Mahalliy soliqlar va yig`imlarni kimlar to`laydilar va soliq ob`ekti nima hisoblanadi?

Mahalliy soliqlar va yig`imlardan qanday imtig`zlar bor?

Mahalliy soliqlar va yig`imlarning bYudjet daromadlaridagi ulushi qanday?

Mahalliy soliqlar va yig`imlarni to`lash muddatlari qanday?

13-mavzu: Ijtimoiy jamg`armalarga majburiy to`lovlar

1.YAgona ijtimoiy to`lov va fuqarolarning bYudjetdan tashqari pensiya jamg`armasiga sug`urta badallarini to`lovchilar tarkibi, hisoblash va to`lash muddatlari.

2.BYudjetdan tashqari pensiya jamg`armasiga majburiy ajratmalarni hisoblash va to`lash tartibi.

O`zbekistonda tub bozor islohotlarini amalga oshirish jarag`nida aholini ijtimoiy himoyalashning umumdung` tendentsiyalarinid yaxlit hisobga oladigan va ayni payt mamlakatni rivojlantirish xususiyatlarini uning tarixiy demokratik hamda ijtimoiy o`ziga xosliklarini aks ettiradigan tizimi yaratildi.

O`tish iqtisodig`ti sharoitida mehnat jarag`nida xodimlarni ijtimoiy himoyalashning butun tizimi va mexanizmlarini shakllantirishga ta`sir har xil turdagi omillar majmui amalda bo`ladi va bu mazkur sohani davlat tomonidan boshqarishning alohida rolini nazarda tutadi. Bu sharoitda mehnatga lag`qatli aholini ijtimoiy muhofazalashning asosiy muammolari quyidagilar hisoblanadi:

-xodimlarning mehnat shart-sharoitlari va muhofazasi sohasidagi asosiy ehtig`jlari va ularning davlat tomonidan kafolatlanganligi;

-mehnatni insoniylashtirish ob`ektiv tendentsiyalari ortib boradigan shart-sharoitlarda ishlab chiqarish omillari va atrof-muhitning salbiy ta`sirini kamaytirish;

-ijtimoiy muhofaza masalalarini hal qilishda mehnat munosabatlari sohasini ijtimoiy sheriklik rolini oshirish yo`nalishida rivojlantirish.

Bozor iqtisodig`ti rivojlangan mamlakatlar tajribasi ko`rsatishicha, ijtimoiy muhofaza tizimiga turli davlat va nodavlat tuzilmalari, jumladan, quyidagilar kiradi:

-maxsus davlat organlari (mehnat va ijtimoiy muhofaza, sog`likni saqlash, vazirliklari, turli davlat qo`mitalari);

-ijtimoiy sug`urta (ishlab chiqg`arishdagi baxtsiz hodisa va boshqalar) bo`yicha davlat va jamoat tashkilotlari;

-shu muammolar bo`yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilishini ta`minlaydigan milliy markazlar va jamg`armalar.

O`zbekistonda ijtimoiy muhofazaning zamonaviy tizimini yaratish mavjud ijobiy tajribani hisobga oladi, shuningdek, taniqli xalqaro tashkilotlar – xalqaro mehnat tashkiloti, butun dung` sog`liqni saqlash tashkiloti va boshqalar tavsiyalaridan foydalanadi.

Ko`pgina sanoati rivojlangan mamlakatlar ijtimoiy muhofaza tizimlarida ijtimoiy sug`urta bilan ijtimoiy g`rdam o`rtasida farq bo`lgan, ammo bu O`zbekistonda ham amalda bo`lgan sobiq sho`ro tizimiga taalluqli emas. Ijtimoiy sug`urta tizimi nafaqat yakka tartibda badallar to`lanishiga bog`laydi, balki hag`t mobaynida daromadlarni tenglash (pensiya kabi) g`ki sug`urtaning an`anaviy ma`nosida, masalan, vaqtincha mehnat qobiliyatini yo`qotganlik va ishsizlik bo`yicha nafaqalar to`lashda foydalaniladi. Ijtimoiy g`rdam, ikkinchi tomondan, oldin to`langan badallarga bog`liq bo`lmaydi va aholining kam ta`minlangan qatlamlarini ta`minlashga mo`ljallanadi. Ijtimoiy sug`urta tizimiga pensiyalar, vaqtincha

mehnat qobiliyatini yo`qotganlik va nogironlik bo`yicha nafaqalar, shuningdek, ishsizlik bo`yicha nafaqalar kiradi. Ko`p bolali oilalarga nafaqalar hamda iste`mol subsidiyalari ijtimoiy g`rdam toifasiga kiritilishi mumkin.

Ijtimoiy sug`urta bilan ijtimoiy g`rdam o`rtasidagi farq o`zini-o`zi moliyalash hisobiga ta`minlanadigan ijtimoiy muhofaza bo`yicha nafaqalar (pensiylar, vaqtincha mehnat lag`qatini yo`qotganlik va nogironlik, ishsizlik bo`yicha nafaqalar) hamda davlatning umumiy daromadlaridan moliyalanadigan nafaqalarni (ko`p bolali oilalarga nafaqalar, homiladorlik va tug`ish bo`yicha nafaqalar va mo`ljalli iste`mol subsidiyalari) ajratib ko`rsatish uchun o`tkaziladi. Ijtimoiy sug`urta bo`yicha nafaqalar xususiy sektor ishtiroki uchun katta imkoniyatlar yaratadi, ijtimoiy g`rdam esa asosan daromadlarni qayta taqsimlash, hukumat va xayriya tashkilotlari vakolatiga kiradigan kambag`allik darajasini pasaytirishga yo`naltirilgan bo`ladi.

Ish staji bo`yicha pensiylarning belgilangan muddatgacha berilishi soliq-bYudjet sohasiga jiddiy ta`sir etadi. Islohotning dastlabki yillarida u qamrab olgan ishlovchilar soni bo`yicha sezilarli istisnolar bo`lgan, odamlar belgilangan muddatdan oldin pensiyaga chiqish huquqiga ega bo`lgan. Keyinchalik bunday pensiyani tayinlash ko`lami birmuncha qisqardi, ammo yangi qonunga ko`ra ancha sezilarliligicha qolaverdi. Rasmiy ma`lumotlarga ko`ra, 1994 yilga kelib belgilangan muddatdan oldin pensiyaga chiqqanlar hissasi barcha pensionerlarning 13,8 foizini tashkil qilgan.

Ijtimoiy pensiylar zarur mehnat stajiga ega bo`lmaganlarga berilgan. Bu toifadagi pensiya yangi pensiya qonunchiligi bo`yicha bekor qilindi, u haqda quyida tuxtalib o`tamiz.

Ikkinchi bosqichda mehnat staji va oldingi ish haqi miqdori g`ki qonunchilikda belgilangan ma`lum mezonlarga ko`ra pensiylarga ustamalar to`lash asosida pensiylarning minimal miqdoridan ortadigan pensiylar miqdorini to`lash ko`rib chiqiladi. Ustamali pensiylar respublika bYudjetidan moliyalanadi va urush nogironlari hamda faxriylar bevalariga qo`shimcha to`lovlarni o`z ichiga oladi. Ikkinchi bosqich qisman rivojlangan mamlakatlarda qabul qilingan ijtimoiy sug`urtaga muvofiq keladi, ya`ni pensiyaga ustamalarni oldin to`langan badallarga bog`liq qilib qo`ymaydi, balki ish staji va ish haqi miqdorini hisobga oladi.

Pensiya olish huquqini beradigan stajga ma`lum faoliyat turiga, masalan, oliy ma`lumot olishga sarflangan vaqt kiritiladi. SHu yo`sinda ish haqining o`shirishini to`xtatib turish sig`sati muntazam amalga oshirib kelingan sharoitda inson resurslarini shakllantirish rag`batini yaratish maqsadida pensiya tizimidan foydalanilgan sho`rolar amalig`ti davom etmoqda.

Faoliyatning ayrim turlari staji imtig`zli hisoblash huquqini beradi, masalan, haqiqiy xizmatdagi haqiqiy xizmat qilingan bir yil ikki g`ki uch yilga hisoblanadi.

YAngi qonun bo`yicha eng ko`p sonli bo`lgan pensionerlarga pensiya to`lash davlatdan ilgargisidan ko`proq mablag` sarflashni talab etdi, bunda qarilik bo`yicha pensiya to`lash xarajatlari oldingi to`lovlarning 106 foizini, nogironlik bo`yicha pensiylar – 120 foizni va boquvchisini yo`qotganlik bo`yicha pensiylar – 104 foizni tashkil qildi. Umuman, yangi qonunga ko`ra ko`rsatilgan toifalar bo`yicha pensiya to`lovlari umumiy pensiya to`lovlari xarajatidan 6 foiz ko`proq sarflangan.

Pensiya ta`minoti tizimini rivojlantirishda uning bo`linmalari texnik jihozlanganligi alohida muammoga aylandi. Tizim bo`linmalarini komp`Yuterlashtirish bir xilda bo`lmaydi. 1992 yil yanvar`, 1993 yil oktyabr` oylarida ko`pgina tumanlarda pensiylarni qayta hisoblashda qo`l kal`kulyatorlaridan foydalanildi.

Komp`Yuterlashtirishni amalga oshirish uchun moliyaviy mablag`lar respublika Pensiya jamg`armai bYudjeti orqali o`tkazildi. CHunonchi 1993 yilda viloyat markazlari va yirik shaharlardagi bo`linmalar uchun 25 komp`Yuter xarid qilishga mablag` ajratildi. Komp`Yuterlashtirish boshlangan viloyatlarda komp`Yuterlarning etishmaslik hollari uchrab turadi. Ulardan asosan kal`kulyator sifatida foydalanilgan va hatto aniq bo`limlar o`rtasidagi tarmoqqa ham ulanmagan. Faqat shaharlardagina bo`limlar xodimlari komp`Yuterlar bilan ishlash malakasiga ega bo`lgan.

1993 yil noyabrda 230 tuman bo`limlarida 1990 yilda davlat bYudjeti hisobiga sotib olingan 148 komp`Yuter bor edi. Uchta viloyat o`z mablag`lari hisobiga qo`shimcha komp`Yuterlar sotib olgan. 1993 yilda Ijtimoiy himoya vazirligida pensiya va bolalar nafaqalari miqdorini hisoblash hamda nafaqalar

miqdori hisoblash tizimi umumrespublika komp'Yuter tarmog'ini yaratish maqsadida komp'Yuterlashtirish boshqarmasi tashkil etildi.

Bu davrda O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimini qayta tashkil etishda turli xalqaro tashkilotlar ham o'z tadqiqotlari va aniq tavsiyalari bilan ishtirok etdi. O'zbekistondagi bu muammoni o'rgangan Jahon banki xodimlari fikricha, pensiya to'lovlari xarajatlari katta bo'lgan va g'sh pensionerlar, nafaqa oladiganlar hissaning kattaligi, o'rnini bosish koeffitsientining Yuqoriligi (u ko'p hollarda oldingi haqiqiy ish haqining 100 foizidan ham ortib ketardi) tufayli ortib borgan. Pensiya to'lovlari xarajatlarini ko'paytirib Yuboradigan va sobiq ittifoqning boshqa respublikalariga ham xos bo'lgan ikki holat, bu nisbatan past umumiy pensiya g'shi hamda ishlab turganlarga pensiyaning to'la hajmda to'lanishi bo'ldi. SHunga ko'ra pensiya to'lovlarning davlat bYudjetiga bosimini kamaytirish maqsadida bu xarajatlarni kamaytirish yo'llarini topish tavsiya etildi.

Ular fikricha, qabul qilingan pensiya g'shi g'arbiy o'lchovga ko'ra ancha past bo'lib, ag'llar uchun 55 yil va erkaklar uchun 60 yilni tashkil qiladi. Uzoq muddatli istiqbollarda pensiya g'shini oshirish tavsiya etilib, bu pensiya to'lovlari xarajatini kamaytirishi mumkinligi aytib o'tildi. Ammo bunda bir narsani unutmaslik kerak, ya'ni pensiya g'shining uzaytirilishi ish bilan bandlikka, jumladan, aholining g'sh qismiga salbiy ta'sir etishi mumkin. Kattaroq g'shdagi ishchilar ish joylarini ish bilan band etishda davom etsalar, pensiya to'lovlari sarflarini pasaytirish hisobiga davlat xarajatlaridagi tejam ishsizlik bo'yicha to'lanadigan to'lovlarga, ya'ni ijtimoiy g'rdamga sarflarning Yuqorisi bilan tenglashib qolishi mumkin. Pensiyaga chiqishning qayta qurish sur'atini ham pasaytirish mumkin, chunki korxonalar ishchilardan tabiiy kamayish vositasida qutilishga harakat qiladi.

O'zbekistonda umumiy pensiya g'shining pastligiga qo'shimcha sifatida muddatidan oldin pensiyaga chiqish huquqiga ega bo'lgan ishlovchilar toifasi ham amalda bo'lgan. Bunda ish haqining o'sishini muntazam ushlab turishni kompensatsiya qilish maqsadida xodimlarga ish haqiga aloqador bo'lmagan rag'batlantirishlar bo'yicha pensiya tizimida o'rin olgan printsipl o'z aksini topgan. Xodimni xavfli ish shart-sharoitlari g'ki ishchi kuchiga Yuqori talab tufayli ish haqini oshirish orqali taqdirlash o'rniga mehnat rag'batlari pensiya tizimi orqali yaratilgan.

Muddatdan oldin pensiyaga chiqish muammosi yangi pensiya qonunchiligi qabul qilingandan keyin ham o'zgarishsiz qoldi. Imtig'zli toifalar soni taxminan o'sha darajada qoldi va eng ko'p sonli guruhlar ham o'zgarmagan.

O'tkazilgan tadqiqotlar jarag'nida ishlab turgan pensionerlar pensiya miqdorini kamaytirish tavsiya etilib, ishlab turgan pensionerlarga pensiya to'lash sezilarli sarflarni talab etishi aytib o'tildi, masalan, 1993 yilda pensionerlarning 14 foizi ishlagan va barcha pensiya to'lovlarning 13,2 foizi ularga to'g'ri kelgan. Tavsiya etilgan pensionerlarni attestatsiyadan o'tkazish pensiyasi to'lovlari xarajatlarini kamaytirishi g'ki pensiya g'shiga etgan ishlab turganlarning ayrimlari ishdan ketishga qaror qilishlari oqibatida ish joylarini ko'paytirishi lozim edi. Boshqa taklif ishlab turgan pensionerlar pensiyasi miqdorini kamaytirish edi. Masalan, estoniyada ishlab turgan pensionerlar miqdori qarilik pensiyalarining 38 foizini tashkil qiluvchi baza stavka tayinlanadigan pensiyani oladi.

Jahon banki xodimlari ma'muriy tuzdagi islohotni amalga oshirishni ham taklif qilishdi. Ta'kidlanishicha, amaldagi pensiya tuzilmalarining murakkabligi ma'muriy xarajatlarni ko'paytiradi hamda tizimning adekvat miqdordagi pensiya to'lash imkoniyatini kamaytiradi. Pensiyalar tuzilmasini soddalashtirish hamda baza stavka bo'yicha hisoblanadigan pensiyalarni joriy etish yo'li bilan pensiya to'lovlari xarajatini kamaytirishga erishgan estoniya va Latviya namuna sifatida keltirilgan. O'zbekistonda ham qisqa muddatli istiqbolda baza stavka bo'yicha hisoblash chizmasini joriy qilishni ko'rib chiqish tavsiya etildi.

Jahon amalig'ti ko'rsatishicha, pensiya to'lovlarni naqd pulda uyga etkazib o'rniga bevosita bank depozit orqali to'lashga o'tilishi ma'muriy xarajatlarni jiddiy kamaytirish imkonini beradi. Pochta bo'linmasi o'z xizmati uchun 3 foiz undiradi. Moliyaviy to'lovlar tizimi etarlicha rivojlanmaganligiga qaramay bu muammoni hal qilishda g'rdam berishi mumkin bo'lgan jamg'arma banklarining keng tarmog'i mavjud.

Islohotlarni amalga oshirish bo'yicha aniq takliflar sanoati rivojlangan ko'pgina mamlakatlaridagidan qattiq bo'lmaydigan pensiya tizimi saqlangan holda pensiya to'lovlari xarajatlarini

jiddiy qisqartirish mumkin bo`ladi. Ana shular asosida pensiya to`lovlari umumiy mablag`larining kamida uchdan bir qismini tejashga erishish mo`ljallangan, bu YAMMning 7,5 foizini tashkil qilgan 1991 yildagi deyarli real darajadagi pensiya to`lovlari xarajatini qisqartirishga teng bo`ladi deyish mumkin.

Umuman, Jahon banki mutaxassislarining O`zbekiston pensiya tizimini isloh qilish bo`yicha tavsiyalari quyidagilarni o`z ichiga oladi:

Pensiya to`lovlarning bYudjet cheklovlari doirasidagi miqdordagi to`lanishini ta`min etish masalasini hal qilish maqsadida pensiyalarning mavjud tuzilmasini soddalashtirish, pensionerlarning turli toifalari, shuningdek, pensiyalarga ustamalar sonini qisqartirish;

Qisqa muddatli istiqbolda eng kam miqdordagi pensining real qiymatini saqlashga mo`ljallangan baza stavka bo`yicha indeksatsialashga o`tish. O`rta muddatli istiqbolda ish haqi bilan bog`lanadigan pensiya tizimini joriy qilish tavsiya etiladi;

Pensiyalar uchun o`rnini bosish koeffitsientini pasaytirish maqsadida pensiyalar hisob-kitobining mavjud formulasi taxminan 70 foiz o`zgartiriladi;

Mavjud pensiya g`shini yagona darajaga - erkaklar uchun 65 va ag`llar uchun 60 g`shga asta-sekin ko`tarish maqsadga muvofiqdir;

Xuddi mana shu asosda muddatidan oldin pensiyaga chiqish huquqiga ega bo`lgan pensionerlar toifasini bekor qilish;

Ishlab turgan pensionerlarni pensiya olish huquqidan mahrum qilish g`ki ular oladigan pensiya hajmini eng kam pensiyaning ma`lum hissasigacha kamaytirish.

Nogironlar bo`yicha pensiya tayinlash ustidan nazorat tizimi bunday pensiyani faqat nogironlar olishi uchun etarlicha samarali bo`lishi kerak.

O`zbekistonda ijtimoiy sug`urta tizimini isloh qilish doirasida vaqtincha mehnat lag`qatini yo`qotganlik bo`yicha nafaqalar va boshqa nafaqalarni to`lashda muayyan o`zgarishlar sodir bo`ldi.

Islohotning dastlabki yillarida, keyingi yillarda ham xalqaro standartlar bo`yicha O`zbekistonda ishga chiqmaslik holatlari unchalik ko`p emas. Yildagi mehnatga lag`qatsizlik kunlarining umumiy soni taxminan 7 kun, bu ko`pgina g`arbiy mamlakatlardagi darajadan jiddiy farq qiladi, masalan, Frantsiyada 21 kun, SHvetsiyada 23 kun va Rossiyada 8 kundir. Vaqtincha mehnatga lag`qatsizlik to`lovlari bo`yicha davlat xarajatlari 1992 yilda 0,5 foizdan birmuncha ortiq bo`ldi. Ammo vaqtincha mehnatga lag`qatsizlik to`lovlari bo`yicha xarajatlar hali ham Ijtimoiy sug`urta jamg`armai xarajatlari barcha moddalarining katta qismini tashkil qilib kelmoqda.

Bu davrda ish bilan band bo`lganlarning ko`pchiligi uchun vaqtincha mehnatga lag`qatsizlik nafaqalarini moliyalash Ijtimoiy sug`urta jamg`armai orqali amalga oshirildi. 1994 yil yanvarigacha uni rasmiy kasaba uYushmasi tasarruf qilib keldi, so`ngra, u pensiya ta`minoti hamda ijtimoiy sug`urta funksiyalarini o`zida birlashtirgan yangi Ijtimoiy sug`urta jamg`armaiga topshirildi. Ammo barcha ish bilan band bo`lganlarning bir qismi milliy Ijtimoiy sug`urta jamg`armai sirtida qoldi. Ayni vaqtda 1,2 mln. kishilik jamoa xo`jaliklari xodimlari uchun alohida Ijtimoiy sug`urta jamg`armai mavjud. Kooperatrlar, tadbirkorlar va temir yo`lchilarning mustaqil kasaba uYushmalari ham taxminan 300 000 xodimni o`z qanoti ostiga olgan mustaqil ijtimoiy sug`urta jamg`armalarini tashkil etdi.

1991-1993 yillarda ijtimoiy sug`urta jamg`armai ham ish beruvchilar, ham ishlovchilar tomonidan ish haqi jamg`armadan 5,6 foiz hajmida to`lanadigan badallardan moliyalandi. Ammo 1994 yil yanvaridan boshlab vaqtincha mehnatga lag`qatsizlik bo`yicha nafaqalar birlashgan Pensiya jamg`armai va Ijtimoiy sug`urta jamg`armadan tayinlana boshlandi, bu ishlab turganlarga unchalik jiddiy ta`sir etmadi.

Ijtimoiy sug`urta jamg`armadan turli boshqa nafaqalar, masalan, homiladorlik va tug`ish bo`yicha nafaqalar ham to`lanadi hamda sanatoriy, kurort va bolalar sog`likni saqlash muassasalari xarajatlari qoplanadi.

Bir qator xalqaro ekspertlar fikricha, sanatoriylarni aynan kambag`allarga mo`ljallangan manfaatlar qatoriga kiritish juda ham to`g`ri bo`lmasa kerak, shuning uchun ular sanatoriylar hamda boshqa kurort muassasalarini xususiyalashtirish g`ki ulardan foydalanish xarajatlarini, agar ijtimoiy mablag`laridan moliyalanishi lozim bo`lsa, ularni qoplashni tavsiya etadilar.

O'zbekistonda ijtimoiy muhofazani isloh qilishning alohida muhim yo'nalishi samarali ishlovchi pensiya tizimi, insonga keksayganda yashash manbaini yo'qotmaslik, o'z xizmatlari uchun munosib taqdirlanish imkonini beradigan mexanizmning yaratilishi bo'ldi.

Ma'lumki, jahon amalig' ti pensiya tizimining ikki asosiy turini farqlaydi:

-hamkorlikdagi mas'uliyat tizimi, bunda ishlab turgan avlod oldingi avlodga pensiya to'lovlarini moliyalash uchun badallar to'laydi (o'z navbatida keyingi avlod hozirgi ishlab turganlar pensiya to'lovlarini moliyalaydi);

-jamg'arish tizimi, bunda har bir ishlab turgan kishi o'zining keksalikdagi ta'minoti uchun mablag'larni o'z mehnat faoliyati mobaynida jamg'arishi kerak.

O'zbekistonda sobiq ittifoqdan o'tgan hamkorlikdagi mas'uliyat tizimi qo'llaniladi. Sobiq ittifoqdagi tizimda pensiya ta'minoti umumiy soliq tushumlari hisobiga to'la davlat b'Yudjetidan amalga oshirilgan.

Pensiya ta'minoti «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq amalga oshiriladi. Respublikada pensiya ta'minotining xususiy shakllari yo'q.

Qonunga ko'ra pensiyaning 3 turi farqlanadi:

-g'shga ko'ra pensiya

-nogironlikka ko'ra pensiya

-boquvchisini yo'qotganligiga ko'ra pensiya.

Qonun pensiya ta'minoti uchun ikki asosiy talabni belgilaydi – pensiya ta'minoti huquqini beruvchi shartning mavjudligi (pensiya g'shiga etish, nogiron bo'lib qolish, boquvchisini yo'qotish), zarur ish stajining mavjudligi. Aytib o'tilgan talablardan bittasining yo'qligi pensiya ta'minoti huquqining yo'qotilishiga olib keladi.

Ma'lumotlarning to'g'ri hisobga olinishini oshirish va ular bilan informatsion ishlashning jadalligi respublikada pensiya tizimi ishlashining muhim muammolaridan hisoblanadi. Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza vazirligi va uning pensiya jamg'armai tuzilmalarida etarli komp'Yuter hamda dasturiy ta'minotning yo'qligi pensionerlarni operativ hisobga olish, kelib tushag'tgan badallarni personifikatsiyalangan hisobga olishga o'tish, pensiyalarni butun mehnat faoliyati davridagi o'rtacha ish haqidan hisoblashga o'tishning qonunchilik asosini joriy qilish imkonini bermaydi.

Ko'pgina mamlakatlarda pensiya tizimini moliyaviy barqarorlashtirish muammosining echimi pensiya g'shining oshirilishidadir, deb qaralmoqda. Bu rivojlangan g'arb mamlakatlari uchun juda muhimdir, chunki hag'tning o'rtacha davomiyligi anchagina Yuqori, aholi keksayib bormoqda, pensionerlar va ishlab turganlar nisbati, ya'ni bog'liqlik og'ishmay ortib bormoqda. Bunday sharoitda pensiya g'shini oshirish masalasini, u hozirda anchagina Yuqorilikdan qat'i nazar, qayta ko'rib chiqilishi (masalan AQSHda jinsidan qat'i nazar u 65 g'shdir) haqiqatan ham ijobiy natijalar berishi mumkin.

Qator sobiq ijtimoiyistik mamlakatlar – Vengriya, Boltiq bo'yi davlatlari, Rossiya, Qozog'istonda pensiya g'shi qonun yo'li bilan oshirildi. O'zbekistonda pensiya g'shini yaqin 20 yil mobaynida bosqichma-bosqich oshirish mo'ljallanmoqda.

Bunday tadbir haqiqatan ham pensiya jamg'armalarining moliyaviy holatiga ijobiy ta'sir etishi mumkin. Ammo O'zbekistonda pensiyalar moliyaviy ta'minotini yaxshilashning boshqa mexanizmlari bor bo'lib, ular quyidagilardir:

-imtig'zli pensiyalar tartibotini, ya'ni umum-belgilangan g'shdan oldin tayinlanadigan pensiyalarni tugatish (bu mexanizmning amalga oshirilishi – pensiyaga chiqish o'rtacha g'shini erkaklar uchun 1,5 yilga, ag'llar uchun 2 yilga ko'tarish imkonini beradi, o'tkazilgan tahlil ko'rsatishicha, bunda pensiya jamg'armaiga tushadigan yillik og'irlikni 16 % kamaytirish mumkin bo'ladi);

-erkaklar va ag'llar uchun pensiyaga chiqish g'shini tenglashtirish, bu pensiyaga chiqish umumiy g'shini 3 yilga oshirish hamda pensiya jamg'armaiga tushadigan og'irlikni yilda 27% kamaytirish imkonini beradi.

Bu ikki mexanizmni amalga oshirish natijasida o'rnini bosish o'rtacha koeffitsientini (o'rtacha pensiya miqdorining o'rtacha ish haqi miqdoriga nisbatini) hozirgi 33% dan 47%gacha ko'tarish imkonini beradi, natijada yangi to'g'rilash koeffitsientlarini joriy qilish yo'li bilan pensiyalarni indeksatsiyalashni kiritish va ish haqi hamda pensiyalar minimal miqdorini tenglashtirish mumkin bo'ladi.

Pensiya jamg`armalari moliyaviy holatini barqarorlashtirishning muhim muammolari qatoriga moliyalashning qo`shimcha manbalarini qidirib topish ham kiradi. Bu quyidagi hisobiga hal etilishi mumkin:

-moliyalash bilan qoplanmaydigan qo`shimcha xarajatlarni tugatish. Jumladan, mehnat staji g`ki ish staji tushunchasidan voz kechib, sug`urta staji tushunchasi kiritilishi kerak. Bu pensiyani hisoblashda faoliyatning faqat pensiya badallari to`langan davrlari hisobga olinishi kerak degandir;

-qonunchilikka qat`iy rioya qilinishi, ya`ni harbiy xizmatchilarga davlat bYudjeti hisobiga tayinlanadigan pensiyalarni moliyalash ta`minlanishi kerak;

-g`lg`iz keksa fuqarolarga, ish stajiga ega bo`lmaganlarga, 16 g`shgacha bo`lgan nogiron bolalarga va bolalikdan nogiron bo`lganlarga tayinlanadigan ijtimoiy deb atalmish nafaqalarni, shuningdek, alohida xizmatlari (urushda ishtirok etganlik, faxriy unvon, urush yillarida ishlaganlik va boshqalar) uchun davlat bYudjetidan belgilanadigan pensiyalarga ustamalarni to`lashga o`tish. Bu takliflarning amalga oshirilishi pensiya jamg`armaiga 40 foizga yaqin xarajatlarni tejash imkonini beradi.

Pensiya ta`minotini isloh qilishning eng samarali yo`nalishlaridan biri jamg`ariladigan pensiya tizimining joriy qilinishidir. Ammo jamg`ariladigan pensiya tizimi hamkorlikdagi mas`uliyat pensiya tizimiga davlat fuqarolarning pensiya ta`minoti sohasidagi konstitutsiyaviy huquqini hamkorlikda amalga oshiradi, jamg`ariladigan tizimlarda esa bu kafolatlarni davlat bYudjet hisobiga mustaqil ta`minlashi kerak bo`ladi. SHuning uchun jamg`ariladigan pensiya tizimlari davlatga etarlicha turmush darajasini hamda davlat pensiya tizimiga tushadigan og`irlikni engillatish usullarini ta`minlashda g`rdam beradigan qo`shimcha sifatida tashkil etilishi kerak. Ikkinchi tomondan, bunday jamg`armalar mamlakat iqtisodig`tiga investitsiyalashning qudratli manbai hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlar amalig`ti ko`rsatishicha, aynan mana shunday jamg`armalar iqtisodig`tni rivojlantirish vositasi hisoblanadi. Bunga CHilini misol qilib keltirish mumkin, u erda aynan pensiya jamg`armalari mamlakatning rivojlanishini ta`minlagan.

Jamg`ariladigan pensiyalar nodavlat pensiya jamg`armalarini tashkil etish orqali shakllantirilishi kerak. Nodavlat pensiya jamg`armalari faqat ixtig`riylik printsipiga asoslanishi kerak. Buning uchun nodavlat pensiya jamg`armalarini tashkil etish hamda ularning ishini tartibga solib turadigan samarali qonunchilik bazasi yaratilishi kerak. Bunday jamg`armalarning investitsiya faoliyati faqat maxsus kompaniyalar orqali amalga oshirilishi kerak.

Bozor iqtisodig`ti rivojlangan mamlakatlar tajribasi ko`rsatishicha, ijtimoiy muhofaza tizimiga turli davlat va nodavlat tuzilmalari, jumladan, quyidagilar kiradi:

-maxsus davlat organlari (mehnat va ijtimoiy muhofaza, sog`likni saqlash, vazirliklari, turli davlat qo`mitalari);

-ijtimoiy sug`urta (ishlab chiqq`arishdagi baxtsiz hodisa va boshqalar) bo`yicha davlat va jamoat tashkilotlari;

-shu muammolar bo`yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilishini ta`minlaydigan milliy markazlar va jamg`armalar.

Pensiya ta`minoti «Fuqarolarning davlat pensiya ta`minoti to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq amalga oshiriladi. Respublikada pensiya ta`minotining xususiy shakllari yo`q.

Qonunga ko`ra pensiyaning 3 turi farqlanadi:

-g`shga ko`ra pensiya

-nogironlikka ko`ra pensiya

-boquvchisini yo`qotganligiga ko`ra pensiya.

Qonun pensiya ta`minoti uchun ikki asosiy talabni belgilaydi – pensiya ta`minoti huquqini beruvchi shartning mavjudligi (pensiya g`shiga etish, nogiron bo`lib qolish, boquvchisini yo`qotish), zarur ish stajining mavjudligi. Aytib o`tilgan talablardan bittasining yo`qligi pensiya ta`minoti huquqining yo`qotilishiga olib keladi.

Pensiya ta`minotini isloh qilishning eng samarali yo`nalishlaridan biri jamg`ariladigan pensiya tizimining joriy qilinishidir. Ammo jamg`ariladigan pensiya tizimi hamkorlikdagi mas`uliyat pensiya tizimiga davlat fuqarolarning pensiya ta`minoti sohasidagi konstitutsiyaviy huquqini hamkorlikda amalga

oshiradi, jamg`ariladigan tizimlarda esa bu kafolatlarni davlat bYudjet hisobiga mustaqil ta`minlashi kerak bo`ladi. Jamg`ariladigan pensiyalar nodavlat pensiya jamg`armalarini tashkil etish orqali shakllantirilishi kerak. Nodavlat pensiya jamg`armalari faqat ixtig`riylik printsiipiga asoslanishi kerak

Nazorat va muhokama uchun savollar

Ijtimoiy sug`urtaning ijtimoiy g`rdamdan farqi nimada?

Zamonaviy ijtimoiy ta`minot tizimining shakllanishi va rivojlanishi to`g`risida gapirib bering.

Ijtimoiy ta`minot sohasida qanday islohotlar amalga oshirilmoqda?

O`zbekiston Respublikasida pensiya ta`minoti tizimi hususiyatlari haqida gapirib bering.

Foydalanilgan adabig`tlar ro`yxati.

O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.: O`zbekiston 2003 yil.

O`zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi.-T.: «Iqtisodig`t va huquq dung`si» nashrig`t uyi 2004 yil.

O`zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to`g`risida»gi Qonuni. -T.: “Xalq so`zi”, 1997 yil, 29 avgust.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. «Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodig`tni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo`nalishlari amalga oshirilishini jadallashtiish chora- tadbirlari to`g`risida» Toshkent. «Xalq so`zi», 2005yil 15 iYun`.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni «Tadbirkorlik sub`ektlarini huquqiy himoya qilish tizimi yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida» Toshkent. «Xalq so`zi», 2005 yil 14 iYun`.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori «Tadbirkorlik sub`ektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to`g`risida» Toshkent «Xalq so`zi» 2005 yil,16 iYun`.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. «Mikrofirmalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag`batlantirish borasidagi chora-tadbirlari to`g`risida». Toshkent - «Xalq so`zi», 2005 yil 20 iYun`.

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 28 dekabdagi «O`zbekiston Respublikasining 2005 yil Davlat bYudjeti parametralari to`g`risida»gi 610-son Qarori.

Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin.T.2.-T.:O`zbekiston,1996 yil.

Karimov I.A. Bung`dkorlik yo`lidan. T.4-T.: O`zbekiston, 1996 yil.

Karimov I.A. YAngicha fikrlash va ishlash - davr talabi.T.5.-T.:O`zbekiston, 1997 yil.

Karimov I.A. Xavfsizlik va barqarorlik taraqqig`t yo`lida. T.6.-T.: O`zbekiston, 1998 yil.

Karimov I.A. O`zbekiston iqtisodiy isloxotlarni chuqurlashtirish yo`lida.-T.: O`zbekiston, 1995.

Karimov I.A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqig`t kafolatlari.-T.: O`zbekiston, 1997 yil.

Karimov I.A. O`zbekiston buYuk kelajak sari.-T.: O`zbekiston, 1998 yil.

Karimov I.A. Barqaror taraqqig`tga erishish ustuvor vazifa.-T.: O`zbekiston 1998 yil.

Karimov I.A. Xalqimizning yo`li mustaqilliq ozodlik va tub islohatlar yo`lidir.-T.: O`zbekiston, 1996 yil.

Karimov I.A. Maqsadimiz – tinchliq barqarorliq hamkorlik.-T.: O`zbekiston, 1997 yil.

Karimov I.A. o`z kelajagimizni o`z qo`limiz bilan quramiz.T.: O`zbekiston, 1999 yil.

Karimov I.A. erishilgan marralarimizni mustahkamlab, islohotlar yo`lidan izchil borish – asosiy vazifamiz. «Xalq so`zi» 2004 yil 14 fevral.

Alle M. Za reformu nalogovoy sistemo`. Pereosmo`slivaya obhepriznanno`e istino` g`Per s. frants. Pod red. I.A. Egorova. - M.: TEIS, 2001. – 96 s.

Bol`shakov S. «Finansovaya politika gosudarstva i predpriyatiya». M; «Knijno`y mir» 2002 g.

Vahobov A., Jumaev N., Burxanov N. «Xalqaro moliya munosabatlari». T.: «SHarq» 2003 y. – 400 bet.

Jo`raev T. «Soliq sig`satini takomillashtirish yo`lida». «Xalq so`zi». 2003 yil 20 sentyabr`.

Bekmurodov M. “Soliq tizimi va jamoatchilik fikri”.g`g`Soliq to`lovchining jurnali, 1996. 7-son.

Bro`zgalina A. V. Nalogovo`e sporo`, 1997-1998 gg.

Gataulin SH.K. Soliq inspektorining qo`llanmasi (me`g`riy hujjatlar to`plami).-T.:O`zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo`mitasi, 1996.-432b.

Gadoev E, Yugay L., Soliqqa oid xatolar.-T.: «Iqtisod va huquq dunesi» nashriet uyi, 1996.-126b.

Gadoev e.F. i dr. «Nalogi v Respublike Uzbekistan» v 1997 g.: Metodicheskoe posobie.2-e izd., dop. I pereab.-T.: Izdatel'skiy dom «Mir ekonomiki i prava», 1997.-352s.-(B-ka buhgaltera:T.2.)

Gadoev e.F. Yugay I.V. Metodicheskoe posobie «Nalogi v Respublike Uzbekistan» v 1999-2000gg.»

Karavaeva I. «Nalogovoe regulirovanie ro`nochnoy ekonomiki»: Uchebnoe posobie. M: YuNITI-DANA, 2000 g.

CHernik D.G. Nalogi v ro`nochnoy ekonomike. –M.: «Yuniti», 2000.

Ivanov A.M., Markin V.I.,Perevozchivo A.G. Ob osobennostyax otsenki ro`nochnoy stoimosti kommercheskoy nedvijimosti na datu v proshlom.g`g` Rossiyskiy otsenshik. 1996. №10-11.

Xodov L.G., Popov V.I. Podxodnoe nalogooblojenie fizicheskix lits (zarubejno`y opo`t, rossiyskie problema`): Ucheb. posob.- M.: TEIS, 2004.– 132s.

Xodov P.G. Nalogi i nalogooblojenie ekonomiki: Uchebnoe posobie. - M.: TEIS, 2003. – 253 s.

Soliq to`lovchining jurnali 2004-2005 y.

Bozor, pul va kredit jurnali 2004-2005 y.

O`zbekiston iqtisodiy axborotnomasi jurnali 2004-2005 y

Soliqlar va bojxona xabarlar gazetasi 2004-2005 y.

«Norma» axborot huquqiy tizimi

<http://g`g`www.cer.uz>.

<http://g`g`www.uzland.uz>.

<http://g`g`www.imf.org>.

<http://g`g`www.mircin.ru>.

<http://g`g`www.nalog.ru>.

<http://g`g`www.soliq.Uz>